



2022-yil. 7-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2022-yil
7-son

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosiroy
Tolib Enazarov
To'liq Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev

(bosh muharrir o'rinbosari)

Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

TAHLIL

Rashid ZOHIDOV. XIX asr yozma yodgorliklari – kasb-hunar risolalarining muxtasar tavsifi	2
M. ISMATOVA. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni nashrlari qiyosiy tahlili	4
Obidjon XUDOYQULOV. Oybekning "Navoiy" va Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanlari tahlili	6
Zilola SHUKUROVA. Bayoz tuzish an'anasi va uning adabiy jarayondagi ahamiyati	10
Xasan GAFFOROV. O'zbek tilshunosligida gender tadqiqotlar tahlili	12
Feruza ABDULLAYEVA. Yil fasllari mavzusidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish mashg'ulotlarining umumiy qurilishi	13
Shahnoza MAJIDOVA. Gidronimlarda nomlash tamoyillari va ularda oppozitsiya	15
Axrorov IXTIYOR. Jadid ma'rifatparvarlarining maorif va tarbiyaga oid qarashlari	17
Xamza XAITOV. Badiiy asar va folklor namunalari sa'ning qo'llanishi va estetik ahamiyati	18
Zarifa NORQOBILOVA. Mavlono Jaloliddin Rumiyning "masnaviyi-ma'naviy" asarida keltirilgan hikoyalardan multfilm yaratish g'oyasining pedagogik ahamiyati	19
Nigora SHARIPOVA. "Xamsa" ilk dostonlarida muallif siymosi	21
To'liq ASADOV, Sojida MEHMONOVA. "Otamdan qolgan dalalar" asaridagi -la, -lan, -lash affiksli muallif nutqi neologizmlarining struktur-semantik tadqiqi	23
Rahmatov MARDON. She'riy jumla predikati va predikativlik muammosi	25
Bunyod ERGASHOV. Nemis tilini o'qitishda talabning kommunikativ madaniyatini shakllantirish rivojlantirishda pedagogik ahamiyati	29
Omonulla BAYJIGITOV. Lingvokulturologik frazeologizmlarning assotsiativ talqini	30
Mehriniso CHORIYEVA. Abdurahmon Tamkin Buxoriy tarjimai holi va ijodi xususida	31

TADQIQOT

Maqsud ASADOV. Yunus Emro she'riyatida ma'rifat va komil inson talqini	33
Abduhamid XOLMURODOV. Tahlilda benazir olim	35
Kamola ULUG'MURODOVA. O'zbek g'azalchiligi "Layli" obrazining badiiy talqini	37
Azamat ATAYEV. O'rta asrlar Xorazm adabiy muhiti xususida	39
Diana RUZMETOVA. Ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish tadqiqoti	41
R. X. JUMAYEV. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili	43
Nazira BERDIYEVA. Zamonaviy o'zbek nasri taraqqiyotida badiiy psixologizmning o'rni	45
Lola IDIYEVA. Russian polysemy and their description in sentences	47
Rasul ALIMOV. Usmonli turk shoiri Larendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" dostonidagi qasidalar badiiyati	49
To'liq ALLAYOROV. Interrogativ qurilmalarda shakliy va mazmuniy muvofiqlik masalasi	50

KICHIK TADQIQOT

Karomat MULLAXO'JAYEVA, Nafisa RAXMANOVA. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Nizomiy an'analar va ularning yangicha talqini	52
Gulira'no RASULOVA. "Sab'ai Sayyor" dostonini o'rganishda matn tarixining o'rni	54
Abduraufxon ORIFJONOV. Munisning hayoti va ijodiga oid manbalar tahlili	55
Yulduz JUMABOYEVA. "Lison ut-tayr" turkumidagi dostonlarni qiyosiy o'rganish	56

YAZIKOZHANIIE

Azima HOШИМОВА, Гульчебра ДАВЛЯТОВА. Специфика эмотивных концептов	58
Мафтуна НАСРИДДИНОВА. Несколько слов об иноязычных заимствованиях в русском языке	59
Хилола ИРМАТОВА, Гульмира МАМАЖАНОВА. Теоретические основы вариантности орфоэпической нормы русского языка	60

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Насиба ПАНЖИЕВА, Мадинабону ДЖУРАБЕКОВА. Лингвистические основы обучения иностранному языку	62
---	----

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Шахноза БЕРДИЕВА. Образ автора в литературе нон-фикшн	64
---	----

ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА

Ижобат ЖУРАЕВА. Подросток и школа: характер конфликта в романе Ави «Ничего кроме правды»	66
--	----

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Нилюфар УСМАНОВА, Гулчебра ДАВЛЯТОВА. Современный речевой дискурс и неориторика языковой личности	70
---	----

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.


Rashid ZOHIDOV

*ToshDO'TAU, Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik kafedrası mudiri,
filologiya fanlari doktori*

XIX ASR YOZMA YODGORLIKLARI – KASB-HUNAR RISOLALARINING MUXTASAR TAVSIFI

Mamlakatimiz hududidagi barcha muzeylar, kutubxonalar va arxiv fondlarida saqlanayotgan qadimiy yozma manbalarining davlat reestrini tuzish va doimiy monitoringini yuritish, qadimiy yozma manbalarining turlari bo'yicha (qo'lyozma, toshbosma manbalar, tarixiy hujjatlar) kataloglari va elektron nusxalarini yaratish, ularni qadimiy yozma manbalar yagona axborot tizimiga kiritish hamda muntazam to'ldirib borish choralari ko'rish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022- yil 10- fevraldagi PQ-126-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda belgilangan ko'rsatmalarni samarali hal etish yuzasidan etakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi zimmasiga bir qancha vazifalar yuklatilgan bo'lib, ulardan biri aholida saqlanayotgan qadimiy noyob qo'lyozmalar, chet el fondlaridagi mavjud asarlar nusxalarini ayirboshlash yoki olish hisobidan mamlakatimizning etakchi qo'lyozma va yozma manbalar fondini boyitib borishdan iboratdir. Hukumat miqyosida ilgari surilgan bu maqsad qadimiy qo'lyozmalarimiz xazinalarini boyitish, xorijiy davlatlarning kitob fondlarida saqlanayotgan, balki fanga noma'lum bo'lgan madaniy merosimiz namunalaridan iborat kataloglar tuzish, bunday noyob manbalarni har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi mo'ljallangan "Evropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarining ma'lumotlar bazasini va "Yevroturcologika.uz" elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha ayni maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy loyiha tadqiqot ob'ekti jihatidan keng qamrovli, bibliografik resursi jahon fondlaridagi qo'lyozmalar tavsifi haqida birlamchi manbashunoslik ma'lumotlarini taqdim qilishdan iborat harakatdagi jarayondir. Negaki, Evropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarining ma'lumotlar bazasini yaratish mazkur manbalar haqidagi birlamchi ma'lumotlarni shunchaki qayd qilib qo'yish bilan nihoyasiga etmaydi. Balki, ayni ro'yxatga olish nuqtasidan reesterga kiritilgan har bir qo'lyozmaning kompleks tarzidagi fundamental tadqiqi boshlanadi va bu jarayon

turli sathdagi ilmiy yondashuv, tahlillar orqali uzluksiz davom etadi.

Shu o'rinda loyiha ishtirokchisi sifatida jarayonda amalga oshirilayotgan tajriba va dastlabki natijalar bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni keltirish maqsadga muvofiq. Avvalgi bosqichda A.A.Romaskevich katalogi (27ta), K.G.Zaleman katalogi (90ta), A.Tagirjanov katalogi (22ta) BERUNI.UZ elektron katalog bazasiga kiritilgan qo'lyozmalarga solishtirilib, jami 139 ta O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalar aniqlandi. Shuningdek, L.V.Dimitreva, S.N.Muratovlarning "Описание тюркских рукописей института востоковедения" katalogidagi manbalar ham BERUNI.UZ elektron katalog bazasiga kiritilgan qo'lyozmalarga qiyosan o'rganilib, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan 213 ta turkiy qo'lyozmani aniqlashga erishildi.

O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalar ichida kasb-hunarga oid risolalarning ko'p uchrashi e'tiborimizni tortdi. Ayni yo'nalishdagi qo'lyozmalarining mamlakatimiz hududidan olib chiqib ketilishining siyosiy omillari haqida to'xtalish alohida mavzu. Lekin umumiy ma'noda qaralsa, bu jihat bir tomondan, XIX asr Evropa intellektining Sharq ijtimoiy-iqtisodiy hayotini maishiy jabhada har tomonlama o'rganishga qiziqishi kuchliligini bildirsa, boshqa tomondan, Evropaning bugungi iqtisodiy taraqqiyotida Sharq ijtimoiy-iqtisodiy madaniyatining ta'siri nechog'li ekanini anglatadi.

Quyida Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari instituti fondidagi O'zbekistonda mavjud bo'lmagan ellikdan ortiq kasb-hunar risolalarining ayrimlari bo'yicha muxtasar tavsifni keltiramiz.

عربه سازللق [arabasazliq]

Aravasoqlik sohasiga bag'ishlangan **A 374** inventar raqami ostida saqlanuvchi ushbu qo'lyozma (Dimitreva, 2210) 16 bet (1b-17a) dan iborat bo'lib, muqova o'lchami: 17x10,5; matn o'lchovi: 13,5x7,5. Boshlanishi (1b): الحمد لله رب العالمين و العاقبة للمتقين... وأصحابه اجمعين اما راويان اخبار

XIX asr oxiri. Qora siyohda nasta'liq xatida ko'chirilgan. Evropa qog'ozi. Muqova keyinroq (1956 y.) kartondan qilingan, labagisi sun'iy charmdan. Muqovalash jarayonida qo'lyozma ta'mirlangan. (S.M.Smironov kollektsiyasidan 1880 y.)

اسپ فوروشلىق [aspfurushliq]

Ot savdosi qonun-qoidalariga bag'ishlangan **A**



403 inventar raqami ostida saqlanuvchi bu qo'lyozma (Dimitreva,2210) 47 bet. 11a-17b betlarda mavzuga oid duolar keltirilgan. Muqova o'lchami: 12x8; matn o'lchami: 8x5,5. Boshlanishi (2a): اما جعفر صادق... انداغ روایت قیلب دورلار کم...

Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Ko'chirilgan joyi – Koshg'ar. 1309/1891-92 y. Kotibi – طوع و میرکلا دبغ (47a). Xitoy qog'oz, muqovasi kartondan, labagisi teridan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[attorliq] عطارلیق

Atr tayyorlash bo'yicha risola. Inventar raqami – **A 416**. Hajmi – 27 bet. O'lchami – 19x11,5; 13x7 (Dimitreva,2212). Asar nomi 16b betda ko'rsatilgan. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1b): یاغملق روکدم ان و یفخم ملل دمحل: (1b). Xitoy qog'oz. Muqovasi kartondan, labagisi charmdan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[oshpazlik] آشپزلیک

Oshpazlik risolasi. Inventar raqami – **A 401**. Hajmi – 11 bet. (Dimitreva,2214). O'lchami: 13x9,5; 7x5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1b): الحمد لله... جبرائیل علیه السلام غا فرمان بولدی... Xitoy qog'oz. Muqovasi kartondan, labagisi charmdan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[ohangaron] آهنگران

Temirchilik risolasi. Inventar raqami – **A 369**. Hajmi – 32 bet. (Dimitreva,2216). O'lchami: 12x8,5; 8x6,5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1b): الحمد لله... بیعد حمد خدا و نعت... Xitoy qog'oz. Muqovasi xitoyi charmdan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[baqqolliq] قیل لاقب

Baqqollik risolasi. A 389 inventar raqamidagi bu risola o'rama qo'lyozma (svitok) sifatida saqlanadi. (Dimitreva,2217). O'lchami: 116x25; 103x18. XIX asr oxiri. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan. O'rta Osiyo qog'oz. Boshlanishi (1b): الحمد لله... انداغ روایت قیلب: (S.M.Smirnov kolleksiyasidan 1880 y.)

[bofandaliq] بافنده لیق

Tikuvchilik risolasi.

Inventar raqami – **A 551**. Hajmi – 15 bet. (Dimitreva,2218). O'lchami: 11x8; 7x5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1a): الحمد لله... آدم Xitoy qog'oz. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[dehqonliq] دهقان لیق

Dehqonlik risolasi.

Inventar raqami – **A 376**. Hajmi – 32 bet. (Dimitreva,2223). O'lchami: 11,5x8,5; 6,5x5,5. 1285/1868-69. Nasta'liq xatida

da qora siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1a): الحمد لله... آدم علیه السلام نی کنه... Xitoy qog'oz. Labagisi teridan bo'lgan kartonli muqova keyin qilingan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.) [dehqonchiliq] دهقانچیلیق

Dehqonchilik risolasi. Inventar raqam – **A 2126**.

Hajmi – 85b-b. (Dimitreva,2227). O'lchami: 21x13,5; 16,5x9. 1285/1868-69 y. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan. Muqova bo'rtma naqshli, labagisi charmdan. Boshlanishi (85b): الحمد لله رب العالمین... (Ivanov kolleksiyasidan 1915 y.)

[javozchiliq] جوازچیلیق

Inventar raqami – **V 2126**. Hajmi – 81b-85a. (Dimitreva,2229). O'lchami: 21,5x13,5; 16,5x9. Taxminan, 1863 yillarga oid. Boshqa ma'lumotlar 2227-raqamli tavsifda. 1285/1868-69 y. Boshlanishi (81b): الحمد لله رب العالمین...

[divanachiliq] قیلى چى دن اويدى

Gadoylik odob-axloqi haqidagi ushbu risolaning inventar raqami A 413. Hajmi – 32 bet. (Dimitreva,2232). O'lchami: 10x9; 4,5x5. 1318/1900-01 y. Nasta'liq xatida qora va jigar rang siyohda ko'chirilgan. Kotib – Mulla Choshim Aljoniy. Qog'oz xitoyi. Muqova kartondan, labagisi charmdan. Boshlanishi (1b): الحمد لله رب العالمین... بو رساله سائل لیق... (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[qazonchiliq] قازانچیلیق

Inventar raqami – **A 419**. Hajmi – 16 bet. (Dimitreva,2233). O'lchami: 9x7; 6x5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Qog'oz xitoyi. Muqova kartondan, labagisi charmdan. Boshlanishi (1b): الحمد لله... انداغ روایت قیلب دورلار کیم قزانچی لیق احکامنى... (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

[qassobchiliq] قیلى چى باصق

Qassobchilik qonun-qoidasi haqidagi risola. Inventar raqami **A.379**. Hajmi – 13 bet. (Dimitreva,2234). O'lchami: 12x9; 7x6,5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan. Qog'oz xitoyi. Muqova kartondan, labagisi charmdan. Boshlanishi (1b): الحمد لله... بو رساله نی حضرت جوان مرد بتب دورلار... (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

M. ISMATOVA,

Prezident ta'lim muassasalari
 agentligi G'ijduvon ixtisoslashgan maktabi oliy toifali
 ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI NASHRLARI QIYOSIY TAHLILI

Amir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy qoldirib ketgan ulkan ma'naviy meros noyob tafakkur sarchashmasidir. Bu sarchashmadan bahramand bo'lganing, ular atrofi-da izlanganing sayin yangi-yangi ma'no jilg'alari oqib chiqaberadi. “Xamsa” hayratlari orasida “Farhod va Shirin” dostoni alohida ahamiyatga ega doston desak xato bo'lmaydi.

Navoiy ijodini o'rganish o'zi yashagan davridayoq boshlangan. Asarlari kotiblar, hattotlar tomonidan ko'chirilgan, shuningdek, “shohbaytlar” sifatida saralab devon holatiga keltirilgan. Alisher Navoiy ijodiy mero-si orasida “Xamsa” dostonlarining o'rganilishi alohida ahamiyatga ega. Dastlab XIX asrning ikkinchi yarmida kotiblar tomonidan tosh bosma shaklida Navoiy dos-tonlari nashr etilgan. Qori Abdumannofhoji kotib to-monidan ko'chirilgan “Farhod va Shirin” dostoni matni bilan Porso Shamsiyev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni o'zaro solishtirilganda kotib dostonni juda e'tiborli bo'lib tayyorlaganligini ko'rish mumkin. Keyinchalik 1964-yil-da Alisher Navoiy asarlarining XV tomlik nashri Porso Shamsiyev tomonidan nashrga tayyorlab chop etildi. Mustaqillikka erishgandan so'ng 1991-yilda Alisher Navoiy asarlarining XX tomlik Mukammal asarlar to'pla-mi nashr etildi. Ammo yuqoridagi ikkala nashrda ham ba'zi kamchiliklarni kuzatish mumkin. Bu kamchiliklar buyuk mutafakkir asarlari sharhi, mazmuni va g'oyasini tushinishda xato fikrlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ana shu kamchiliklarni tuzatish maqsadida 2012-yilda Alisher Navoiyning o'n jildlik “To'la asarlar to'plami” nashr etildi.

Biz mazkur tadqiqotda “Farhod va Shirin” dostoni nashrlari orasidagi farqli jihatlar haqida so'z yuritamiz. Dostondagi ba'zi baytlarda kuzatilgan shakliy va maz-muniy xatoliklar to'g'risida fikr yuritamiz.

“Farhod va Shirin” dostonining XX tomlik Mukammal asarlar nashri II bobidan quyidagi baytni tahlil qilamiz.

**Damekim qahri o'ti tutmay orom,
 Erib ko'k o'ylakim bir qo'rg'oshin xom.**

Baytning mazmuni: uning qahr o'ti ham bir dam ham oromsiz bo'lib, osmonning oldida pishmagan qo'rg'oshin erib turgandek.

Xuddi shu bayt “Farhod va Shirin” dostonining X tomlik to'la asarlar nashri II bobidan quyidagicha beril-gan.

**Damekim qahri o'ti tutma yorom,
 Erib ko'k o'ylakim bir qo'rg'oshin jom.**

Baytning mazmuni: uning qahr o'ti ham bir dam ham oromsiz bo'lib, osmonning oldida qo'rg'oshin idish erib turgandek.

Fikrimizcha, osmon pishmagan qo'rg'oshinga o'xshatilishi u qadar to'g'ri emas. Osmon mavjud narsa pishmagan deganda hali tayyor bo'lmagan narsa tus-huniladi. Qahr o'ti oldida osmon pishmagan qo'rg'os-hin kabi deyishda hech qanday o'xshatish yoki biror ma'noni tushinib bo'lmaydi. Xuddi qofiya uchun tan-langan so'zga o'xshab qoladi. Navoiy tanlagan so'z, nafaqat, qofiyaya nabiror ma'no va mazmun ham kasb etishini biz yaxshi bilamiz. Bu yerda “osmonning qahr o'ti (olovi)dan erib qo'rg'oshin jom ya'ni idishga aylan-di”, degan ma'no to'g'ri bo'lar edi.

“Farhod va Shirin” dostonining XX tomlik nashrida VI bobdagi quyidagi baytga e'tibor qaratamiz:

**Yo'q ersa jam' bo'lsa borsdek yuz,
 Alardin hosili yo'q, g'ayri pud yuz.**

“Farhod va Shirin” dostonining XV tomlik nashrida esa xuddi shu bayt quyidagicha:

**Yo'q ersa jam' bo'lsa borsdek yuz,
 Alardin hosili yo'q, g'ayri puf yuz.**

“Farhod va Shirin” dostonining X tomlik to'la asarlar nashrida esa xuddi shu bayt quyidagicha:

**Yo'q ersa jam' bo'lsa borsdek yuz,
 Alardin hosili yo'q, g'ayri pud yuz.**

Baytning mazmuniga e'tibor qaratilsa “g'ayri pud yuz” jumlasini to'g'ri bo'ladi. Baytda shoir “Xamsa”navis ustoz-larini sherga o'xshatib sherning qarshisida sherlarcha jang qilish kerak. Sher bo'la olmagan taqdirda loaqal bir yo'lbarscha bo'lish zarur. Bo'lmasa yo'lbarslardan yuz-tasi yig'ilsa ham ulardan foyda yo'q, ularning yuziga puf deyish kerak xolos” degan ma'noni uqib olish mumkin. Bu yerda “yuz” ikki ma'noda (raqam va chehra) berilib, so'z o'yini ishlatilmoqda.

Agar biz baytdagi shu jumlagi “pud” deb qarasak, pud og'irlik o'lchovini bildiradi. “Bo'lmasa yo'lbarslardan

yuztasi yig'lsa ham ulardan foyda yo'q, ularning yuziga pud deyish kerak xolos" yo'lbarsga qarab og'irligini aytgan bo'lardi.

Xuddi shu kabi yana bir boshqa baytni tahlil qilamiz. "Farhod va Shirin" dostonining X tomlik to'la asarlar nashrida esa xuddi shu bayt quyidagicha:

**Ki, ey kunji malolatning xumuli,
Tushub dardu balo ko'nglung qabili.**

"Farhod va Shirin" dostonining XX tomlik Mukammal asarlar nashrida esa xuddi shu bayt quyidagicha:

**Ki, ey kunji malolatning xamuli,
Tushub dardu balo ko'nglung qabili.**

Baytning mazmuni: "Ey siqilib, bir burchakda yolg'izlanib qolgan kishi, ko'ngling suyгани qayg'u va balo bo'lib qolibdi."

Baytda *xumul* so'zi to'g'ri qo'llangan. Xamuli mazmuni esa baytning ma'nosiga putur yetkazadi. Ushbu jumla Alisher Navoiyning XV tomlik Asarlar nashrida ham "xumuli" shaklida berilgan. Ushbu to'plamni matnshunos Porso Shamsiyev nashrga tayyorlaganligini inobatga olsak, ushbu baytdagi "xumuli" so'zi to'g'ri qo'llangan. Chunki Porso Shamsiyev bu asarning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlagan. Va bunday xato jumlani qo'llamasligi ravshan.

"Farhod va Shirin" dostoni nashrlarida bir qator shakliy va imloviy xatoliklarni, shuningdek, qo'shma so'z va izofali birikmalar turlicha qo'shib, ajratib yozish singari turlicha imlo ko'rinishini kuzatishimiz mumkin.

"Farhod va Shirin" dostonining XX tomlik Mukammal asarlar nashrida bayt quyidagicha:

**Taolallo ne hayyu qodiri pok
Ki aqli kull anga deb: "Moarafnok".**

"Farhod va Shirin" dostonining X tomlik to'la asarlar nashrida esa xuddi shu bayt quyidagicha:

**Taolallo, ne Hayyu Qodiri pok
Ki aqli kull anga deb: "Mo arafnok".**

Yana bir baytga e'tibor qaratamiz: XX tomlik nashrida

**Ne maxzan, hardurri sham' ifarog'i,
Nedur, ne sham', durri shabcharog'i.**



Xuddi shu bayt X tomli nashrda:

**Ne maxzan, har durri sham' ifarog'i,
Nedur, ne sham', durri shabcharog'i.**

Bayt:

Qazo Farhodi amri rahnamuni,
Zabun olinda gardun **besutuni**
Shu bayt: Qazo Farhodi amri rahnamuni,
Zabun olinda gardun **Besutuni**

Ko'rinib turibdiki, nashrlarda faqat ma'noviy emas imloviy, shakliy farqlarni kuzatish mumkin. Va bunday imloviy va shakliy xatolarning ko'pligi kishini tashvishga soladi. Bizning fikrimizcha, qaysi asar qachon nashr etilmasin barcha davr o'quvchilariga moslab nashrga tayyorlanishi kerak. Shundagina bu asar nashri ko'p vaqt o'quvchilarga xizmat qilaoladi. Nashrda yo'l qo'yilgan kamchiliklar faqat mutaxassislar tomonidan tuzatib o'qilishi mumkin. Ammo keng kitobxonlar shunday xatolar bilan mutoala qilishadi va shuni to'g'ri deb bilishadi. Asardagi kamchilikni oddiy kitobxon mutaxassis singari tuzatib oqiyolmaydi. Uning xotirasida ana shu nashriy xatoligicha qolib ketadi.

Navoiydek buyuk mutafakkirning g'oyalari, fikrlari, har bir so'zi salmoqli. Shu bois bugungi kun yoshlari va zamondoshlarimizga uning yetuk, qimmatli merosini o'z holicha yetkazmoq sharaflil burch hisoblanadi. Ushbu mas'uliyatni his etgan holda Alisher Navoiyning ijodiy merosini o'rganishga jiddiy yondashish lozimligini har birimiz unutmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alisher Navoiy. Asarlar. XV tomlik 7-jild. Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1964.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, XX tomlik. 8-tom.-Toshkent: Fan, 1991
3. Alisher Navoiyning. Tola asarlar to'plami, X tomlik. 6-tom. -Toshkent: G'afur G'ulom, 2012.

Obidjon XUDOYQULOV,
Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi 19-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

OYBEKNING “NAVOIY” VA ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANLARI TAHLILI

Istiqloq davri romanlari yangi ohanglar hisobiga boyidi. Uning ifoda tarzi jahonning ilg'or an'analari-ni o'zlashtirishi va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirishi natijasida o'zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an'anaviy usullar (bayon, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash)ning o'z o'rnini bo'shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi.

Xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan Mustaqillik juda ko'p jabhalarda bo'lganidek, ma'naviyat sohasida ham katta o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Millatimiz hayotida mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy muammolarga har qachongidan ko'ra ham diqqat-e'tibor kuchaydi.

Istiqloq mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib borayotganligining o'ziyoq, badiiylilik mezonlaridagi o'zgarishlarda ham namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda globallashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlarning hayotiy zarurati oshmoqda. Afsuski, XIX asrdan boshlaboq G'arbiy Yevropa adabiyotidagi ayrim oqimlarda jamiyatning axloqiy-estik me'yorlarini o'zgartirishga o'rinish holatlari uchray boshladi. Bu esa o'z navbatida har qanday axloq-odobni inkor etishgacha bordi.

Sharqda esa buyuk an'analar tadrijiy davom ettirilib, asosan axloqiy, ma'naviy qadriyatlar asosidagi talqinlar etakchilik qilganligini kuzatish mumkin. Bu esa insonning shaxs sifatida kamol topishiga zamin hozirlasa, ikkinchidan, mavjud jamiyatning muvozanati odob-axloq, insoniy burch, mehribonlik va shafqat tuyg'ulari bilan taraqqiy etadi. Inson ruhiyatini parvarishlovchi birdan-bir yuksak vosita bu so'z san'ati hisoblanadi. Shuning uchun ham badiiy asar o'qish bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bejiz emas.

Ikki asar mutolaasi. Ularni birga o'qigan kitobxon egizaklarni adashtirib qo'ygani kabi shoshib qolishi, o'xshash voqealarni ikki asardan bitta ipga terib, qo'shib-chatib aytishi bor gap!.. Lekin egizaklar qanchalik o'xshash, bir ota-ona, bir oila farzandi bo'lmasin ularning xarakter xususiyati, dunyoqarashi, hatto qisman bo'lsa-da tashqi ko'rinishi ham o'ziga xos bo'ladi. Buni ziyrak kitobxon tez anglashi tabiiy. Biroq inkor etib bo'lmas yana bir haqiqat borki, bu ikki asar ezgulik yo'lidagi birlashgan musht kabi biri-birini to'ldiradi, biri-biridan kuch oladi.

Bundan bir necha yil oldin taniqli yozuvchi Oybekning “Navoiy” romanini ilk marotaba o'qiganimda

pok qalbli bobomizga mehr qo'ygandim, ijodkor mahoratiga tasannolar aytgandim. Har safar bu asar haqida eshitsam, undan iqtiboslar o'qisam yoxud sujetiga o'xshash voqealarga duch kelsam, sarkardalardan ham ortiq mardlik ko'rsatgan, musichaga ham ozor bermagan (chodiriga qurgan inini buzmasdan tuxumlarini asrab qolgan), (Oybek, “Navoiy”, Yangi asr avlodi, 2019, 312-bet) vijdotsiz amaldor Majiddiddinga qarsh turgan haqiqatpesha, ilmparvar, mehribon Navoiy bobom shuurimda gavdalanardi.

Hozir Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanini mutolaa qilib, shoirning bolalik damlari, Mashhad-u Samarqandda chekkan zahmatlari, ota-ona ruhlari uchun Ansoriy maqbarasini supurib topgan quvonchlari (Isajon Sulton, “Alisher Navoiy”, Adabiyot, 2021, 392-bet)ga sherik bo'lgandek his ettim o'zimni. Shubhasiz, ikki asar ham kitobxonga Navoiy siymosini yaqinlashtiradi.

“Har kimning qalbida o'z xalqining jajji qiyofasi yashaydi”, – deydi Freytag. Ana shunday milliy qiyofani aks ettirish, XV asr Xuroson va Movarounnahr tarixi, ajdodlarimiz xakteri, urf-odat, xulq-atvor, turmush tarzini yoritish, haqqoniy va tarixiy haqiqatlarga muvofiq gavdalanitirish ikki adib uchun qanchalik mushkul bo'lgan, deb o'ylaysiz?

Oybek “Navoiy” romanini yozmoqchi bo'lgan davrda bobomiz qiyofasi quyuq tumanlar ichida chirog'i o'chgan uy kabi zulmatda edi. Lekin Oybek unga pok niyat va ixlos bilan qadam qo'yaverdi, ruhan kurashdi, mafkura va turli davrlar xiralashtirib qo'ygan chiroq oynasini tozalab, qalblarga yorug'lik olib keldi. Oybek Navoiy haqida dastlab eski maktabda eshitadi. Shu davrdan qalban Navoiy navosiga ilhaq bo'lib yashaydi. U yurak talpingan kuylar navi intildi, o'qib-o'rgandi...

Mana shunday samarali mehnatlar tufayli bugungi kitobxon u yaratgan Navoiy obrazini tanidi. Oybek tarixning murakkab davrida yashadi. 1937–1952-yillar qatog'onidan omon qolgan Oybek mustabid tuzum bilan hisoblashishga majbur bo'ldi. Ana shunday vaziyatda u Navoiy obrazidan kuch va madad oldi. 1937-yili “Navoiy” romani uchun xamirturush vazifasini o'tagan “Navoiy” nomli poema yozdi. Roman ustida ishni 1940-yillarda boshladi. Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan keyin chinakam dohiylar, sarkardalar, turli sohalarning sardorlariga ehtiyoj kuchayayotgan davrda xalqqa bilimli, uzoqni ko'ra oladigan Navoiy obrazi bosh

bo'lishi mumkin degan o'ylari xato emasligini angladi. Ana shunday zarurat tufayli romanni tugatish uchun katta ilhom, kuch-g'ayrat bilan ishladi.

U Navoiy bilan yashadi, uning siyratini anglash uchun uyidan hujra ham qurdirdi, sham yorug'ida qalam tebratib, XV asr muhitini his qildi. Shu tariqa bu asar dunyo yuzini ko'rdi. 1941-yili nishonlanishi rejalashtirilgan Navoiy tavalludining 500 yilligi Ikkinchi jahon urushi tufayli yetti yilga kechiktirildi. 1948-yil bu qutlug' sana o'zbek xalqining milliy bayrami sifatida ilk bor nishonlangandi. O'sha tantanaga ham Oybek Navoiy ruhiga muhabbat bilan bosh-qosh bo'ldi.

Xo'sh, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani uchun qanchalik mehnat qildi, asarning zamonamizga daxldorligi qay darajada?

Isajon Sulton bu romanni 2016–2020-yillarda yozganligi ko'rsatilgan. Roman 2021-yilgacha qayta ishlanib, nashrga tayyorlandi. Bu romanda tarixiy, badiiy, xotira asarlari bilan bir qatorda Qur'oni karimga murojaat qilindi, asardan Navoiy bitiklari kabi hamdlar o'rin oldi: "Bu ma'voda hech kim o'zining ne ekanini bilmaydi. Biroq o'z tirikligidan, tevaragidagi hayot jo'shqinligidan hayron-hayron turadi. Barchasi o'zlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ajablanib, Olamlar Parvardigoriga shu tiriklik uchun so'ngsiz shukronalar aytishadi". Adib jarayonda Oybekning "Navoiy" romanidagi voqealarni yanada mufassal o'rgandi, tarixiy haqiqatlarni tikladi, ularni yanada boyitdi. Xususan, Oybek asarida Navoiyning bolalik va yigitlik chog'larini tasvirlashni joiz deb topmasdan, asar voqealarida uning yetuk shoirlik davrini tasvirlaydi va to'qima obrazlar tufayli Navoiyning ideallashtirilgan qiyofasiga kitobxon nigohini qadaydi. Isajon Sulton esa salafarlari ijodini to'ldirib Navoiyning bolalik va o'smirlik yillari ham ochib berilgan asar yozishga harakat qildi.

Bahodir Qobul bugunimiz va Navoiy bobomiz haqida shunday yozadi: "Amir Alisher Navoiyning har satri nafaqat turkiylarning, balki insoniyatning yo'l ko'rsatir chirog'i ekanligi allaqachon tan olingan bo'lsa-da, Hazratning yoziqlarini sharillatib o'qib, parillatib aytib berish ajdodlar-avlodlar orzusi bo'lib qolavergan. Hazratning biron-bir asarini boshqa kitoblarni o'qigandek erkin va maza qilib o'qishning imkoni yo'q. Sabab, savodsizlik va Navoiyning manguylikka tegishli o'lmas tilidan bebahrlik".

Bu fikrlarni o'qib, xayolimda savollar aylana boshladi: Biz ilmdan uzoqlashib, ijtimoiy tarmoqlardagi "yurakchalar"ni sanash bilan ovvora, o'zi uyida o'zligiga begona kimsalarga aylanib bormayapmizmi? Yaxshilik va yomonlik doim hamroh bo'ladi. To'g'ri, bilim uchun kurashib, ziyo taratayotgan vakillar ham bor, ammo ilm quyoshi faqat kungaylarga to'kilyapti, ammo terskayga ham kun kerak axir. Terskaylarda qolgan qor-u muzchalarning oyoq bossa botadigan balchiqqa aylanib qolmasligi uchun ham ilm ziyolari kerakdek, nazarimda. Tarixda hamma davrlar murakkab bo'lgan va hozir ham yengil davrni boshdan kechirmayapmiz. Albatta,

bularning barchasi inson tafakkurida evrilishlar yasaydi. Tarixning murakkab davrida yaratilgan "Alisher Navoiy" romani bizni ilm sari chorlashiga umid qilamiz.

"Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar " uchun otildi;

Oybek "Navoiy" romani uchun nohaq zulmga uchrab, oqibatda tildan ayrildi;

Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin" va "Mirzo Ulug'bek" uchun yigirma besh yilga "kesildi";

Mirkarim Osim tarixiy asarlari uchun o'n yilga qamal-di;

Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romani uchun qanday og'ir iztiroblarni boshidan kechirib, umrining oxirida bedavo xastalikka giriftor bo'ldi...

Bu ma'shum ro'yxatni, afsuski, yana davom ettirish mumkin"(Xayriddin Sulton, "Maktub"; "Alisher Navoiy", Adabiyot, 2021, 508-bet). Shu o'rinda tarixiy adolatni yoritib ketishimiz ham kerakki, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romani uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi yuksak unvoni bilan mukofotlandi.

Ikki asarda bir tarixiy shaxsga bag'ishlangani uchun ham o'xshash nuqtalar, ikki xil rakursdan qaralgani uchun farqli tomonlar uchrab turadi. Masalan, Navoiy adabiyotga ixlos qo'yib, g'azali tufayli Lutfiy ehtiromiga sazovor bo'lishi bu asarlarda ikki xil tasvirlangan. Oybekning "Navoiy" romanida yosh Alisher shoir Lutfiy yoniga yolg'iz borganligi ko'rsatilgan: "Mana u ko'pdan buyon qilgan kuchli orzuning kutilmagan vaqtda bir qistovi bilan o'rnidan turdi-da, ko'chaga otildi. ...O'z tengi bolalar ko'chalarda, tomlarda gala-gala o'ynab yurishadi; kimi yong'oq o'ynaydi, kimi yoydan o'q uzadi.

ALISHER – bola esa shaharning Bog'ishamol tarafiga (Isajon Sultonida Lutfiy Hiriyan yarim kunlik masofadagi Dehi Kanorda edi, deya ko'rsatilgan) ildam yurib, serhasham bir eshik oldida to'xtaydi. ...Katta, daraxtzor hovlida hassaga suyalib, asta-asta yurgan mo'ysafidga – zamonning ulug' shoiri mavlono Lutfiyga ko'zi tushishi bilan uzoqdan salom beradi va yugurib, o'zini bir onda cholning yonida ko'radi va unga bolalik ko'zlarining toza samimiyati bilan tikiladi"(320-bet).

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy"sida esa bola Alisherni Lutfiy hazratlarining o'zi chorlaganligi, uning qoshiga tog'alari Mirsaid va Muhammad Ali bilan birga borganligi qayd etilgan: "Oradan bir oyga yaqin vaqt o'tib, boshdan-oyoq changga botgan tog'oyilar kirib kelishdi. Horigan bo'lishsa-da, kayfiyati chog', bir muddat istirohatga ruxsat berilganini, Alisherni mavlono Lutfiy o'z huzuriga chorlaganini aytib, shu sababli to'ppa-to'g'ri shu yoqqa kelaverishganini aytishardi" (73-bet).

Oybek tasviri orqali biz yosh Alisherning ilmga, adabiyotga ishtiyoqi, qiziqishi, iste'dodi nihoyatda kuchli ekanligi, Isajon Sulton tasviri orqali esa yosh jiyanining qobiliyatiga befarq bo'lmagan tog'alari obrazi, ularning ulug' adib hayotida tutgan o'rnini, bu orqali yaxshi shoirni zamona tarbiya qilishini ko'rishimiz mumkin. Albatta, tug'ma iste'dod ham muhim o'rin tutadi, lekin yaqinlar, zamondoshlar e'tibori Navoiyni kashf qiladi.

Oybekning "Navoiy" romanida shoir atrofidagi oddiy

shaxslarni va ularning hayotida adibning darajasi ulug' ekanligini ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton asarida esa voqealar rivoji Navoiy obrazi atrofida aylangan, to'qima obrazlar ham "Navoiy" asarichalik ko'p emas, endi u tarixiy shaxslar, dalil va isbotlar hamda qimmatli maktublar bilan boyigan.

Bir xil voqealar ikki asarda qanday yoritilgan? Keling, bularni, baholi qudrat, ko'rib chiqamiz.

Husayn Boyqaroda Navoiyni Astrobodga hokim qilish fikri qanday paydo bo'ldi?

Oybekning "Navoiy" romanida kayf-safoga berilib, xazinani ko'kka sovurayotgan podshoga ikki tuman oqcha kerak bo'ladi. Ammo xazinada pul yo'q, uni topib berish va'dasini qilgan Majiddiddin uni bosh vazir qilishini so'raydi, ayonki, bunda faqatgina Navoiy zulmga to'siq edi. Shu tariqa asarda Navoiy Astrobodga "surgun qilingan":

– Men sizni Astrobodga yubormoqni munosib ko'rdim, – dedi podshoh ovozi balandroq qo'yib.

– Har qanday bahona topsangiz ham qarorimdan voz kechmasmen. ("Navoiy" romani, 310-bet).

"Alisher Navoiy" asarida esa podsho u darajada maishatparast emas, soliqni ham xazina bo'shagani uchunmas, aksincha uni ko'paytirish niyatini Majiddiddin qabul qiladi, hatto Oybek asaridan farqli unda amaldorlarga ham soliq solinadi: "Mulklar o'lchanib baholanar, hosil chamlanib nisob chiqarilar, to'lov uchun muddat belgilanib, xat imzolatib ketilardi. Avval qora xalq yelkasidagi soliq mashaqqati endi o'rtahollar va yuksak martabali kishilar zimmasiga tushib, hamma ni esankiratib qo'ydi" (257-bet). Navoiyning Astrobodga hokim qilinishi ham xazina yoki adolatsizlik tufayli emas, zaruriyat jihatidan bo'ladi: "Astrobod bilan Hisor notinch bo'lib, shu ikki navohiyda goh-goh g'alayon olovlari yolqinlanib turardi" (256-bet); "Sulton Husayn a'yonlar bilan kengashib, saxovat-u xulqda benazir Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib tayinlashdan boshqa chora qolmaganini, yo'qsa, sovutlar kiyilib, qilichlar qinidan chiqib, qon to'kilishini tushunib yetdi" (296-bet).

"Navoiy" romanida Majiddiddin soliq yig'ishda To'g'onbekka, "Alisher Navoiy"da Qora Mo'g'ulga suyanishi ko'rsatilgan.

Haydar Sabuhij va Navoiyning zaharlanish voqeasi ham o'ziga xos talqin etilgan.

Haydar Sabuhij ikki asarda ham beqaror, uzoqni ko'rolmaydigan, sayoz kishi deb ko'rsatilgan. Uning achchiq, kinoyali tili tufayli zindonband etilishini Oybekning "Navoiy" romanida kuzatamiz. Bunga sabab, Navoiyning joniga Astrobodda suiqasd qilishlariga qarshi Haydarning bosh ko'tarishi edi. Ammo Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida zaharlanish voqeasi ig'vo ekanligi yoritilgan: "Men buni demadim. Ayrim kishilar Sulton Husayn mirzo Alisher Navoiyni Astrobodga atay surgun qildi, hatto zaharlab o'ldirmoqchi degan gap tarqatibdi. Shunday gap-so'zlar uning qulog'iga yetib borgan bo'lsa ajabmas.

– Kim tarqatibdi?

– Amirning o'z jiyani Haydar Sabuhij. Bu gapni Astroboddan Hirotga kelganida ayrim kishilardan eshitgan emish". (308-bet).

Haydar "qilmishlari" uchun "Navoiy" romanida zindonga tashlangan, keyinchalik darveshlikni tanlagan bo'lsa, "Alisher Navoiy" asarida u bir umrga saltanat ishlaridan chetlashtirilgan.

Xo'sh, Navoiyning ukasi Darveshali nega isyon ko'tardi?

"Navoiy" hokimiyatdagi nohaqlig-u adolatsizliklar, Husayn Boyqaroning tartibsiz siyosati Darveshaliga yo'qmagan uchun qo'zg'olon ko'targaniga ishora qilinadi. "Alisher Navoiy" romanida buning sabablarini donolik, fahm-u farosatda tengsiz kishi Xoja G'iyosiddin Dehdor tilidan quyidagicha bayon qiladi:

– Darveshali bir kitobdor bo'lsa, unda isyon qilmoqqa ne had. Qoldiki, kimlardir bir nimalarni qulog'iga shivirlagan chiqar? Yoki yoshligiga borib, Amir Alisherning Astrobodga yo'nalishidan norizo bo'lsa ajabmas". (307-bet).

Majiddiddinning porloq quyoshi qanday so'ndi?

Har ikki romanda ham bu obraz poraxo'r, boylik va mansab izidan nomatlub ishlardan ham tap tortmaydigan qilib tasvirlangan. Aynan shu obraz orqali biz boylik, mol-mulk insonga hech qachon vafo qilmasligini, hiyla-nayranglarimiz o'z oyog'imizga bolta bo'lishini bilib olishimiz mumkin.

"Navoiy" romanida Majiddiddinning vazirlik darajasidan tushishiga adolatsizlikka qarshi ko'tarilgan Darveshali isyoni sabab edi. Husayn Boyqaroning nazaridan qolgach esa ayyor Nizomulmulk tufayli boridan, yig'gan hamma oltin-u kumushlaridan mahrum bo'ladi. So'ng haj safarini o'ziga ma'qul ko'rib To'g'onbek bilan xayrlashib, roman voqealaridan uzoqlashadi. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida, Majiddiddinning tole yulduzi so'nishi ham bu asardan farqli tasvirlangan va uning hokimiyat tepasidan ketishi romanda quyidagicha ochib berilgan: "Haydar Sabuhij" zaharlanish bilan bog'liq gap-so'zni mastlik chog'i Abdulloh Noiy degan kishidan eshitganiga iqrar bo'ldi. Bu bemulohaza yigitga had urish jazosi belgilandi va bir umrga saltanat ishlaridan chetlashtirildi. Abdulloh Noiy istab borganlar esa uni kimlardir ikki kun avval uyida o'ldirib ketishganidan xabar topishdi. U Majiddiddin eshigida xizmatchi bo'lgan ekan. Shu tariqa, ip uchlari Majiddiddinga borib taqaldi" (309-bet). Ikkala asarda ham ochko'z vazir boyligi Amir Muhammad Ali Atka tomonidan musodara qilinadi. Ammo Isajon Sulton Majiddiddinning ayblarini bo'yniga qo'yishini yoritgan tasviri, nazarimda, tabiiylikdan yiroq. Asarda Majiddiddinni "qulatish" uchun maydonga o'zi ishdan bo'shatgan Muhammad Amruobodiy kirib keladi va Majiddiddinga uning bir og'iz kamsitish so'zi yetib borgach, u hamma aybini shunchaki tan oladi, boridan ayrilgach vazirni hajga yuborish qaroriga keladilar, so'ng vazir Makkaga ketyotganda yo'lda noma'lum qotillar tomonidan o'ldirib ketiladi. Bular shunchaki voqeanavislikdek tuyil-

di menga. Balki, uning qo'rqoqligini bo'rttirish uchun shunday qilingandir, yana o'ylab ko'rsa arziydi, bu bir kitobxon nigohim xolos. Oshpaz Abdusamad va xizmatchi Abdulloh Noiy – taqdirlari o'xshash ikki personaj Ikki asarda ham zulm qo'lida o'yinchoq bo'lgan nafs bandalari bor va ularning taqdirlari ham o'xshash – o'lim bilan tugaydi. Ular "Navoiy" romanidagi shoirmi zaharlamoqchi bo'lgan oshpaz Abdusamad va "Alisher Navoiy" romanidagi ig'vochi Abdulloh Noiy. Ular uchi topilmasin deya uzilgan kalava iplari, xolos. Navoiyning asardagi so'zlari har ikkalasiga ham tegishli og'riqli ingroq: "Abdusamad kim? Ojiz, gumroh bir banda, aqldan mahrum bir olat! Haqiqiy jallodlar, qotillar, eng qabih jinoyatkorlar Hirotdadirlar" ("Navoiy", 376-bet).

Shunisi ravshanki, har ikkala tarixiy asardan ham bugunning gapini topishimiz mumkin. Navoiy bejiz Badiuzzamonni tarixni o'rganishga da'vat etmagan. Bu da'vatlar bizga ham tegishli. Masalan, bu asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, yuritilayotgan davlat siyosati, yuz bergan parokandalik sabablari bizni hushyorlikka chaqiradi, Navoiyning Badiuzzamonga (aslida, Husayn Boyqaroga) yuborgan maktubidagi mummolar ham ko'zimizni ochishga chorlaydi. Zero, Navoiy aytib o'tgan o'sha illatlar hozir ham davom etib kelmoqda. Navoiyning turkiy til uchun mardona kurashi yuragigizni achishtiradi, hozir ham bu muammo boshqa ko'rinishda bo'lsa-da, ichimizda kezib yuribdi. O'zbek tilimiz yana bir Navoiyga muhtoj. Davr har birimizdan Navoiy bo'lishni talab etmoqda. Ulug'bek Hamdam aytganidek: "Binoyidek bo'lish oson, eplay olsangiz Navoiydek bo'ling".

ISAJON SULTON IJODIGA BIR NAZAR

O'zining bir qator hikoya va qissalari bilan o'quvchilarini topa bilgan, adabiyotshunoslik ilmi sohasida ham muayyan tadqiqotlar olib borayotgan yozuvchi, shoir, munaqqid binobarin, yangi asr ostonasida adabiyot maydonida shakl va mazmun qamrovi, ma'no-mohiyati bilan badiiy tafakkur olamida turli xil mavzudagi asarlari bilan o'quvchilar qalbidan joy olib ulguragan ijodkorlardan biri Isajon Sultonidir.

Yangilanayotgan badiiy tafakkurga sezilarli hissasini qo'shib kelayotgan Isajon Sulton izlanishlarida buning yorqin ifodasini kuzatamiz. Istiqlol davri adabiyoti shaxsni o'zlikni anglash yo'lidagi turfa xil holatlarni ramziy, majoziy, tasvir orqali aks ettirmoqda. Istiqlolga erishganimizdan keyin yaratilgan ko'pgina asarlardan oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur bilan yo'g'rilgan inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni asar sujetiga singdirganligini adibning bir qator nasriy asarlari misolida kuzatish mumkin.

Bu davr adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham biror qolipga solinmagan, tabiiy ravishda taraqqiy qilayotgan estetik hodisa sifatida namoyon bo'layotganligini ham qayd qilib o'tish lozim. Bu esa badiiy adabiyot uchun hayot haqiqatini ko'rsatish bilan bir qatorda inson ruhiy olamidagi ma'naviy evrilishlarni, turfa xil ziddiyatli holatlarni tasvirlash jarayonida namoyon bo'lmoqda: "Qahramonlar qismati, shaxsiyati, ruhiyati tasviri, tahlilidan ko'pdan-ko'p ramziy-simvolik ishoralar, shtrixlar, kinoya-kesatiqlar, yana qandaydir sirli jihatlariga duch kelib xayolga tolasiz, ularning mag'zini chaqishga urinasiz" [1,65-bet], deb qayd etganda adabiyotshunos Umarali Normatov haqli edi.

Shu boisdan ham, Istiqlol adabiyoti xilma – xil, turfa xil ohangdagi badiiy asarlarni maydonga keltirdi. Unda turli tuman ijodiy tajribalar qilish, turli "izm" lar izidan bora olish imkoniyati mavjudligi namoyon bo'ldi. Bu davr adabiyoti tipik odamni emas, balki alohida o'ziga xos va betakror odamni tasvir etmoqda. Istiqlol davri adabiyoti munosabatlar adabiyotiga, tuyg'ular, kechinmalar adabiyotiga aylanib ulgurdi.

Odam anglash qobiliyati sabab olamining sarvari darajasiga ko'tarildi. Chunki hayot hodisalarini, o'z fikr-u tuyg'ularini, o'zgalarning o'y-u xayollarini anglab yetish kishini Yaratganni anglash sari olib boradi. «Anglash» tushunchasi zamirida bilishdan tashqari to'yish holati ham mavjud. Inson hissiy – intellektual faoliyatining oliy ko'rinishi bo'lmish san'at hodisalariga tatbikan ham anglash so'zini burilishlar sababli hayot kechirish, fikrlash va sezimlar tarzida ro'y berayotgan shiddatli o'zgarishlar ruhiga moslashish uchun bugunning odami o'zini ancha zo'riqtirishi lozim bo'ladi. O'zlik sari eltuvchi uzun yo'lni bosib o'tish hech mahal oson bo'lmagan.

Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham tozarishga olib keladi. Insoniyatning zavqi o'zgarishi bilan azaldan o'ziga xos bo'lishga intilib kelgan ijodkorlar badiiy asar doimo undan oldin yaratilganiga o'xshamaslikka intilish natijasi o'laroq paydo bo'ladi. Hikoya janri tarkibidagi o'zgarishlar turfa xil adabiy yo'nalishlar, muayyan yo'alishga xizmat qiluvchi adabiy oqimlar, tabiiyki, hikoya poetikasiga ham yangi yangi uslub o'zgarishlarni olib kirdi.

Shu jihatdan, Isajon Sultonning "Qaydasan jannat?" turkumidan o'rin olgan "Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi", "TOD", "Ayvon" [2, 145-bet] hikoyalarining strukturasi yoki kompositsoin yaxlitligida ham ijodkorning o'ziga talqini kuzatish mumkin. Adib hikoyalarida insonni o'zligini anglash yo'lidagi harakatlari asosida uning qalb istiroblarni kuzatish mumkin.

Adabiyotlar:

Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Risola. – T., "Ma'naviyat", 2000. – 112 bet.

Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. Qissalar. Hikoyalar. – T., "O'zbekiston", 2011. – 280 bet.

Zilola SHUKUROVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
 adabiyoti universiteti o'qituvchisi, PhD*

BAYOZ TUZISH AN'ANASI VA UNING ADABIY JARAYONDAGI AHAMIYATI

Har bir xalqning o'ziga xos tarixini, she'riyatga munosabatini aks ettiruvchi ma'naviy boyliklari bo'ladi. Ana shunday boyliklardan mumtoz adabiyotda lirika o'ziga xos o'ringa ega. Ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan go'zal she'r namunalari turli manbalar, devon, bayoz, kulliyot, to'plam orqali etib kelib, shu orqali adabiyot namoyandalarini, shoirlarni kashf qilamiz. Bular orasida bayozlar turli davrda yashab o'tgan shoirlarning ijodini bir to'plamda jamlab xalqqa taqdim qilinishi bilan diqqatga sazovordir.

Bayozlarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, ular dastlab arab adabiyotida VIII-XII asrlarda paydo bo'lgan¹. Uning paydo bo'lishi shunchaki tasodifiy hodisa emas, balki hayotiy zaruriyat sababidan yuzaga kelgan. Ko'pgina shoirlar o'zigacha yashab o'tgan salafining ijodidan bahra olgan, ularning uslubini, shoirona tasvir usullarini qo'llash mahoratini o'rgangan. Bu esa o'zi sevgan, yoqtirgan shoirlarning ijodini bir to'plamda jamlash va undan bahra olish ehtiyojini tug'dirgan. Yoxud og'zaki ijro qilingan ijod namunalari qachonlardir o'zgarishga uchrashi yoxud yo'qolib ketishi sababidan adabiyot ixlosmandlarida ajdodlari tomonidan yaratilgan ulkan merosni qog'ozga muhrlash ehtiyoji paydo bo'ldi. Bu an'ana tez orada turli hududlarda tarqalib, O'rta Osiyoga qadar etib keldi. O'rta Osiyoda esa bayoz tuzish an'anasi qachon paydo bo'lgani haqida aniq bir tarixiy ma'lumot hozircha aniqlangani yo'q. Biroq "qo'lyozma institutlarida saqlanayotgan bayozlar orasida eng qadimiysi XV asrga taalluqliligi olimlar tomonidan aniqlangan"². Demak, shu davr oralig'ida bayoz tuzish an'anaga aylangan.

Keyinchalik shoirlar she'rlarini to'plam holiga keltirish turli hududlarda yoyilib, bayoz tuzish keng rivojlandi. Xususan, O'rta Osiyoda bayozlarning dastlabki namunasi XV asrda uchrasa, bu an'ana XX asrga qadar davom etdi. Hozirgi kunda ham bayozlarning zamonaviy ko'rinishdagi variantlarini uchratish mumkin. Biroq bayoz tuzish an'anasining eng gullagan davri XIX - XX asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda bayozlar shoirlar ijodi bilan tanishtirishda muhim adabiy qo'llanma vazifasini bajargani holda yaratilish hududi va xususiyatiga ko'ra bir-biridan farqlana boshladi. Har bir hududning o'ziga xos bayozchilik maktablari vujudga kelib, tanlangan shoirlarning ijodi, g'azallardagi mavzu tematikasi va boshqa xususiyatlariga ko'ra ma'lum bir xarakterga ega bo'ldi. Bayozlar ommalashuvi natijasida xizmat ko'rsatish turlari ham o'zgara boshladi. Shu jihatidan bayozlarning yozilish maqsadiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'rdik.

Shoh, amir va yuqori mansabdagi shaxslarning buyrug'iga ko'ra yozilgan bayozlar;



Quyi tabaqa she'r ixlosmandlari uchun yozilgan bayozlar;

Biror soha vakillari uchun yozilgan bayozlar.

Shoh, amir va yuqori mansabdagi shaxslarning ko'rsatmasiga ko'ra yozilgan bayozlar boshqa turdagi bayozlardan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Avvalo, bayoz uchun tanlangan mahsulotlarning eng sifatli va yuqori malakali xattot va kotiblarning ishlashida ko'rinadi. Bu turdagi bayozlar chiroyli xatda yozilgani uchun kitobxon o'qishda qiynalmaydi. Misol tariqasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi qo'lyozalar instituti Hamid Sulaymon katalogida № 2505 inventar raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozmani tahlil qilamiz.

Kitob muqovasi to'q yashil rangda. Ikki xil rangdagi kichik naqshlar turunj va o'rtada bitta to'q qizil rangdagi lola naqsh bor. Bu naqshlar muqovaga o'yib ishlangan. Kitob juda yaxshi saqlangan. Muqova yuzidagi bir qismining yirtilganini hisobga olmasa deyarli nuqsonsiz yetib kelgan. Biroq mazkur bayozning yozilish sanasiga doir farqli ma'lumotlar bor. Katalogda berilgan tavsifga ko'ra bayoz hijriy **1304, milodiy 1886** -yilda Qo'qonda **Mirzo Muhammadiy Buxoriy** tomonidan ko'chirilgan deb beriladi. Biroq matnning ayrim sahifalarida kitobning yozilish tarixiga oid mulohazali o'rinlar uchraydi. 65 betda qo'yidagi misralar keladi. "Agar ko'rsang kitobimda xatolik. O'zimni so'k vale so'kma otamni... mullo **Uzoqjon Ho'qandiy 1302- yil**" deb yozilgan. Matn so'ngida qo'yidagi so'zlar yozilgan "Asari kunad shumoro tammat tamom duoi salom **1306 -yil kataba mirzo Muhammadiy Najoriy**" deb yozilgan.

Qo'qon qog'ozida nasta'liq xatida qora va qizil siyoh bilan yozilgan. Xatining ikki xilligiga qaraganda buni bitta xattot ko'chirmagan. Boshlanishi chiroyli nasta'liqda yozilgan. O'rtalarida esa nisbatan xunukroq xat bilan ham yozilgan joylari bor. Demak, kitob ustida ikki kotib

ishlagan. Balki ikkinchi kotibning yozuvi xunukligi sababli birinchi kotib kitobni davom ettirgan.

Kitobning boshlanish qismi saqlanib qolgan. Kitobning dastlabki sahifasining ikki joyida tamg'a tushirilgan va uning ichida **Mullo Abdusamad Mutavalliy** deb yozilgan. Bu shaxs katta ehtimol bilan kitobga keyinchalik egalik qilgan shaxs bo'lishi kerak.

Matn "**Kitob debochai devon Amirxon amir Farg'ona jannatmakon...**" degan so'zlar bilan boshlanadi. Shundan so'ng Sharq kitobatchiligi an'analariga asosida Basmala hamda fors-tojik tilida bitilgan hamd, na't bilan boshlangan.

Amiriy tilidan berilgan bu debochada uning shohlik faoliyati yoritilgan: yurti qanday boshqargani va nimalarga ahamiyat bergani, xalq uchun nima ishlar qilgani kabilar haqida turkiy tilda yoritilgan. Shuningdek ilm ahlining peshvosi sifatida ham shoirlarga, olimlarga hurmati, ularning faoliyatini rivojlantirish uchun qilgan xayrli ishlari: she'r bazmlarini o'tkazgani, har bir shoirning qobiliyatiga qarab taqdirlagani kabilar haqida ham shoh tilidan yozilgan.

Amiriy kunlarning birida shoirlar majlisida o'tirganida bayoz tuzish fikri kelib qolganini va barchaga manzur bo'lgan she'rlarni bitta qilib yig'ishni ko'ngliga keltirganini aytadi hamda o'zi bosh-qosh bo'lib bayoz tuzdiradi. Bayoz boshlanishida Amiriy tilidan berilgan debocha taqdim qilingan. Shundan keyin yana basmala beriladi va she'rlar boshlanadi. G'azallar hamd bilan boshlangan. Shundan keyin Amiriy o'zining g'azallariga Amir taxallusi ostida namunalar beradi:

*Ey ko'zda yundung hayrat asomi tamoshu,
Nazzora husnug gul bahora tamoshu³.*

Shuningdek, shoir o'zi sevgan shoirlarning g'azallariga muxammas ham bitgan. Jumladan, Bedil, Navoiy, Soyib (tojikcha g'azal) kabilarning g'azaliga muxammas bitgan. Xususan, Navoiy g'azaliga yozgan muxammasi quyidagicha:

*Yoshim o'lsun poymol tarki savdo aylasa,
Xira bo'lsun ko'z jamolingdin tiyra aylasa,
Jong'a o't to'shsun agar bo'lak tamanno aylasa,
Ko'nglum o'rtansun agar xayriga parvo aylasa,
Har ko'ngul ham saning shavqingni hido aylasa⁴.*

Shuningdek, bayozda g'azal, muxammas, mu-saddas, tarjiband, taxmislar, masnaviy, qasida, bahri ta'vil, munojot, hikoyat kabi janrlar uchraydi.

Bayozda Jomiy, Navoiy, Gulshaniy, Kasrat, Xayo, Hotif, Randiy, Maknun, Mashraf, Fazliy, Amir, Ado, Vazir, Ma'yus, Afsus, Dabir (Daxir), Nusrat, Hijlat,

Ravnaq, Nola, Vasliy, Soyib, Tole'i, Naziriy, Komiliy, Hiloliy, Qosimiy, Mo'min, G'oziy, Koshif, Kisrat, Foni, Zohid, Sayid Nuriddinxon To'ra kabi shu davr oralig'ida yashagan 36 nafar shoirning turkiy va fors-tojik tilidagi g'azallari; Ziynat, Fazliy, Hotif, Mushfiqiy qasidalari; G'oziy tarjibbandi; Saydo muxammaslari; Na'ti Gulshaniy; munojot Jomiy kabilar berilgan.

Bayoz so'ngida 18 varaqdan iborat kichik hajmdagi varaq qo'shilgan. Bu varaqlar keyinchalik qo'shilgan bo'lsa kerak. Xati boshqa va matnga tikib qo'yilgan. Ushbu qo'shilgan varaqda ham Amiriy g'azallaridan namunalar beriladi.

*Ko'rdi nozaninlardin tekma qiryonlar
To'kdi mardum chashmim qatra-qatra marjonlar⁵.*

Qizig'i shundaki, shoirlarning g'azallaridagi qofiyaga e'tibor berilsa barchasining g'azallari qofiyadosh so'zlar bilan tugagan. Masalan:

84 a Vazir
*La'ling orzusidin ko'zlarim to'kub qonlar,
Bo'di shoh marjondek hasratida mujonlar.*
84 b Nola
Qoldi to ko'nglim ichra bilganlar,
Topti ravnaq andoqkim g'unchadek gulistonlar.

85 b Afsus
*Zulfi muhtalosidin har qayon parishonlar
Ko'ngil o'tlig' ya'ni necha xonavayronlar*

87 a Hotif
*Ey yuzung shifoidin toza yur iymonlar
Orzaingni etmarlar din uchun musulmonlar*

Demak, ushbu g'azallarning qofiyadoshligiga ko'ra shoirlar bir-birlarining g'azallariga taxmislar bog'laganlar. Va ijodiy yondashganlar.

Ushbu bayoz Amiriy tomonidan tuzilgani uchun asosan o'z ijodiga oid she'rlari kiritilgan. Shuningdek o'zigacha yashab o'tgan ustoz deb bilgan shoirlar hamda zamondosh shoirlar ijodidan namunalar berilgan. Eng muhimi, Amiriy bu bayozni yozilishida o'zi alohida e'tibor qaratgan. Shu jihatdan ushbu bayozning ilmiy adabiy qimmatiga katta.

Umuman olganda, bayozlarning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, XV asrlarda boshlangan bayozchilik an'anasi XX asrga kelib o'zining rivojlanish cho'qqisiga chiqdi. Natijada bayozlar nafaqat shoirlar she'rlarini ajdodlardan avlodlarga etkazuvchi manba, balki fan va san'atning turli sohalariga aloqador ma'lumotlar jamlanmasi rolini ham bajardi.

1. Қаранг. Ҳ.А.Гибб. Арабская литература. М., ИВЛ. 1960, 36-80 стр; Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. -Т. Фан, 1976. 80-бет.

2. Ўзбек адабиёти тарихи масалалари. -Т. Фан, 1976. 80-бет. 82-бет

3. Абу Райхон Беруний номидаги қўлёзалар институти Ҳамид Сулаймон каталогида № 2505. 11 а бет

4. Абу Райхон Беруний номидаги қўлёзалар институти Ҳамид Сулаймон каталогида № 2505. 15 а бет

5. Абу Райхон Беруний номидаги қўлёзалар институти Ҳамид Сулаймон каталогида № 2505. 83 а бет

Xasan GAFFOROV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Tillarni o'qitish" kafedrası assistent o'qituvchisi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GENDER TADQIQOTLAR TAHLILI

Tilshunoslik sohasidagi gender tadqiqotlari O'zbekistonda ham olib borilmoqda. Bu bir qator dissertatsiya va maqolalarda o'z aksini topgan va ularning nomlarida gender mavzulari har doim ham terminologik ko'rsatilmagan. Jumladan Sh.M.Iskandarova 1999-yili olib brogan tadqiqot ishida o'zbek tilining leksik jihatdan xususiyat va o'ziga xosliklariga to'xtalib o'tar ekan, unda genderning namoyon bo'lish xususiyatlari ham tahlil qilib o'tiladi.¹

Bundan tashqari tadqiqotchi olim I.M.Tuxtasinov tomonidan 2011-yilda olib borilgan tadqiqot ishida ingliz va o'zbek materiallaridagi badiiy matnlarda murakkab so'zlarning qo'llanilishi tadqiq qilinib, gender xususiyatlari ham tahlil qilinadi.²

Shuningdek, tadqiqotchi olim D.U.Ashurova ham o'zining bir qator ilmiy maqola va materiallarida o'zbek stilistikasi hamda unga ta'sir qiluvchi gender omillarini tadqiq qiladi.³ Umuman olganda, O'zbekistonda gendershunoslilik hali to'liq "ochilganicha yo'q", garchi "jonli mavjudot jinsi" tushunchasining leksik (shuningdek, frazeologik), derivativ, morfologik va so'zlashuv shakllarida timsollanishining har xil turlarini solishtirish borasida bir qator ishlar o'rganilgan. O'zbek (turkiy agglutinatil til) o'zaro ta'sir qiluvchi tildagi sintaktik darajalar ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir.

Hozirgi kungacha jahon tilshunosligi tadqiqotlarida gender tilshunosligining umume'tirof etilgan asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1. Sotsialingvistik gender tadqiqotlari.
2. Feministik tilshunoslik.
3. Psixolingvistik tadqiqotlar. Ushbu yo'nalish doirasida neyrolingvistika, nutqning ontogenezin o'rganish sohasida ishlar olib borilmoqda, bunga erkaklar va ayollar o'rtasidagi kognitiv farqlar va ularning nutqdagi namoyon bo'lishi haqidagi tadqiqotlar ham kiradi.
4. Madaniyatlararo, tilshunoslik va madaniyatshunoslik, shu jumladan gender subkulturalari gipotezasi.

Umuman olganda gender tadqiqotlari ikkala jinsning lingvistik xatti-harakatlarini o'rganadi. Gender tilshunosligi nuqtai nazaridan, o'zbek tilshunosligida "jonli mavjudot jinsi" tushunchasining timsolini ingliz, rus va boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganishga oid tadqiqotlar katta qiziqish uyg'otmoqda. Ingliz va o'zbek tillarida gender munosabatlarini o'rganish jarayonida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan masalalar qatoriga, bizningcha, quyidagilar kiradi:

- dunyoning gender va til xaritasi (gender grammatika, lug'at, so'z shakllanishi, aloqa, badiiy ijod omili sifatida);

- o'zbek tilidagi shaxs-shaxs va animatsiya kategoriyalarining nisbati; gender toifalari va ingliz tilining jinsi bo'yicha animatsiyasi;

- o'zbek tilidagi shaxs otlarining gender aspektidagi so'z yasash kategoriyalari, kengroq aytganda - ingliz tilining gender jihatidagi substantiv so'z yasash kategoriyalari va boshqalar.

O'zbek tilida ayol nominatsiyasi, asosan, hosila bo'lmagan leksemalar orqali yoki analitik usulda, xotin (ayol) leksemasi yordamida amalga oshiriladi. "Ingliz tilidagi shaxsni belgilash tizimi o'zbek tilining tegishli tizimidan keskin farq qiladi, ammo unda jins toifasi yo'qligi sababli so'z yasashi bilan ifodalangan erkak va ayol ismlarining muntazam juftlanishi ham mavjud emas. Bu borada *adib - adiba, shoir - shoir, muallim - muallima, marhum - marhuma* kabi bir necha juft bir ildizli leksemalar mavjud.

Tashqi tomondan, ular ingliz tilidagi *actor - actress, husband - wife*, munosabatlariga o'xshaydi, ammo o'zbek tilining dunyo lingvistik rasmining o'ziga xos xususiyati shaxslarning jinsi bo'yicha farqlanishi, gender toifasini "aylanib o'tib" amalga oshiriladi". Ya'ni o'zbek tilida ko'pgina otlar jinsni bildirmaydi.

Qiyosiy jihatdan gender munosabatlarining uslubiy jihatlari, birinchi navbatda, turli til darajalaridagi taqqoslanadigan tillarning qarama-qarshiligi bilan bog'liq bo'lib, bu soha nazariy tadqiqotlarni ham, maxsus ko'rsatmalar, mashqlar va qo'llanmalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbek adabiyoti hamda ushbu tildagi matnlarning gender xususiyatlari e'tiborli darajada ahamiyatlidir. Ammo V.P. Belyaninning fikricha⁴, hozirgi vaqtda gender haqida emas, balki erkaklar va ayollar nutqini ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirish kerak. Bu ikki jarayon so'zlovchilarning nutqi va nutqiy xulq-atvorida turlicha amalga oshiriladi. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, erkaklar o'z fikrlarini ayollarga qaraganda qisqaroq ifodalaydi. Erkak nutqida mavhum otlar, ayollarnikida esa konkret, aniq otlar ustunlik qiladi. Erkaklar ko'proq ot va raqamlardan foydalanadilar, o'z nutqida esa ayollar hissiy jihatdan baholovchi lug'atga ko'proq e'tibor berishadi, erkaklar esa stilistik, ya'ni uslubiy jihatdan neytral lug'atdan foydalanadilar. Ayollar birinchi navbatda ijobiy baholashni kuchaytirishga moyil. Uslubiy jihatdan qisqartirilgan so'z boyligining erkaklar tomonidan qo'llanilishi salbiy baholashga yordam beradi: ular dialektizmlardan foydalanadilar, ayollar nutqida esa ko'p hollarda stilistik rangli lug'at mavjud bo'ladi. Ayol nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu "oy", "oh", "uh", "voy" kabi so'zlarning ustun qo'llanilishi orqali giperbolizatsiyaning namoyon bo'lishidir.

Sintaktik birliklar haqida gapiradigan bo'lsak, o'zbek nutqida erkaklar, ayniqsa, ergash gapli, o'rin va maqsadli qo'shma gaplarni, ayollar esa ergash gapli va qiyoslovchili murakkab gaplarni keng qo'llashini ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Misol uchun:

1. Sen xalq uchun tog' qaziyotganingda, bizlarni qo'l qovishtirib o'turibdi deb o'ylaganmiding?⁵

2. Endi bostirmadan chiqib ketayotsam, qator-qator humlarga ko'zim tushdi⁶.

3. Tog'lar orasida Bobur — Bu kitob bitganda, mening umrim ham tugagay - degani Xumoyunning yodiga tushdi⁷.

O'zbek ayollari nutqida til vositalari ko'pincha mehr-oqibatli tarzda, qadr-qimmatini pasaytirgancha so'zlaydigan holda uchraydi. Misol uchun: *O'g'rigina bolam, xoy o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning*

*ko'yida tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, — debdilar. Hoy, aylanay, O'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi?*⁸.

Demak, o'zbek tilidagi matnlarda erkak va ayol nutqida sezilarli farqlar mavjud. Erkaklar va ayollar bir xil til birliklaridan foydalanadilar, lekin semantik, stilistik va formativ ko'rinishlari ko'pincha farq qiladi. Erkak o'zbek nutqida tarbiyaviylik, muloyimlik va xushmuomalalik bilan uyg'unlashgan muayyan kategoriya ustunlik qiladi. Ikkinchi komponentlar ayollarga, bolalarga (ayniqsa, qizlarga) qaratilgan nutqda ko'zga tashlanadi. O'zbek tilidagi matnlarda ayollarning qarindosh-urug'lar, farzandlar va boshqalarga qaratilgan nutqida yumshoqlik, xushmuomalalik, xizmatkorlik, mehribonlik, qandaydir tortinchoqlik, sodiqlik ifodasi ustunlik qiladi.

1. Искандарова, Ш. М. Ўзбек тили лексикаси мазмуни майдон сифатида (шахс микромайдони): Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Тошкент, 1999; Расулова М. И.. Проблемы лексической категоризации в лингвистике: Дисс. ... докт. филол. наук. — Ташкент, 1999;
2. Тухтасинов И. М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Тошкент, 2011;
3. Ашурова Д. У. Гендерные факторы в стилистике // Замоначий тилшунослик ва хорижий тиллар ўқитишининг долзарб масалалари: Илмий-амалий анжуман материалари. — Т., 2008. — с. 337–342;
4. Белянин В. П.(2004). Психоллингвистика [Belyanin V.P. Psycholinguistics]. 2-е изд. М.: Флинта: Московский психолого-социальный институт,
5. Ғулом Ғ. Таржималар. Тошкент: «Фан», 1988. — В. 209
6. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. Тошкент: «Шарқ», 2012. — В.539
7. Қодиров П. Юлдузли тунлар. Тошкент: «Шарқ», 2012. — В.92
8. Ғулом Ғ. Таржималар. Тошкент: «Фан», 1988. — В. 165

Feruza ABDULLAYEVA,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

YIL FASLLARI MAVZUSIDAGI ILMIY-OMMABOP BADIY MAQOLALARNI O'QITISH MASHG'ULOTLARINING UMUMIY QURILISHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tabiat va kishilar mehnati bilan tanishtirishda "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklariga kiritilgan yil fasllari to'g'risidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalarning o'rni beqiyos. Yil fasllari mavzusidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalarning qimmati, bir tomondan, badiiy o'xshatmalar asosida turli fasllarga oid hodisalarni bolalarbop bayon qilish, ikkinchi tomondan, tabiatshunoslik va boshqa o'quv predmetlari bilan predmetlararo aloqa o'rnatish imkoniyatlarining kengligi bilan izohlanadi.

Yil fasllariga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitishning qator qulayliklari ham mavjud: avvalo boshlang'ich sinf o'quvchilarida yil fasllari — kuz, qish, bahor va yoz to'g'risida tasavvurlar tarkib topgan. Ular turli mavsumiy an'analarni sabrsizlik bilan kutib, tayyorgarlik ko'rib, qatnashib yil fasllari xususiyatiga oid bilimlarni amaliy yo'l bilan o'rganishgan; qolaversa, boshlang'ich sinf o'quvchilari yil fasllariga oid kishilar mehnatini — kuzda yig'ib-terib olish, qishda shudgor qilish, bahorda

ekish, yozda parvarish qilishni ham amaliy yo'l bilan o'zlashtirishgan. Maktabda yil fasllariga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish bolalarning maktabgacha bo'lgan tayyorgarligi asosida tashkil etiladi. Boshlang'ich sinflarda ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish ishlari quyidagi yo'nalishlarga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Birinchi yo'nalish — bolalarning maktabgacha yil fasllari bo'yicha amaliy yo'l bilan hosil bo'lgan bilimlari, orttirilgan tajribalarini kengaytirish. Boshlang'ich sinfda yil fasllariga oid ilmiy-ommabop maqolalarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilimi, hayotiy tajribalari quyidagicha kengaytiriladi: yil fasllariga oid o'zgarishlarni o'qituvchi topshirig'i asosida kuzatish. O'qituvchi topshirig'iga ko'ra kuzatish maqsadga muvofiq, ma'lum natija bilan yakunlanadigan amaliy faoliyat bo'lib, u o'quvchilarda hayotiy tajribalarning kengayishi, yil fasllariga oid bilimlarning konkretlashuvini ta'minlaydi. Yil fasllari bo'yicha kuzatishlar va ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni

o'qitish natijasi o'laroq, boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiat va unga bog'liq holda kishilar mehnatida yuz bergan quyidagi o'zgarishlarni bilib olishadi: kuzgi o'zgarishlar – kechalarning salqinlanib, shudring tushishi, paxta ochilishi, mevalardan nok, olma, shaftoli, anjir, anorning pishishi, tuyoqli jonivorlar hayotida yuz beradigan o'zgarishlar – madaniy va yovvoyi o'simliklar urug'ini yeb-iste'mol qilib kuch to'plashi, qushlar hayotidagi o'zgarishlar, masalan, qaldirg'ochlarning issiq o'lkalarga uchib ketishi va shu kabi qishda o'zgarishlar – sovuq tushib, izg'irinning esa boshlashi, odamlarning issiq kiyimlarni kiyib olishi, qorong'ulik (dekabr oyida)ning tez boshlanishi, kechaning uzayib, kunduzning qisqarishi kabilar kiradi: bahorgi o'zgarishlar – kunlarning isiy boshlashi, qorning kunduzlari erib, kechalari muzlashi, tol kurtaklarining yorilib, g'unchalar chiqishi, quyosh nurlaridan bo'g'otdagi sumalaklarning eriy boshlashi, Navro'z bayramiga tayyorgarlik, ayrim qushlarning qayta uchib kelishi, dalalarda bahorgi yumushlarning boshlanishi. Xuddi shunday tabiat o'zgarishlari yozga ham xos: kunlarning nihoyatda uzayishi, kechalarning nihoyatda qisqarishi, soy va ariqlardagi suvlarning isib ketishi, o'simliklar, ayniqsa, paxtani parvarish qilish ishlarining avj olishi, bed ava bug'doy o'rimi kabilar yozda tabiat va kishilar mehnatidagi o'zgarishlar jumlasiga kiradi.

Ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish jarayonida tabiat hodisalarini kuzatish, o'zgarishlarni bilimlar shaklida qayd etish, ularni matnlarda aks etgan bilimlar bilan taqqoslash boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoviy bilimlari rivojiga ijobiy ta'sir etadi.

Ikkinchi yo'nalish – bolalar nutqini yil fasllariga oid so'zlar, obrazli iboralar bilan boyitish. Ilmiy-ommabop badiiy maqolalarda kuz hodisalarini tasvirlash uchun oltin kuz, noz-ne'mat, rizqu-ro'z, qovun sayli, paxta bayrami, tillarang mevalar, qish manzarasini tasvirlash maqsadida izg'irin shamol, qor suvlari, yerning tashnaligini qondirish, daraxt kurtaklarining rohatlanib uxlashi, bahor manzaralarini qiziqarli bayon qilishda zumrad bahor, ko'm-ko'k libos, bo'z momiq, sumalaklarning erib yosh to'kish kabi so'z, so'z birikmalari qo'llangan. Shunday so'zlarning ma'nolarini izohlash, ularni nutqda qo'llash yo'llarini bolalarga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan sanaladi.

Uchinchi yo'nalish – ona tabiatga, kishilar mehnatiga munosabatni tarbiyalash. Shu jihatdan qaraganda yil fasllari to'g'risidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalar bolalarda haqiqiy o'zbek fuqaroligi sifatlarini shakllantirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi qisqatahlildan ma'lum bo'ladiki, yil fasllariga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalar hozirgi zamon

maktab ta'limining uch funksiyasini – ma'lumot berish, rivojlantirish, tarbiyalash masalalarini to'laqonli amalga oshirish uchun yetarli materialga ega. Ularni to'laqonli amalga oshirish uchun yetarli materialga ega. Ularni o'rganish paytida bolalarning shaxsiy kuzatishlari, shuningdek, o'quvchilarning amaliy yo'l bilan egallagan bilimlari tayanch omillar vazifasini baradi. Shu bilan birga yil fasllariga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish jarayonida qisqa muddatli sayohatlar tashkil etish, kirish suhbatini o'tkazish imkoniyatlari ham mavjud. Masalan, bahor mavsumiga oid ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitishda maktab bo'g'iga 5-10 daqiqaga mo'ljallangan sayohat o'tkazish mumkin. Xuddi shunday qisqa muddatli sayohatlarni kuz, qish, yoz mavsumlariga doir ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish jarayonida ham tashkil etsa bo'ladi. Binobarin, ta'limning barcha funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi, o'qitishni bolalarning shaxsiy kuzatishlari, qisqa muddatli sayohatlarning natijalari bilan qo'shib olib borish mumkinligi yil fasllari bo'yicha boshlang'ich sinflarning o'qish kitoblaridan o'rin olgan ilmiy-ommabop badiiy maqolalarning o'ziga xos umumiy xislatlaridir.

Bunday maqolalarning umumiy xususiyatlarini inobatga olib, ularning umumiy qurilishini belgilash mumkin: bolalarning shaxsiy kuzatishlari asosida to'plagan bilimlari, tajribalarini jonlashtirish maqsadida kirish suhbatini o'tkazish. Kirish suhbatida, masalan, (matn qish mavzusi haqida bo'lsa) kuz va qish fasllarini taqqoslashga oid savollar beriladi, qish haqida bolalarning o'zlari o'zlashtirib olgan bilimlari, odamlar mehnati xususidagi tasavvurlari aniqlanadi: sayohat yuzasidan topshiriqlar berish; topshiriq (masalan gullagan mevali daraxtni aniqlash) asosida qisqa muddatli kuzatish, daraxtlar ostiga tushgan gullarni terish; sayohat natijalari va darsliklardagi matn o'rtasida mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash uchun kirish suhbatini o'tkazish, yangi mavzuni e'lon qilish; mavzu mazmuni ustida ishlash; matnni o'qib berish yoki o'qitish; mazmunini so'zlash; qiyin so'zlar, obrazli ifodalarni izohlash; matnni abzaslarga ajratish; har bir abzasga sarlavha tanlash; matnni qayta o'qish; qayta so'zlash rejasini tuzish; reja asosida so'zlatish, yil fasllarini tavsiflab qisqa hajmdagi hikoyalar yozish.

Ushbu maqola yil fasllari mavzusidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitishning umumiy masalalari bayon qilindi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qiladigan badiiy matnlarning mazmunini, o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olib, unga o'zgartirishlar kiritadi, o'quv-tarbiya jarayoni maqsadi, vazifalarini nazarda tutib, u yoki bu mavzudagi ilmiy-ommabop badiiy maqolani o'qitishning aniq rejasini ishlab chiqadi va uni ta'limga tatbiq etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinfi uchun darslik. – T.: "Respublika ta'lim markazi", 2022. – 144 b.
2. Azimova I., Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism: 2-sinfi uchun darslik. – T.: "Respublika ta'lim markazi", 2021. – 120 b.
3. Abdullayeva F. TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA PISA VA TIMSS KABI XALQARO TADQIQOTLARNING ROLI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
4. Nurillayeva A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 3. – C. 47-50.
5. Abdullayeva F. Methodological possibilities of organization of primary school technology lessons with pedagogical technologies //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
6. Qurbonova S. N., Abdullayeva F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1030-1035.

Shahnoza MAJIDOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

GIDRONIMLARDA NOMLASH TAMOYILLARI VA ULARDA OPPOZITSIYA

Inson borliqdagi narsa va hodisalarni ongli ravishda kuzatar ekan, ularga xos bo'lgan umumiy hamda xususiy belgi-xususiyatlarni sezadi, shu tariqa cheksiz olam, undagi mavjud narsalar, yuz beradigan hodisalar haqida turli tushuncha va tasavvurlarga ega bo'ladi. Bu tilda, ularga berilgan nomlarda yaqqol ifodalanadi.

Tilshunoslikdagi nomlanish (nominatsiya)ga oid ilmiy tadqiqotlarda narsa-hodisalarni nomlovchi shaxs sub'ekt, nomlanuvchi narsalar ob'ekt deb atalgan.[1:44] Biz sub'ekt o'rnida nomlovchi, ob'ekt o'rnida nomlanuvchi terminlarini qo'llashni lozim topdik. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nomlar uzoq tarixiy takomil mahsulidir. Nomlarda insonning, ya'nn nomlovchining ko'p yillik hayotiy kuzatishlari, ko'nikma va malakalari, tajriba, predmetga, voqyea-hodisaga nomlanuvchiga bo'lgan turli munosabatlari aks etadi.

Nomlovchi narsa va hodisalarni nomlar ekan, avvalo, umumlashtirish doirasida ish ko'radi, bunda nomlanuvchilarga xos umumiy bo'lgan belgi-xususiyatlarga asoslanadi. Shuningdek, nomlarda umumlashtirish, ya'ni abstraksiya (turdosh otlarda) qanchalik zarur bo'lsa, narsa va hodisalarni alohidalab, aniqlab, shunga ko'ra yakalab ko'rsatish va atash ham shunchalik muhimdir. Demak, yakka va aniq predmet, hodisalarning nomlari - atoqli otlar majmui ham tilda muhim hayotiy zaruriyat va ehtiyoj tufayli tug'ilgan.[2:16] Atoqli otlarning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan toponimlarning bir turi - gidronimlarning lisoniy shakllanishida ham buni yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, o'zbek tili gidronimlari ham nomlovchi-nomlanuvchi tomonlarning murakkab munosabati va uzoq tarixiy takomil mahsulidir.

Dehqonchilik madaniyatining o'sishi bilan suv ob'ekti va inshootlarining turi, mikdori ham ortib borgan. Suv ob'ektlari turli belgi-xususiyatlari bilan farqlanib, har biri o'ziga xos tarzda nomlangan: Raytsentr (Angor t.), Zapadniy (Angor t.), Lenin (Termiz t.), PTF (1980) (Termiz t.), Okt. 01(Termiz t.), Oktyabr (Termiz t.) kabi.

Suv ob'ektlarini nomlashda nisbiylik, pozitivlik, negativlik tamoyil (prinsip)lariga asoslaniladi.[1:46]

Nisbiylik tamoyili bir suv ob'ektiga xos belgi-xususiyatni boshqa suv ob'ektiga qiyoslash, taqqoslash va solishtirishga asoslanadi. Nisbatlash ko'pincha suv ob'ektining joylashuv o'rniga, hajmiga, undagi suvning belgi-xususiyatlariga, ya'ni maza-ta'miga, rangiga asoslanadi.

Masalan, Katta Namazgar – Kichana Namazgar (Ko'hitangtog' yonbag'irlari), Kattabedak - Kichikbedak

(Sherobod t. Sherjon q) kabi. Natijada ma'lum bir xudud gidronimiyasida mana shunday gidronimik juftliklar yuzaga keladi.

Nisbiylik tamoyili asosida suv ob'ektlarini nomlash jarayoni toponimlarning boshqa turidagi kabi, Z.Do'simov ko'rsatganidek, orientirlovchi ob'ekt, nomlanayotgan suv ob'ektlari, nomlovchi munosabatiga asoslanadi.

Nisbatlash tamoyiliga asoslangan nomlash jarayonida gidronimlar oppozitsiyasi yuzaga keladi. O'zbek tili gidronimlarida oppozitsiyaning binar, trinar va boshqa turlari kuzatiladi.[1:48]

Toponimlarga, jumladan, gidronimlarga xos binar oppozitsiya hodisasi haqidagi nazariy qarashlar N.Oxunov, N.Uluqov tadqiqotlarida kuzatiladi.

Biz ana shu tadqiqotlarga nazariy tayangan hodda gidronimiyaga xos oppozitsiya hodisasini tahlil qilamiz. Suv ob'ektlarining hajmi, yer yuzasida joylashish o'rn, masofasi - uzun-qisqaligi, paydo bo'lish, bunyod etilish vaqti, miqdori, u bilan bog'liq aholining etnik tarkibi va suvining maza-ta'mi, rangi kabi belgi-xususiyatlar gidronimiyadagi oppozitsiyani yuzaga keltiruvchi omillardir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, gidronimiyadagi oppozitsiya ana shu xususiyatlarni ifodalovchi lug'aviy birliklar - leksik antonimlar vositasida ifodalanadi.

Gidronimlardagi oppozitsiyaning yuzaga kelish omillariga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Suv ob'ektining hajm xususiyatiga ko'ra yuzaga kelgan oppozitsiya. Bunda suv ob'ektining hajmi - katta-kichikligi, uzun-qisqaligi e'tiborga olinadi. Gidronimlarning bu guruhi, asosan, hajm tushunchasini ifodalovchi katta, kichik kabi antonim sifatlar asosida shakllanadi. Katta so'zi "hajmi, o'lchami nisbatan ortiq, ulkan", kichik "hajm, o'lchami nisbatan katta bo'lmagan" ma'nolarini anglatadi.[4] Masalan, Kattako'l – Kichikko'l (Ko'hitangtog' yonbag'irlari), Kattabedak - Kichikbedak (Sherobod t. Sherjon q), Katta soy (Sherobod t. Qizilolma q) – Kichiksoy (Sherobod t. Zarabog' q) kabi.

Suv ob'ektining hajm xususiyati asosida yuzaga kelgan oppozitsiyali gidronimlar tarkibida ellipsis hodisasi, ya'ni gidronimik aniqlagichlarning tushib qolishi ham kuzatiladi: Katta Namazgar –Kichana Namazgar (Ko'hitangtog' yonbag'irlari), Kattabedak - Kichikbedak (Sherobod t. Sherjon q) kabi. Mazkur gidronimlar avval Katta Namazgar soy - Kichik Namazgar soy, Kattabedak soy – Kichikbedak soy bo'lgan, til taraqqiyoti davomida soddalikka, qulaylikka, ixchamliqqa intilish natijasida

Ixtiyor AXROROV,
Buxoro davlat Pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi.

JADID MA'RIFATPARVARLARINING MAORIF VA TARBIYAGA OID QARASHLARI

(Maxmudxo'ja Behbudiy misolida).

Turkiston mintaqasining ijtimoiy- siyosiy, madaniy- ma'rifiy rivojlanishi uchun qat'iy kirash maydoniga kirgan, milliy davlatchilik, milliy til, milliy maorif, demokratik asosda parlament boshqaruvidagi jamiyat prinsiplarini ilgari surgan Maxmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) nomi istiqloq tarixi solnomasidan muhim o'rin olgan. Maxmudxo'ja Behbudiy singarilarning hayot yo'li va faoliyati bilan bog'liq tadqiqotlar yaratish imkoniyati mustaqillik tufayli vujudga keldi. Fikrimizni Behbudiyning maorif va maktab, ta'lim va tarbiyaga oid faoliyati haqida yuritamiz.

Maxmudxo'ja Behbudiyning Turkiston jadidchiligi va milliy uyg'onish davrida amalga oshirgan ishlar ko'lami, uning matbaachilik va ma'rifatparvarlik faoliyati U.Dolimov, B.Do'stqorayev, S.Ahmedov, H.Sayid, S.Xolboyev, Z.Axrorova, A.Aliyev, N.Avazov, B.Egamov, I.G'afurov singari olimlarning tadqiqotlaridan o'rin olgan.¹ Tadqiqotlarning aksariyatida Behbudiy zamonaviy adabiyot, milliy teatr va geografiya fanining asoschilaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, Mahmudxo'ja Behbudiyning maorif va maktab masalasiga oid faoliyati va o'rinli hissasi mavjud.Behbudiy xalqni savodli, ma'rifatli qilish uchun jadid maktablarini ishonchli vosita deb bildi. Matbuotga esa, ma'rifatni yoyishning muhim omili sifatida qaradi. Behbudiyning ma'rifiy qarashlari, ta'lim-tarbiya uyg'unligi uchun kurash masalalari uning o'zi bevosita ham noshir, ham muharir sifatida tashkil etgan "Oyina" jurnali va "Samarqand" ro'znomasi sahifalarida o'z aksini topdi. Maxmudxo'ja Behbudiy pedagogika masalalariga alohida yondashdi. Chunki u faqat o'z davrining ilg'or publisisti, jamoat arbobigina emas, balki buyuk murabbiy- pedagog, psixolog sifatida bola tabiatini chuqur o'rgandi. O'z o'quv dasturlariga bolaga har tomonlama puxta bilim beruvchi ilm va tajribalarni joriy qildi. O'quv predmetlari qatoridan odob, jug'rofiya, tabiatshunoslik, til, fiqh, handasa va bir qancha zamonaviy bilimlar o'rin oldi. Uning ta'lim- tarbiya tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1.Aqliy tarbiya. 2.Axloqiy tarbiya .3. Diniy tarbiya. 4. Estetik tarbiya. 5. Huquqiy tarbiya.² Behbudiy inson tarbiyasi, uning rivoji haqida gapirar ekan,aqliy tarbiyaning rolini yuqori qo'yadi. Aqliy tarbiya, u ta'kidlaganidek, aqlni yuksaklikka ko'taruvchi maktab vositasi orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu borada dunyoviy bilimlar masalasiga jiddiy yondashdi. "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy ilm va fan lozim"ligini uqtirdi. Behbudiy tashkil etgan yangi

usuldagi maktabda o'qitish ma'lum tizimga solinganligi va izchilligi bilan ajralib turardi. Chuqur ilmiy asosda qurilganligi, nazariyaning amaliyot bilan uzviy bog'liqligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlar ta'lim- tarbiyasi yo'lida butun kuch-g'ayratini sarf etar ekan, bu yo'l orqali bir butun millat tarbiyasini orzu qildi. Shuning uchun u ,o'zga millat ulamolarining vatanlari rivoji uchun qilayotgan xizmatlarini namuna sifatida ko'rsatadi. Behbudiy maktab va maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, o'lka maorifi rivojiga ulkan hissa qo'shdi. U Istambul, Ufa, Qirim, Qozon, Orenburg kabi shahar va mamlakatlarni ko'rdi va ulardagi o'qitish tizimi, maktab va maorif masalalarini o'zlashtirdi. Shu ulkan tajriba asosida" yangi usul" maktablariga birinchilardan bo'lib asos soldi. 1905-yilda Behbudiy tomondan tashkil etilgan yangi usuldagi maktab Samarqand shahridagi Kaptarxona qishlog'ida edi. Ota-onalar bolalarini bu maktabda juda tez savod chiqarayotganini ko'rib hayratlanar edilar, ilgari 3-4 yilda o'rgatiladigan o'quv darslarini bolalar uch-to'rt oyda o'zlashtirar edilar. Bu maktab ochiq havoda bo'lib, oddiy partalar qo'yilgan joydan iborat bo'lgan, maktabda o'quvchi yoshlar qirqdan ortiq o'g'il bolalar bo'lib, ularning yoshi o'n- o'n besh yoshlar atrofida bo'lgan. Ushbu maktab sakkiz yillik ta'limdan iborat bo'lib, maktab tahsilini olgan yoshlar turkiy va forsiyda bimalol o'qish va yozishni uddalashgan. Maktabga qatnovchilarning ko'pchiligini shahardan qatnovchilar tashkil qilardi. Bu holat ayniqsa, qish kunlari noqulaylik tug'dirardi, shu holatni hisobga olib, Maxmudxo'ja Behbudiy general gubernatorning nomiga ariza yozadi. Maqsad, maktabni o'zining shahardagi hovlisiga ko'chirish edi. Gubernatorning ruxsatiga asosan, maktab shaharga Behbudiyning hovlisiga ko'chiriladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zi tashkil qilgan jadid maktabida Turkiston yoshlariga ta'lim va tarbiya berish bilan bir qatorda, matbuot sahifalarida ham yoshlar tarbiyasiga oid munosabatlarini nashr qilib turdi. "Muhtaram Samarqandiyarlarga xolisona arz" deb nomlangan maqolalaridan birida, yoshlarni "og'ir, xushso'z " ³ bo'lishga undagan edi. Buyuk yurtdoshimiz, atoqli pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyning barcha harakatlari o'lka yoshlarini ma'rifatli ko'rishga qaratilgan edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Turkiston jamiyatida qoloqlik va yakkalanib qolish xavfini anglash to-bora yaqqolroq sezilib borayotgan bir davrda, ijtimoiy

hayot maydoniga madaniy- ma'rifiy harakat sifatida kelgan va o'z oldiga eski maktab ta'limini isloh qilishni maqsad qilgan jadidchilik harakati vakillarining tom manodagi ma'naviy rahbari Mahmudxo'ja Behbudiy bugungi zamon maktablarining taraqqiyotida o'ziga xos mavqega ega. U faqat musulmon dunyosi g'oyalari bilan cheklanib qolmadi, balki umumbashariy qarashlar

bilan ham qurollanib, yuksak ma'rifiy cho'qqiga ko'tarildi. Uning ulkan tajribasi bugungi zamon pedagogikasi uchun dasturul amaldir. Bugungi zamon yangi avlod darsliklarining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari-da, ta'lim tizimining jahon standartlari talabi darajasiga chiqishida ham jadid ma'rifatparvarlarining xizmati samarali va beqiyosdir.

1. Dolimov U."Ismoyil Gaspinskiy va Turkistonda jadid maktablari. "\ Ismoyil Gaspinskiy va Turkiston. T. Sharq. 2005. B- 68-83. Su muallif "Turkistonda jadid maktablari". T.Universitet. 2006 b- 126. Do'stqorayev B."Ismoyil Gaspinskiy va Turkistonda milliy matbuot".\ Ismoyil Gaspinskiy va Turkiston".b- 84-101.

2. Su muallif "Turkistonda jurnalistika tarixi". Tom 1.T.2009. b-378. Shu muallif "Turkiston jadidlarining buyuk siymosi". Jahon adabiyoti. 1998. 3-son. B-110-113. Shu muallif "Murodi haq yo'lida jon fido qilish edi". Shu jurnal. 1998. 9-son. B-120-125. Ahmedov S." Tarixiy haqiqat", Turkiston va Ismoyil Gaspinskiy". T.Sharq. 2005. B-24-39. Nazarov B."Maxmudxo'ja Behbudiy " O'zbek tili va adabiyoti. 1992.3-son. Axrorova Z."Behbudiy kutubxonasi". O'zbek adabiyoti va san'ati. 1995-yil 17-fevral. Nishonova B."Behbudiy mujdahid bo'lganmi". Filologiya masalalari. 2005. 1-son. G'afurov I."Nega amir Behbudiyga qo'l bermadi?". O'zbekiston adabiyoti va san'ati .1994. 17.05.

3. Olimov Sh.Sh. "Maxmudxo'ja Behbudiyning ta'limiy- axloqiy qarashlari". BuxDU ilmiy maqolalar to'plami. 'Durdona'.2014. b-16.

Xamza XAITOV,
BuxDPI dotsenti f.f.f.d.[PhD]
BuxDPI I-bosqich magistri.

BADIIY ASAR VA FOLKLOR NAMUNALARIDA SAJ' NING QO'LLANISHI VA ESTETIK AHAMIYATI.

Saj folklorning epik asarlari ifoda uslubiga xos muhim badiiy-kompozitsion belgilardan biri bo'lib, ko'pincha ertaklarning kirish qismida ,doston, riyoyat, afsona, naql singari xalq og'izaki epic ijodi janrlari syujet tarkibida bir necha ohangdosh so'zlarning o'zaro tizilib kelib, nasrda qofiyani hosil qilishidan yujudga keladi. SHunga ko'ra, "saj-badiiy matnda ishlatilgan ayrim gap bo'laklarining yo yaznda yo qofiyada yoxud har ikkalasi [vazn va qofiya] da moslashuvdir",[2;74]- deya tariflanadi.

Nasriy matnlarda sajlangan so'zlar o'zaro ohangdoshlikka asoslanishi tufayli qofiyadoshlik hosil qiladi. Ular diqqat-e'tiborni markazlashtirishga xizmat qiladi.[3;232]. D.Hoshimova aytib o'tganidek, 'Saj turkiy nasrning xos xususiyatlaridan biri bo'lgani uchun tom ma'noda o'zbek xalqiga xos lingvokulturologik jihatlarni aks ettira oladi.'[5;92].

SHuni alohida aytish kerakki, folklor asarlarida qo'llanadigan sajlarda ,odatda, ananaviyligi va biror asardan boshqasi tarkibiga ko'chib borishi , yani sayyorligi kuzatilsa, ma'lum bir ijodkorlar tomonidan qo'llanilgan sajlarda individualligi betakrorligi bilan e'tiborni tortadi.Buni bizgacha anglagan O.Fayzullaev ham alohida e'tirof etib, "yozma adabiyotda adiblar tomonidan yaratilgan sajlarda ma'lum bir muallifning individual mahorati aks etishini, ertak sajlarda xalq topqirligi va zakovati namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. [4;20-21].

Xalq askiya, lof, latifa janrlariga xos kulgi asosida yaratilgan yozma asarlarda sajning hazil-mutoyibali yoki kinoyali, piching va ohangli, kesatqli turi keng qo'llanishi kuzatiladi. Buni Abdulla Qodiriy hajviy qahramoni Kalvak Maxzum nutqiga singdirilgan quyidagi parcha orqali ham anglash mumkin; "Kiyimlar qisqardi, sochlar uzaydi, erkaklar xotun, xotunlar erkak qiyofasiga kirdilar. Barchadan aql ketdi, hamma gumroh. Borar yo'ldan, qilar ishdan adashdi, ulamoga hurmat, yoshlarga shafqat, o'g'lonlarga muhabbat yo'q. [6;238]. Yoki yana bir misol; "Marhum padari buzrukvor allo-mai zamon va mashhuri jahon bo'lib, ul janobning xalqi tadrslaridan behisob ulamo va fuzalolar yetishib, ba'zilar qozilik mansabiga va ba'zilar mudarrislik martabasiga va ko'plari imomat va maktabdorlik ham eng adnolari azayimxonlik kasbiga Musharraf bo'libdurlar.[6;248].

Xalq maydon kulgusi quyoshidan nur emgan bunday asarlarning o'qilishida folklore va mumtoz adabiyotimiz namunalarida juda ko'p uchraydigan saj [musajja] san'atining o'ynoqi estetik ifodasini yorqin his qilish mumkin.

E'tiborli tomoni shundaki, kulgili asarlarda saj' orqali kulgili vaziyatini hosil qilish bilan bog'liq adabiy-estetik tajriba zamonaviy o'zbek nasrida ham muvofoqiyatli davom ettirildi va ettirilmoqda. Buni Anvar Obidjonning "Oltiariq hangomalari" asarida keltirilgan quyidagi lat-

ifa hikoyalardan olingan saj' namunasi bilan bemaol dalillash mumkin; "Oltiariqda asosan uch narsadan mo'mayroq foyda ko'radilar-maxsulot etishtirib sotishdan, yovvoyi o'rdaklarni otishdan, mehmonga borib yotishdan. Oltiariqliklar asosan, uch narsadan ko'proq ziyon ko'radilar- ekinga tushgan shiradan, qarzini uzmaydigan jo'radan, mehmonga kelgan xo'radan. Oltiariqliklarning xushlamaydigani- turup ekilmagan bo'sh maydon, bodiringpoyaga kirgan hayvon, uzumning yashiklari taxlanmagan ayvon".[1;198].

Latifa matnida sotishdan\ otishdan\ yotishdan harakat nomi shakllari , shiradan\ jo'radan\ xo'radan kabi shaxsni tavsiflovchi hamda hayvon nomlarini o'zaro ohangdoshlik asosida keltirish orqali saj'[nasriy qofiya] pichching, kesatiqqa asoslanganidan dalolat beradi.

Xuddi shu muallif yana bir latifasida yozadi; Odamlar "oling-oling" bilan dasturxonga birin-sirin qo'l urishdi. Ochlar xap-xaplab, o'rtachalar chap-chaplab, to'qlar orada gap-gaplab ovqatlanaverdi. Semizlar choyga, oriqlar moyga ko'proq qo'l cho'zib, novchalar enkayib, pakanalar kekkayib kavshanardi."[1;198].

Ushbu matndagi saj' ham hazil-mutoyiba, kinoya, piching, kesatiqqa asoslangani bilan e'tiborni tortadi. Undagi ochlar\ o'rtachalar\ to'qlar hamda semizlar\ oriqlar\ novchalar\ pakanalar so'zlari nafaqat ohang-

doshlikka, balki antonimlik[zidlik]ka asoslangani bilan yanada ajralib turibdi. Bundan tashqari, matndagi xap-xaplab\ shap-shaplab\ gap-gaplab hamda choyga\ moyga; qo'l cho'zib\ enkayib\kekkayib; ovqatlanaverdi\ kavshanardi so'zlari matnga ohangdoshlik barobarida ifodalayotgan mazmunni jozibali, ta'sirchan yoritish imkonini berib kelmoqda.

Saj' san'ati gapga ohangdorlik, ravonlik baxsh etib, tasvirning badiiy jozibasini oshiradi, tasvirni o'quvchi yoki tinglovchi yodida qolishini osonlashtiradi.O'zbek adabiyotidagi saj' o'zining paydo bo'lishi jihatidan qadimgi turkiy xalqlar folkloriga borib taqaladi. Bundan tashqari arab, fors adabiyotining o'zbek adabiyoti bilan bo'lgan o'zaro aloqalari ham bu san'atning adabiyotimizdagi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.O'zbek folklori va yozma adabiyotidagi saj' quruq shakily bezak bo'lmay, balki muhim g'oyaviy estetik vazifa bajaruvchi san'at hisoblanadi. Saj'ning matni ravonlik va ohangdorlik baxsh etishini bilgan saroy kotiblari, din peshvolari o'z yozishmalari hamda ayrim asarlarida undan unumli foydalanganlar.'

Xulosa qilib aytganda, saj' ijodkorlarning poetic mahoratini baholashga , badiiy asarlarning ohangdorligini, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan e'tiborni tprtadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1.Obidjon Anvar."Oltiariq hangomalari".Hajviya va hangomalar.-T.Ma'naviyat,1999.- B.198.
- 2.Sarimsoqov B.SAJ'.\ O'zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2010.-B232.
- 3.Safarov O.O'zbek xalq og'zaki ijodi T.Musiqa. 2010-B.232.
- 4.Fayzullaev.O.M.O'zbek folkloridagi lingvokulturemalarning inglizcha tarjimada berilishi.Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori [PhD]diss.abtoref.-T.2019. B-20-21.
- 5.Hoshimova D.M."Boburnoma" matnidagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi.Filologiya fanlari doktori[DSc] disser.-T.2018.-B,192.
- 6.Qodiriy A.G'irvonlik Mallavoy -T.G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1987.-B.238-248.

Zarifa Norqobilova,

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti o'qituvchisi

MAVLONO JALOLIDDIN RUMIYNING "MASNAVIYI-MA'NAVIY" ASARIDA KELTIRILGAN HIKOYALARDAN MULTFILM YARATISH G'OYASINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Kelajak avlodlarni "Qur'oni Karim "ni o'rganishda yaxshi yomonni ajratishda,oq-qorani tanishda tug'ri yo'ldan adashmasdan yot g'oyalardan asrashda asqotadi. Bundan tashqari Mavlono Jaloliddin Rumiyning hikoyalarini o'qigan har qanday kitobxon u qaysi din vakili bo'lishidan qate' nazar inson uchun muhim bo'lgan bar-

cha hislatlar hikoya qahramonlari tomonidan aks ettirilganligini his etadi,tushunadi va munosabat bildiradi.Fikr va mulohazalari ijobiy tomonga o'zgaradi,dunyoqarashi kengayadi. Hikoya ma'nosini 2-3-4 yoshli bolalar multfilm orqali tushunishi osonroq bo'ladi.Tabiiyki,4 yoshli bolalarning miyasi nihoyatda kuchli ishlashi,kuchli tahlil qilishi xotirasida bir umr muhrlanib qolishi fanda isbot-

langan. Eng muhim jihati shundaki, bolalarimizga ya'ni kelajak avlodlarga har xil diniy oqimlarga qarshi immunitet hosil bo'ladi.

Maktab yoshidagi bolalarni darsliklarida Mavlono Jaloliddin Rumi hikoyalari keltirilishi bejizga emas. Jumladan 2-sinf Ona tili o'qish darsligida Mavlono Jaloliddin Rumi hazratlarining asaridagi "Uzum" hikoyasi[1] ham bolalarni yoshligidan bir-birlari bilan ahil-inoq bo'lishga nizo va tortishuvlarga osongina ahillik bilan yechim topishga, adolatli bo'lishga, boshqalarni beo'rin hafa qilmaslikka o'rgatish, to'g'ri qaror chiqarish kabi ko'nikmalarini hosil qilishda multfilmning ta'siri ahamiyatlidir. Hozirgi yoshlarimiz televedeniye orqali uzatilayotgan chet el multfilmlarini ko'rganda Yevropacha dunyoqarash shakllanishini oldini olish uchun ham muhim hisoblanadi. Mavlono Jaloliddin Rumiyaning asarlari va shu asarlar tarkibiga kiruvchi barcha hikoyalar har bir millat, har bir xalqning milliyligiga urf-odatlariga har bir zamon va makon vaqtga to'g'ri keladi. Bu men o'ylagan g'oya va shu g'oya asosida qo'l urayotgan loyihaning hamda yaratmoqchi bo'lgan multfilmning obyektini topishga muhim rol o'ynaydi.

Mulohaza va takliflar

Mavlono Jaloliddin Rumiyaning "Ma'naviy-masnaviy" asarida berilgan hikoyalarning barchasi inson ruhiyati bilan kechadigan jarayonlardir. Chunki asarda "Qur'oni karim"dan keltirilgan oyatlar hamda hadislar berilgan. Shuning uchun ham "Forsiy Qur'on" deb yuritiladi. Bundan tashqari Allohning guzal ismlaridan biri Sattorning qo'llanilishi hikoyaning mohiyatini ochib bergan. Sattor so'zining ma'nosi (Ayblarni yashiruvchi), Basir esa (yashirin va oshkora har narsani ko'ruvchi) degan ma'nolarni bildiradi. Qolaversa, payg'ambarlarning ishtiroklari ya'ni payg'ambarlarimiz haqidagi rivoyatlar ham kitobxonni o'ziga jalb qilganidek, televedeniye qarshisida turgan tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Chunki har bir rivoyat hayotiyli bilan o'ziga jalb qiladi davomi qanday kechishi ekran qarshisidagi tomoshabin uchun qiziqarli jarayondir.

Hadislarga keladigan bo'lsak, ularni o'zi bir alohida muhokamalarga loyiq bir jarayondir. Misol uchun "Olohi insonni o'z surati asosida yaratdi" (Hadisdan). Yoki "Men yashirin xazina edim, bilinmoq istadim" (Hadisdan).

Mavlono Jaloliddin Rumi bolaligidanoq ilmga tashnalligi va ilohiy bir hislatga egaligi bilan boshqa bolalardan ajralib turgan. (Bunga misol uning tomdan tomga uchganligi voqeasi).

So'z mulking sultoni Alisher Navoiy asarlaridagi hikoyalarda ham bolalarga xos jihatlar ko'zga tashlanadi. Buni biz uning mashhur asarlari dan biri "Xamsa" da ko'rishimiz mumkin. "Hayrat ul-abror" dostonida yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik, saxiylik, rostgo'ylik kabi tushunchalar o'z ifodasini topgan. ("Sher va durroj" hikoyasi). Shu hikoya asosida bolalarimiz uchun multfilmning yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalarga sodda tilda tushuntirilishi ularning hikoyani tushunishi oson bo'lishi va bir umrlik saboq olishi to'g'ri tushuncha hosil bo'lishi va dunyoqarashi

shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Mana shu o'rinda aytish kerakki, Navoiy asarlari asosida multfilm yaratish g'oyasi ham o'rinlidir. Jaloliddin Rumiyaning "Ma'naviy Masnaviy" asari yetti asr mobaynida g'arbu-sharq olimlari o'rtasida turli bahsu munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Jahon mutafakkirlari tomonidan Rumiya bashariyat shoiri deb tasnif berilishi, uning "Masnaviy" asari esa Qur'ondan keyin turuvchi kitob, tasavvuf qomusi, ma'naviyat dengizi yoki dunyo kitobi deb bahol-anishiyiq bu asarning qadri va nufuzi nechog'ligidan dalolatdir.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul:

"Rumi she'riyatining o'ziga xos bir jihati shundan iboratki, siz birinchi navbatda o'zingizda insonga ishonchni mustahkamlaysiz. Va insonning ilohiyligini Rumi judayam teran tarzda ochib beradi. Rumi she'riyatining quyoshi - Ishq. Insonni bir haqiqat, yoki insonni bir Ishq atrofida birlashtirish bolsa agar, Rumiyaning she'riyati shu ishni amalgam oshira oladi. Biz aytamiz, komil inson bo'lish uchun tasavvufni bilish kerak, dini bilish kerak, falsafani bilish kerak, tarixni va hokazo. Shularni hammasini Rumi o'z ijodida sintezlashtirgan. Insonni Rumi she'riyati adashishlardan, yuzakiliklardan, sayozliklardan, har turli mahdudliklardan xalos qiladi. Shu uchun bu qancha tarixiy she'riyat bo'lsa, xuddi shuncha zamonaviy she'riyat."

Xulosa

Navoiyning 4-7 yoshida Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini yod olgani esa, uning nihoyatda zehni, bilimli ekanligidan darak beribgina qolmay uning Alloh nazariga tushganligidan dalolat beradi. Undan ta'sirlanib "Lison ut-tayr" asarini yozgan. Navoiyning bu dostoni bolalarga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki "Lison ut-tayr" murakkab ifoniy doston bo'lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda dostonida real hayot lavhlar-i, kishilarning xatti -harakati, fe'l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan. Allohning kitobi "Qur'on"ni ham bolaligidanoq yod olganligi uning tub mohiyatini chuqur anglaganligi kelajakda ko'plab asarlarining yaratilishida va falsafiy fikrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois asrlar davomida o'z kuchini mavqeyini yo'qotmay kelyapti desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Mavlono Jaloliddin Rumi ham Alisher Navoiy ham Fariddin Attorni o'zlariga ustoz deb bilganlar. Jahon madaniyatidagi eng buyuk yodgorliklardan biri hisoblangan Jaloliddin Rumiyaning "Ma'naviy masnaviy" kulliyoti to'liq 6 daftardan, aniqrog'i 54 ming misradan iborat bo'lib, u mavlono tomonidan 10 yil mobaynida yozib tugatilgan.

Xo'sh, Rumi "Masnaviy" sida nima ifodalangan, yetti asrdan ortiq vaqt o'tsa ham, u haqdagi mulohazayu munozaralar hamon tugallanmay davom etmoqda?

"Man bandai Qur'onam agar jon doram,
Man xoki rahi Muhammadi muxtoram.

Gar naql kunad juz in kas az guftoram,
Bezoram az o', va zin suxan bezoram."

U kishi aytadilarki: "Masnaviyi mo do'koni vahdat ast, g'ayri vohid har chi bini on bat ast" degan. Masalan, "Bizning Masnaviyimiz bu vahdat do'koni, agar sen shu do'konda vahdatdan boshqa narsani ko'rsang, bilginki u butparastlikdir. Demak bu do'konda vahdatdan boshqa hech narsa yo'q. Ya'ni, "Masnaviy" boshdan-oyoq xudoning yagonaligi va iymon masalalarini atroflicha inkishof etadi, kashf etadi. U qaysi rivoyatga murojaat qilmasin, vahdat g'oyasiga kelib taqaladi. Uning nazari-da "Masnaviy"ning o'zak masalasi – iymon masalasi", - deydi shoir Asqar Mahkam.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, Eron, Turkiya, Pokistonu Hindistonda masnaviyshunoslik maktablari mavjud. Sho'ro inqilobigacha bo'lgan O'zbekiston hududida ham masnaviyshunoslik keng rivojlangani, Rumiyning bu kitobi har bir ilmi xonadonda Qur'ondan keyingi muqaddas kitob singari asralgani aytiladi. Masnaviyi hech kim o'zbek shoiri Boborahim Mashrabchalik sharhlagan emas, deb hisoblaydi shoir va tarjimon Asqar Mahkam.

Xulosa: Mavlono Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiy asarlaridagi hikoyalarning multfilmini yaratish ularni hayotga tatbiq etish butun jamiyat va kelajak avlod uchun juda muhim va dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Jaloliddin Rumi. Ma'naviy masnaviy. T.: Sharq, 1999. B. 12.
2. Quronbekov A. Mavlono Jaloliddin Rumiyning avlodlarga mangu ma'naviy merosi.: Mavlono Jaloliddin Rumiyning 800 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjuman materiallari. – T., 2007. – B.9-12.
3. Rumi, Jaloliddin. Ichindagi ichindadir. T., 2001. B. 65.
4. Jaloliddin Rumi "Ichindagi Ichindadir"-Ulug'bek Hamdam tarjimai. Toshkent2016.-B.3.

Nigora SHARIPOVA

*Navoiy davlat pedagogika instituti
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

"XAMSA" ILK DOSTONLARIDA MUALLIF SIYMOSI

"Xamsa" ilk dostonlari yagona epik syujetga ega bo'lgan keyingi dostonlaridan kompozitsiyaviy struktura va syujet qurilishi jihatidan butkul farq qiladi. Keyingi dostonlarning barchasida muayyan syujetdan kelib chiqqan holda qator qahramonlar liniyasi mavjud. "Hayrat ul-abror"ning maqolat va hikoyatlarida ham bir qator qahramonlar guruhi ko'zga tashlanadi, biroq doston muqaddimasidan xotimasigacha turli masalalarda kitobxonga doimiy hamrohlik qiladigan, uni obrazlar olamiga olib kiradigan, maqolat va hikoyatlar mohiyatiga oshno etadigan bosh qahramon – shoirning o'zi. "Hayrat ul-abror"da Navoiy fikru qarashlari dostonni bog'lab, birlashtirib, boshqarib, o'zaro aloqaga kirgizib turadi. Dostonga oshno bo'lgan kitobxon doston markazida shoir shaxsi turganligini, barcha maqolat va hikoyatlar u bilan bog'lanishini yaqqol idrok etadi.

Professor N.Mallaev "Hayrat ul-abror" obrazlar sistemasining xarakteri dostonning janr xususiyatlari va kompozitsion tuzilishi bilan bog'liqligini, dostondagi masalalar voqyeaviy syujet bayoni orqali yoritilmasligini, shu jihatdan doston "Xamsa" dostonlaridan tubdan farq qilishini ta'kidlasa[Mallaev,1991:20], professor A.Hayitmetov "Hayrat ul-abror"ning bosh qahramoni o'zi yashagan ijtimoiy-tarixiy muhitni ko'p jihatdan real va konkret tasvirlaydigan shoirning o'zi ekanligini e'tirof etadi[Hayitmetov,1970:26]. Keyingi dostonlarda ilgari

surilgan barcha masalalar xususida shoir mazkur dostonda debocha fikrlarni bildirib o'tadi, aslida kitobxonni ulkan obidaning buyuk voqyeotlariga tayyorlaydi.

Professor U.Jo'raqulov "Xamsa" dostonlaridagi muallif obrazi xususida maxsus to'xtalar ekan, bu obrazni metaforiklashtirilgan tarixiy obrazlar guruhiga kiritadi. Muallif obrazi muayyan biografik qirralarga ega ekanligini, "Xamsa" dostonlari kompozitsiyasi, debocha va xotima qismlarida, boblar ichidagi lirik chekinishlar, soqiyonomalarda aynan bo'lmasa ham tarixiy Navoiy hayotiga oid voqyea-hodisalarni, biografik unsurlarni, individual tabiat qirralarini kuzatish mumkinligini aytadi[Jo'raqulov,2016:379]

Adabiyotshunos U.Jo'raqulov muallif obrazining quyidagi shakllarini farqlaydi: a) har bir doston asosiy boblarida, qahramonlari hayoti tasvirida bayonchi, kuzatuvchi, yo'naltiruvchi, baholovchi muallif obrazi; b) voqyea ro'y berishidan oldingi tabiat, inter'er va ruhiy holatni tasvirlovchi muallif obrazi; v) bevosita "Xamsa"ning maydonga kelishi bilan bog'liq tarixiy voqyea-hodisalar tarkibidagi muallif obrazi[Jo'raqulov,2016:380]. Olim birinchi guruhga "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarining asosiy boblaridagi qalamkash, raqamkash va h.k.larni, ikkinchi guruhga dostonlardagi kun, tun, shom, subh, urush, g'alaba, mag'lubiyat, iztirob, quvonch va h.k.lard-

agi muallif xarakterini, uchinchi guruhga esa Jomiy bilan uchrashuv, oxirgi dostonidagi tush holatida ko'rilgan voqyeadagi muallif obrazini kiritadi. Bizningcha, "Hayrat ul-abror"ning turli o'rinlaridagi muallif obrazida olim keltirgan tasnifning barchasiga oid qirralar, xarakter- xususiyatlar uchraydi. Ilk dostonning boshidan oxirigacha kitobxonga hamrohlik qiluvchi doston bosh qahramonida har bir doston asosiy boblarida, qahramonlari hayoti tasvirida bayonchi, kuzatuvchi, yo'naltiruvchi, baholovchi muallif obrazi xususiyatlari yaqqol aks etsa, dostonning bir qator o'rinlarida voqyea ro'y berishidan oldingi tabiat, inter'er va ruhiy holatni tasvirllovchi muallif obrazini kuzatamiz. "Xamsa"ning yaratilishi bilan bog'liq tarixiy voqyelik, shuningdek, Jomiy bilan uchrashuv tafsilotlari ham aynan ilk doston sifatida "Hayrat ul-abror"-da to'liq aks etgani uchun shu tafsilotlardagi muallif obrazi U.Jo'raqulov tasniflagan bevosita "Xamsa"ning maydonga kelishi bilan bog'liq tarixiy voqyea-hodisalar tarkibidagi muallif obraziga aynan mos keladi.

Tadqiqotlarda hikoyachi – asarning psixologik va bayon markazi ekanligi, uning asarda tasvirlanayotgan voqyealarga munosabati shaxsiyatli, tuyg'uli, faktlar va kishilarga yondashishi sub'ektivligi, hikoyachida muallifning ma'naviy shaxsiyatiga yaqinlik bo'lishi to'g'ri ta'kidlangan [Quronov, 2018:383]. Biroq hikoyachi-roviya aynan muallifning o'zi bo'lsa-chi? Epik va dramatik janrdagi asarlardan farqli ravishda lirik turdagi asarlarda lirik qahramon obrazi o'zgacha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Chunki lirikada voqyelikka oid tafsilotlar kam uchrab, asosan kechinmalarni ifodalash, uni yuzaga keltirgan, harakatlantirayotgan omillarni ko'rsatish muhim o'rin tutadi [Quronov,2018:383]. Adabiyotshunosligimizda ko'pincha lirik qahramon va muallif obrazi masalasi atrofida bahs-munozaralar kechadi. Nazariyotchi olim D.Quronov lirik janrlardagi lirik qahramon deganda ko'pincha shoirning o'zi tushunilishini va bu u qadar to'g'ri emasligini yozadi. Olim shoir o'z kechinmalarini tasvirlashi ham, go'yo o'zganing ruhiga evrilgan holda "o'zga shaxs" kechinmalarini tasvirlashi ham mumkinligini, hatto shoir o'z kechinmalarini tasvirlasa ham, lirik qahramon va real shoir orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmasligini aytadi [Quronov,2018:383]. Bu o'rinda olim aynan lirik doston muallifi va lirik qahramoni masalasiga emas, lirik she'rlardagi lirik qahramon va muallif obraziga e'tibor qaratganligini ta'kidlash joiz.

Navoiy lirikasi, undagi obrazlar tizimi yuzasidan qator tadqiqotlar olib borgan adabiyotshunos A.Hayitmetov Navoiy g'azallaridagi lirik qahramon mavzusida fikr yuritib, lirik qahramonning qalbi shoir qalbidan harorat olishini, lirik qahramonning aqli shoir aqli bilan fikr yuritishini aytadi [Quronov,2015:170]. Olimning e'tiroficha, Navoiy lirikada "lirik qahramon" obrazini yaratish bilan cheklanmaydi. Navoiyning tarjimai hol mavzuidagi g'azallarida to'qima obraz qahramon emas, shoirning

o'z obrazi gavdalanadi, bunda shoir shaxsan o'z kechinmalari haqida so'zlaydi [Quronov,2015:170]. "Hayrat ul-abror"dagi muallif obrazi ham Navoiyning tarjimai hol xarakteridagi g'azallarida uchraydigan muallif va lirik qahramon birikuvidagi yaxlit obrazga xos xususiyatlarni o'zida yaqqol aks ettirgan, deyish mumkin.

Professor D.Quronov lirik kechinmani egasiga ko'ra tasniflab, avtopsixologik, ijroviy, personajli lirika singari turlarga bo'ladi. Shuningdek, lirik qahramon va shoir shaxsiyati mos tushgandek ko'rinadigan, shoir ko'proq o'z qalbiga murojaat etadigan, o'z-o'zini, ko'nglidagini ifodalaydigan she'rlarni avtopsixologik lirikaning namunalari deydi [Quronov,2015:386]. Ko'rinib turibdiki, "Hayrat ul-abror"dagi lirik chekinishlar, muallifning aralashuvi kechadigan va shoir o'z qalb kechinmalariga imkon bergan o'rinlarda avtopsixologik lirikaning xususiyatlari namoyon bo'ladi. "Hayrat ul-abror" dostonida ilk "Basmala" bobdan boshlab xotimagacha, hamd, na't, salafar, so'z, ko'ngil ta'rifidagi boblar, uch hayrat, maqolatlar va hikoyatlarning barchasida muallifning aralashuvi, munosabati, kechinmalari aniq, ravshan o'z aksini topadi. Xususan, har bir bobning avvalida keltiriladigan debochalar muallif "men"ini to'la aks ettirishi e'tiborlidir. "Hayrat ul-abror"dagi har bir bobning boshlanishida keltirilgan debocha - shu bobning mohiyati uchun ochqich vazifasini o'tashi, bob yuzasidan muallif nuqtai nazarini, pozitsiyasini o'zida to'la-to'kis namoyon ettirishi jihatidan ham xarakterlidir. Shuningdek, har bir bobning so'nggida bir necha baytlarda shoirning o'ziga, soqiyga murojaatlarida ham muallif obrazining badiiy konsepsiyasi, qissadan hissa tarzidagi teran qarashlari, o'tkir da'vat va chaqiriqlari o'z aksini topganki, bu o'rinlarda muallif shaxsiyati kitobxon tasavvurida yanada aniqroq gavdalanadi.

Adabiyotshunos N.Mallaev "Hayrat ul-abror"ning obrazlari tasnifi bo'yicha o'z qarashlarini bayon etib, dostonning bosh qahramoni Navoiyning o'zi ekanligini ta'kidlaydi. Bosh obrazning kitobxonga qalban yaqinligini, hamisha yonma-yonligini o'rinli e'tirof etadi. Olim "Hayrat ul-abror"dagi muallif obrazi xususida, jumladan, shunday deydi: "...kitobxonni yangi-yangi masalalar, o'y-fikrlar, ziddiyatlar, kurashlar olamiga olib kiradi. Kitobxon bu obrazning sarguzashti, tashqi qiyofasi yoki boshqa jihatlar bilan tanisholmaydi, lekin doimo uning qalbi va shuuri, hissi va tuyg'usi, hayajoni va armoni, shodligi va g'azabi bilan birga bo'ladi, hamma narsani u orqali bilib oladi, tushunadi, o'ylaydi, xulosa va yakun yasaydi, ...xalqparvar, ma'rifat arbobi, donishmand va murabbiy Navoiy obrazi kitobxonning ko'z o'ngida ulug'vor bir monument bo'lib gavdalanib turadi"¹

Chindan ham, "Hayrat ul-abror" ulug' mutafakkirni kitobxonga har jihatdan yaqinlashtiradi, "Xamsa"ning boshqa dostonlaridan ko'ra ilk dostonidagi Navoiy shaxsiyati kitobxonga har jihatdan yaqin va hamnafasdir.

1. Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. Т.:Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.21

To'liqin ASADOV,

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.

Sojida MEHMONOVA,

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida 2-bosqich magistranti

“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDAGI -LA, -LAN, -LASH AFFIKSLI MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARINING STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI

KIRISH. Ma'lumki, lingvopoetika va uning tarkibiy qismlari – lingvostilistika, lingvodidaktika, lingvosemantika, lingvostatistika va h.k. sohalar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ko'lami bugungi kunda kelib son va sifat jihatdan ancha oshdi. Nasriy va nazmiy asarlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan alohida-alohida tahlil etish, lingvopoetik tahlil jarayonlarini baholash, lingvopoetik tahlil tamoyillarini belgilash [4;5;9] borasidagi maxsus tadqiqotlarning yuzaga kelishi mazkur soha rivojini belgilab bera oladi.

Bilamizki, ko'pgina o'zbek adiblari ijodining til xususiyatlarini turli maqsadlar asosida o'rganishga, bu borada umumiy xulosalar chiqarishga qaratilgan u yoki bu darajadagi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murod asarlari poetikasi va lingvistikasi bo'yicha filologik izlanishlar olib borilmoqda [7]. Biroq tilimiz (adabiy va og'zaki til)ning boy imkoniyatlari namoyon bo'lgan “Otamdan qolgan dalalar” asari, undagi nutqiy va lug'aviy vositalarning turli jilodagi qo'llanishlari tadqiqotchilarni yillar davomida o'ziga jalb etib kelayotganligini keng izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Xuddi shunday hodisalardan biri -la, -lan, -lash affiksli nutqiy yasama so'zlar (muallif nutqi neologizmlari)ning asardagi ifodasi masalasi sanaladi.

ASOSOY QISM. Biz mazkur tadqiqotimizda “Otamdan qolgan dalalar” asaridagi -la, lan, -lash affikslari bilan bog'liq sodda va murakkab nutqiy yasama so'zlar struktur-semantik tahlilini amalga oshirishni maqsad qilib oldik.

Bugungi kun o'zbek tili so'z yasashi nazariyasiga oid manbalar hamda mavjud badiiy, publitsistik asarlar tili yuzasidan kelib chiqib ayta olamizki, fe'l yasovchi affikslarni unumdorlik-unumsizligiga ko'ra quyidagicha guruhlab ko'rsatish mumkin: a) unumli fe'l yasovchi affikslar: -la, -lan, -lash; b) o'rta unumli fe'l yasovchi affikslar: -sira, -lashtir, -lantir; d) unumsiz fe'l yasovchi affikslar: -a, -an, -i, -illa/ulla, -ik, -(a)y, -(a)r, -ir/ur, -ira, -ay, -r/ar, -ra, -si, -sin, -sit, -t, -it, -ot, -q, -iq, -qar, -g'ar, -qir. Biz oldingi kuzatishlarimizda mazkur masalaga alohida to'xtalib o'tganmiz [1, 24-25].

Fe'l bilan bog'liq ko'pgina nutqiy va lug'aviy yasama so'zlar -la, -lan, -lash affikslari bilan bog'liq. -la affiksi faol, sermahsul fe'l yasovchi bo'lib, uning ma'no imkoniyatlari juda keng [3;10]. Shuningdek, -lan, -lash affikslari ham yangi-yangi so'zlar yasashda ishtirok eta-

yotganligini ko'ramiz. Misollarni kuzatamiz: I.-lan affiksi: 1. [Navro'z] o'smalangan, suralangan qosh-ko'zingdan aylanay. (T.Ahmad) 2. Jim turing, shovqinlan-mang... (Qo'shiqdan). 3. Shamolga qo'shilib uchaman endi, Olovga kuymayman, olovlanaman... (Sara)

II. -lash affiksi: 1. Abadiy lol tog'lar tillashdi, Qizil tan-u oqlar dillashdi. (Farida Afro'z) 2. Tashna dilman, daryolashaylik, Ko'ngil ochib dunyolashaylik. (Farida Afro'z)

Ma'lumki, yasama so'z ham lisoniy, ham sof nutqiy holda bo'ladi [8,87]. Yuqorida tahlilga tortilgan misollardagi yasalmalar nutq birligi, okkazonal so'z yasashi tipida bo'lsa-da, vaqt o'tib, ularning qo'llanish doirasi kengayib borishi mumkin. Bu holat, ya'ni yasama so'zning yasalgan so'zga [6,14-18] aylanish-aylanmasligi shu so'zlarning keyingi “taqdiri” (yashab qolishi) yoki aksincha holga tushishi bilan bog'liq bo'ladi.

-la affiksining fe'l yasash jarayoni faol kechayotganligini iste'dodli yozuvchi Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida keng kuzatish mumkin. Mazkur asarda -la affiksi, uning grammatik hamda semantik tabiati bilan bog'liq quyidagi hollarni kuzatish mumkin:

1) avvalo, keltirib o'tish lozimki, asarda -la affiksli lug'aviy yasama so'zlar (jumladan, alanglamoq, qadamlamoq, shibbalamoq va b.) tarkibida kuzatilishi bilan bir qatorda dalalamoq, soyalamoq, tashqarilamoq, tomlamoq, ichkarilamoq, ayvonlamoq, bayonlamoq, safarlamoq, muloyimlamoq, ko'chalamoq, qishloqlamoq, makonlamoq, inlamoq, tirsaklamoq, yerlamoq, ohistalamoq, oldimlatmoq, boshimlamoq, tugmalamoq, tarafimlamoq, shapatilamoq, oralamoq kabi o'nlab nutqiy yasama so'zlar ham yasashda ishtirok etganligiga duch kelamiz. Aytish mumkinki, bularning bir qismi muallifning ona yurti, ya'ni Surxon vohasi xalqiga oid og'zaki nutq (mahalliy nutq) ko'rinishlari bo'lsa, katta qismi yozuvchining ijod mahsuli, ya'ni muallif nutqi neologizmlari sanaladi. Asardagi ayrim misollarni kuzatamiz: 1. Yo'l, majnuntol soyalab o'tadi. Bobomiz ana shu yo'ldan sahar-sahar dalalaydi. 2. Qiblatlab belbog' yoyadi. 3. Men bo'xchamni orqalatib tashqarilayman. 4. Qaldirg'ochlar afg'on yurtga safarlabdi, kuz oxirlabdi-da.

2) ayrim misollarda -la affiksi bilan bog'liq mahalliy so'zlarning yaqqol namunalar (o'ngalamoq, havorlamoq, shipshiydamlamoq, hadahalamoq va b.) ku-

zatiladi: 1. *Direktorimiz shlyapa odam ketidan qarab turadi-turadi – brigadrga o'ngaladi.* 2. *Dilnavozim bilan shudgor havorladim.* 3. *G'o'zani shipshiydamlab terdi.* 4. *Hadahalab qizimiz oldiga bordim.*

3) -la affiksi tilimizda mavjud qo'shma so'zlardan ham yangi nutqiy yasalmalar hosil qilganligi kuzatiladi. Bu esa -la affiksining o'ta faol so'z yasovchi ekanligidan dalolat beradi. Misollarni kuzatamiz: 1. *Bosh-adoq o'qariqni ana shu maqomda doriqog'ozladim.* Mazkur misoldagi *doriqog'oz* (ot so'z turkumi, ya'ni "qog'ozdan tayyorlangan qop" ma'nosida) qo'shma so'zi -la affiksi orqali qayta yasalganligiga guvoh bo'lamiz.

4) -la affiksi fe'l+fe'l ko'rinishidagi yangi qo'shma fe'lning yuzaga kelishiga ham sababchi bo'lgan: ... *kat-ta do'xtir tashqarilab keldi.* Misoldagi *tashqarilab kel-moq* so'zi tilimizda yangilik bo'yog'iga ega bo'lib, voqe-likni yorqin anglatishda so'zlovchiga juda qulayligi bilan ahamiyat kasb etadi, nazarimizda.

5) -la affiksi orqali mutlaqo yangi takror so'zlarning yuzaga kelishi ham kuzatiladi: *qoshqo'llab-qo'shqo'llab, tonglay-tonglay, ko'llab-ko'llab, changallab-changal-lab* va b. Masalan: 1. *Bo'yinbog' uchini qo'shqo'llab-qo'shqo'llab tortdim.* 2. *Bir katta yomon bo'lib qoldi – ko'ksini changallab-changallab tashqariladi.*

6) -la affiksi shu davrgacha tilimizda mavjud ayrim juft so'zlardan ham yangi-yangi nutqiy yasama fe'llar yuzaga keltirgan: 1. *Raisimiz shiypon oldini saran-jom-sarishtalatdi.* 2. *Osiy banda mulla Namozni oq ki-gizga o'tirg'izuvchi muridlari ana shu masjidda toat-ibo-datlanadi, deysiz-da.*

7) ba'zi hollarda -la affiksi sintaktik butunlik tarkibida kelib ish-harakat belgisini ifoda etish uchun qo'llangan-ligiga guvoh bo'lamiz: 1. *Chilla ana shu yuza xaxni er ostilatib-yer ostilatib cho'ktirdi.* 2. *Men shu ko'yi tag'in ohista ko'z ostimlab-ko'z ostimlab qaradim.*

8) -la affiksli ayrim yasama so'zlar tarkibida asos va qo'shimchalar tartibi buzilgan holda (yozuvchi badiiy maqsadi o'laroq) qo'llangan: *betimlamoq, cho'ntagim-lamoq, oldimlatmoq, boshimlamoq, tarafimlamoq* kabi. Misollarni kuzatamiz: 1. *To'pponchalik ayolimiz lozimilab tupurmadi – meni betimlab tupurdi.* 2. *Ivan Ivanovich boshimlab keldi.* 3. *Rejisyor o'shayon cho'ntagimlab "Pravda" soldi.* Mazkur misollarda I shaxs egalik shakli (-m/im) ning so'z yasovchi -la affiksidan oldinda kelishi kuzatiladi.

9) asardagi ayrim o'rinlarda -la affiksining so'z yasovchi emas, balki lug'aviy shakl yasovchi sifatida-gi vazifasi ham kuzatildi, bunda ham mutlaqo yangi so'zshakl yuzaga kelgan: *silki-la-b-silki-la-b, yulqi-la-b-yulqi-la-b* kabi.

Asarda -la affiksi bilan bog'liq muallif nutqi yasama fe'llarini tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rgan-ish mumkin: 1) ot+la shaklda: *dalalamoq, burchaklam-oq, tugmalamoq, soyalamoq, tashqarilamoq, tomlam-oq, ichkarilamoq, ayvonlamoq, bayonlamoq, safarlam-oq, ko'chalamoq, qishloqlamoq, makonlamoq, inlamoq, tirsaklamoq, yerlamoq, ohistalamoq;* 2) ot+m/-im+la shaklda: *oldimlatmoq, boshimlamoq, tarafimlamoq;* 3)

sifat+la shaklda: *muloyimlamoq, alohidalamoq, pokizal-amoq, dinglamoq, forig'lamoq, sertomirlamoq;* 4) rav-ish+la shaklda: *ohistalamoq, sekinlamoq.*

Asardagi -la affiksli so'zlar, ya'ni fe'llarni semantik tabiatiga ko'ra harakat fe'llari (*dalalamoq, tashqarila-moq, ichkarilamoq, ayvonlamoq*), holat fe'llari (*soyal-amoq, muloyimlamoq, sertomirlamoq*), nutq fe'llari (*bay-onlamoq*), ruhiy holat fe'llari (*forig'lamoq, niyatlanmoq*) kabilarga bo'lish mumkin.

Asarda -lan affiksi bilan bog'liq muallif nutqi neolo-gizmlari ham ko'p kuzatiladi. Bunga *nazarlanmoq, had-iklanmoq, o'tmaslanmoq, shafaqlanmoq, shukurlan-moq, hayronlanmoq* va h.k. larni misol sifatida aytish mumkin: 1. *Ayolimiz shlyapaga xushvaqtlanib qaradi.* 2. *Bobotog' uzra kun shafaqlandi.* 3. *Apparatlar men taraf peshlandi.* 4. *Saharda vaqtlitiroq turib devor uraman deya niyatlandim.* 5. – *U kim? – hayronlanib so'radim.*

Asardagi -lan affiksi bilan bog'liq muallif nutqi yasa-ma fe'llarini tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) ot+lan shaklda: *nazarlanmoq, hadiklanmoq, shafaqlanmoq, shukurlanmoq, hazarlanmoq, peshlan-moq, niyatlanmoq;* 2) sifat+lan shaklda: *hayronlanmoq, manqalanmoq, xushvaqtlanmoq.*

Asarda qo'llangan -lan affiksli fe'llarni semantikasi-ga ko'ra harakat fe'llari: *peshlanmoq, oldinlanmoq;* ho-lat fe'llari: *hadiklanmoq, shafaqlanmoq, shukurlanmoq, hayronlanmoq;* nutq fe'llari: *manqalanmoq;* ruhiy holat fe'llari: *niyatlanmoq, xushvaqtlanmoq, nazarlanmoq* kabilarga bo'lish mumkin.

Asarda -lash affiksli nutqiy yasalmalar miqdoran oz (Jumladan, *omon-esonlashmoq, xayr-xo'shslashmoq, mashvaratlashmoq*) kuzatildi.

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asari-da -la affiksi bilan bog'liq murakkab tarkibli fe'llar, xus-usan, juft va takror so'zlar ham keng kuzatiladi. "Takror va juft so'z"ga bag'ishlangan maxsus ishlarda ularga "morfologik hodisa" sifatida qaraladi[2,21]. Bizningcha, lug'at qatlamimizdagi juft va takror so'zlarni lug'aviy va nutqiy birliklar sifatida o'rganmoq lozim. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida uzial (an'anaviy) juft va takror fe'llar bilan birga okkazional ko'rinishlari (muallif nutqi neologizmlari) ham ko'p kuza-tiladiki, bu hol mazkur hodisa taraqqiyotining davomiy kechayotganligini ko'rsatadi. Asardagi juft va takror so'zlarda quyidagicha tasnif va tahlil kuzatiladi:

1. Mustaqil ma'noli so'zlardan tuzilgan juft fe'llar: ot+yasama fe'l: *bosh-adoqlab, saranjom-sarishtalam-oq, toat-ibodatlanmoq, xayr-xo'shslashmoq, omon-es-onlashmoq, darang-durunglamoq.*

2. Mustaqil ma'noli so'zlardan tuzilgan takror fe'llar: a) ot+la+ot-la: *sonlab-sonlab, olqinlab-olqinlab, en-lab-enlab tirnoqlab-tirnoqlab, umidlanib-umidlanib, bol-lana-bollana, ko'ppaklab-ko'ppaklab;*

b) ot-lab+ot-lab: *qahrlanib-qahrlanib, sinchlab-sin-chlab, ko'llab-ko'llab;*

d) fe'l-la+fe'l-la: *silkila-silkila, yulqila-yulqila;*

e) sifat+sifat-la: *omon-omonlab, pokiza-pokizalab;*

f) sifat-la+sifat-la: *nobudlab-nobudlab, panalat-ib-panalatib*;

g) ravish+ravish-la: *ko'ndalanglab-ko'ndalanglab, ravon-ravonlab va h.k.*

XULOSA. Umuman, asardagi -la, -lan, -lash affiksi muallif nutqi neologizmlari tuzilishi va ma'no ifodasi, ya'ni struktur-semantikasiga ko'ra turlicha. Mazkur affiksli so'zlar tarkiban sodda, murakkab (qo'shma, juft, takror) ko'rinishlarda bo'lib, ma'no ifodasiga ko'ra shaxs yoki narsaning o'rin, tomonga bo'lgan harakati (*do'konlamoq, tashqarilamoq, dalalamoq, ko'chalamoq, qishloqlamoq*), predmetni asosdan anglashilgan narsa bilan ta'minlash (*tomlamoq, egatlamoq, siqimlamoq*), shaxs

yoki narsani asos bildirgan holatga olish (*tirsaklamoq, changallamoq, boshimlamoq*), asbob-qurol, texnika vositasi bilan ma'lum obyektga bo'ladigan ishni amalga oshirish (*dilnavozlamoq, olqinlamoq, doriqog'ozlamoq*), asosdan anglashilgan harakat-holatga bo'lish (*pokizalamoq, muloyimlamoq, forig'lamoq, alohidalamoq*), asosdan anglashilgan narsa, holat va shu kabilarning yuz berishi, unda shunday narsa, holatning paydo bo'lishi (*shafaqlanmoq, nazarlanmoq, hayronlanmoq, manqalanmoq, hazarlanmoq*), asosdan anglashilgan narsa, ish-harakatni bajarish (*omon-esonlashmoq, xayr-xo'shlashmoq, mashvaratlashmoq*) va h.k. ma'nodagi fe'llar yasaganligiga guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asadov T. Mardonova S. O'zbek tilida faol so'z yasaliishi va muallif neologizmlari. Monografiya. Globe. 2021.
2. Хожиев А. Хозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Т.:Ўқитувчи, 1979.
3. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Т.: Ўқитувчи, 2007.
4. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни. Илмий тўплам. –Т.: Университет, 2002, 20-23-б.
5. Мирзаев И. Лингвопоэтик таҳлил–ижодий тафаккур соҳибини тайёрлашнинг бирламчи омили эканлиги ҳақида. Илмий тўплам 3-том. –Т.: ЎзМУ нашри, 2006, 81-83-б.
6. Неъматов Х. Сўз яшаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 1-сон, 14-18-б.
7. Қосимова М.Б. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида). НДА. – Т., 2007.
8. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –Т.: Fan va texnologiyalar, 2010.
9. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009.
10. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. Ғ.Абдурахмонов таҳрири остида. –Т.: Фан, 1975.

Mardon RAHMATOV,

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti dotsenti, f.f.n.*

SHE'RIY JUMLA PREDIKATI VA PREDIKATIVLIK MUAMMOSI

Filologik tadqiqotlarda g'azal strukturasi haqida fikr yuritilganda, birinchi navbatda, uning ichki tuzilishiga e'tibor qaratiladi va g'azallar baytlardan, baytlar esa misralardan iborat bo'lishi aytiladi. Adabiyotshunoslikka doir kitoblarda g'azal 3-4 baytdan 19 baytgacha (lekin ayrim tadqiqotchilar uning adabiyot tarixida 24 baytgacha) bo'lishi aytiladi. G'azal tarkibidagi har bir bayt o'zining nisbiy mustaqilligiga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi¹. Shunga ko'ra ular yaxlit holda mazmuniy butunlikka ega bo'lgan va shoirning ma'lum g'oyasini olg'a surishga xizmat qilgan.

Nasriy asarlardan farqli holda she'riy asarlarda o'ziga xos o'lchov, ritmik-intonatsion tizim, poetik me'yorlar mavjud bo'lib, ular chegaralanmagan ma'noni chegaralangan struktura (bayt/misra)da ifodalashni shart qilib qo'yadi. Bu tamoyilga ko'ra bir bayt ikki mustaqil motiv (she'riy asarda poetik obrazlar orqali lirik qahramonning turfa o'y-fikrlarini lo'nda va ta'sirli ifodalash - R.M.) dan va mustaqil sintaktik ifodadan iborat bo'lishi lozim.

She'riy bayt shaklan tugal, mazmunan mustaqil bo'lsa, uning ta'sirchanligi, samarasi yuqori bo'ladi va, o'z navbatida, unda ifodalangan mazmunni anglash ham osonlashadi.² Tarixan g'azal baytlariga qo'yilgan mazkur talab keyingi davrlarda buzila boshlagan va bayt/misra tarkibida turli tuzilishga ega bo'lgan gap, gap qoliplari va gap shaklidagi sintaktik qurilmalar qo'llana boshlagan.

Keyingi yillarda o'zbek tilining tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda til faktlariga yaxlit sistema sifatida qaralmoqda. Buning natijasida o'zbek tilshunosligida til faktlariga turli rakurslarda qarash va tadqiq qilish, uning mohiyatiga yanada chuqurroq kirib borish imkoniyatini yaratmoqda va o'zbek tilshunosligida formal-semantik va formal-funksional yo'nalishlarining shakllanishiga va gurkirab rivojlanishiga olib keldi. Ushbu yo'nalishlarning ustuvorligi, asosan, mazmunga qaratilganligidadir, ya'ni formal-semantik yo'nalish tarafdorlari shakl va mazmun munosabatiga jiddiy e'tibor qaratga, formal-funksional

yo'nalish vakillari diqqatini ko'proq lingvistik birliklarning shakl va vazifasiga jalb qilib kelmoqda.³ O'ylaymizki, poetik asarlar sintaksisini o'rganishda ham mazkur ikki yo'nalishning erishgan ilg'or yutuqlariga tayanib ish ko'rish hamda shoirning so'z tanlash mahorati va ulardan mohirona foydalanganlik darajasini belgilashni nazarda tutuvchi tahlillar tadqiqot ishidan ko'zlangan natijalarni beradi.

Nazariy adabiyotlarda gap semantikasi haqida fikr borganda uning til va nutq dioxotomiya (ikki a'zo) sidan kelib chiqqan holda farqlash lozimligi aytiladi. Gap til birligi sifatida faqat nominativ, ya'ni denotativ va signifikativ mazmunni, nutq birligi sifatida unda so'zlovchining kommunikativ niyati, maqsadini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, har qanday gap ob'ektiv voqeyilikning alohida uzvi, vaziyatlarining nomlaridir. U lingvistik adabiyotlarda propozitsiya nomi bilan (yoki propozitiv nominatsiya) ham yuritiladi. Propozitsiyalar (sintaktik birliklar)ning kommunikativlikni ifodalay olish-olmasligi, ya'ni gap va gap bo'lmagan birliklarga ajratilishi bevosita predikatlarining qanday shakllanganligiga, predikativlik belgilarga egaligi yoki, aksincha, predikativlik belgilarga ega emasligiga, bog'liq.⁴

Gap bir butunlik sifatida so'z va so'z birikmalardan tashkil topar ekan, ular muayyan gap mazmunini anglatishda shu vazifaga muvofiq grammatik shakllangan mustaqil so'zlar bilan ifodalanadi. Alohida so'z borliqda alohida narsa va hodisalarni, belgi va xususiyatlarni, harakat va holatlarni nomlasa, bu so'z gap vazifasida kelganda esa, avvalo, so'zlovchining kommunikativ niyatini: darak, tasdiq ma'nolarini ifodalaydi. Ikkinchidan, bu kabi sintaktik nominatsiyalar grammatik jihatdan shakllanishiga ko'ra ham farqlanishi mumkin. Bundan anglashiladiki, sintaktik nominatsiyaning hammasi ham kommunikativ niyatni ifodalay bermaydi. Shuning uchun ham sintaktik nominatsiya ham o'z ichida kommunikativ niyatni o'zida aks ettiradigan sintaktik nominatsiyalar va kommunikativ niyatni o'zida aks ettirmaydigan sintaktik nominatsiyalarga bo'linadi.⁵ A.Nurmonovning ta'kidlashicha, har qanday gap semantikasida propozitiv ma'no bilan birga so'zlovchining kommunikativ niyati va modallik aks etgan bo'lishi lozim, ya'ni propozitsiyalar real gapning mazmun planiga o'tish uchun yana ikki tuzilishni: kommunikativ va modal tuzilishni qo'shish kerak bo'ladi.⁶

Tilshunoslik ilmidan muayyan bir gap maqomini belgilashda predikatning o'zni muhim sanaladi. Lingvistik adabiyotlarda predikat semantik, mantiqiy va grammatik tushuncha ekanligi ta'kidlanadi.⁷ Semantik tushuncha sifatida predikat har qanday sintaktik qurilmaning nominativ asosi (propozitsiyasi)dir. Grammatik tushuncha sifatida predikat o'zi boshqarib kelayotgan sintaktik elementlarning markazi, mantiqiy tushuncha sifatida fikrning sub'ekt belgisini bildiruvchi qismi sanaladi.

Predikat predikativlik bilan uzviy bog'liqdir. Har qanday predikativlik predikat asosida shakllanadi, ya'ni gap predikativlik belgilari (modallik, shaxs, zamon, mayl)ga ega bo'ladi va predikatning o'zi eng kichik gap sanaladi.⁸ Demak, gapning semantik va grammatik

asosi predikativlik bo'lib, uni tashuvchi asosiy element kesimdir. Formal-funksional yo'nalish vakillari ishlarida ham zamon, modallik, shaxs-son kategoriyalari fe'ning morfologik kategoriyasi sifatida emas, balki, kesimlik kategoriyasi ekanligi va ushbu kategoriyalar mazmuni kesim pozitsiyasida keluvchi barcha so'z shakllarida mavjud bo'lishi aytiladi.⁹

Alisher Navoiy g'azallarida predikativlik belilari bilan to'la shakllantirilgan *-b/p (-ib/ip)* ravishdosh shakli gapning markaziy bo'lagi sifatida qo'llanishi bilan bog'liq quyidagilarni qayd etishni o'rinli:

1. *-b/p (-ib/ip)* ravishdoshi shaklan tushlangan – predikativlik belgilari bilan qo'llanadi:

Pariyashim qora bo'rkinki, bir yon egri qilibdur,
Magarki sham'i jamoli fatilasi egilibdur. (G'S 146)

Ul oyki, jafon nardini xo'blardin o'tuptur,
Yo rab, ne balo, mehru vafoni unuptur.

(G'S 175)

Odatda, ravishdoshlar tushlanganda maxsus grammatik shakllarga ega bo'ladi: *egri qilibdur, egilibdur; utuptur, unuptur* kabi. Bu g'azallar strukturasi ham faol qo'llangan.

2. *-b/p (-ib/ip)* ravishdoshi shaklan tushlanmagan, ammo yashirin predikativlik belgilariga ega mustaqil sodda gap.

G'azallar matnida asosi ravishdoshdan iborat fe' kesimlar predikativlik belgilarisiz qo'llanishi ham tez-tez kuzatiladi. Demak, ular shaklan fe'ning ravishdosh shakli, aslida esa yashirin predikativlikka ega bo'lgan sof fe'ldir. O'z-o'zidan bunday predkatlar ham gapning to'laqonli markaziy bo'lagi bo'lib, bunday predikatlarining tuslovchi qismlari (predikativlik shakllari) she'riy ritm talabi bilan ellipsiyaga uchraydi va poetik tusga kiradi. Klassik she'rlarga xos bo'lgan bu poetik til hodisasi aksariyat g'azalxonlarni chalg'itadi, chunki bunday qo'llanish hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lmagani uchun zamonaviy o'quvchi uni amaldagi ravishdosh shakliga qiyoslaydi va uni shunday anglashga harakat qiladi. Buning natijasida she'riy jumla, bayt mazmuni g'alizlashadi, she'riy jumla tushunarsiz bo'lib qoladi.

She'riy matnda jumla predikatining predikativlik belgilarisiz qo'llanishi alohida e'tiborni, maxsus til bilimlarini va qo'shimcha izohni talab qiladigan she'riy til hodisasi sanaladi. She'riy jumlaning uyushtiruvchi markazi sifatida qo'llangan fe'l kesim (ravishdosh)larning belgisiz tushlanishi ko'proq birinchi va ikkinchi shaxslarda kuzatiladi. Biz bunga hozirgi o'zbek tilining grammatik qoidalaridan kelib chiqib emas balki, tilga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashib, shoirning poetik mahorati va imkoniyatlaridan kelib chiqib o'rgansak, masalaning mohiyati yanada oydinlashadi.

Dastlab, turkiy tillar tarixida (turkiy-o'zbek yozma manbalarida) fe'ning ravishdosh shakllari to'g'ridan to'g'ri o'zida predikativlikni aks ettirmagan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, keyinchalik tarixiy manbalarda fe'l shakllari, xususan, ravishdosh shakllari kommunikativlikni ifodalovchi tasdiq-inkorlik, zamon,

shax-son, modal ma'nolarni ifodalash uchun maxsus so'zlardan foydalanishgan. Jumladan, *turur//durur* (hozirgi o'zbek adabiy tilidagi *turmoq* holat fe'li) holat fe'llari va shax-son ma'nosini ifodalash uchun kishilik olmoshlaridan ko'chgan *men, sen, ol, biz/miz, siz* kabi so'zlardan foydalanilgan: *Men barıyb dur(ur) men, Sen barıb dur(ur) sen, Ol barıyb dur(ur) (ol)* (Keyingi taraqqiyoti: *Men barıybmen, Sen barıybsen, Ol barıybdur (durur)* kabi).

Alisher Navoiy g'azallari bayonida yuqoridagi kabi predikativ ifodalar ko'plab uchraydi. Shoir tilning ayni shu xususiyatidan unumli foydalangan holda hokim-to-belikka asoslangan turli tuman gap qurilmalarini shakllantirgan. Tahlillarni kesimlik shakllari ellipsiyaga uchragan propozitsiyalar tahlili bilan boshlasak (Keyingi o'rinlarda jumla predikativlik belgilari – kesimlik shakllari/tuslovchilari – qavs ichida berib boriladi):

Ul oy qasdima tiyg'i burron chekib (durur),
Men ollida shukronag'a jon chekib (men).
(G'S 65)

Misollardan ko'rinib turibdiki, g'azal matnida *durur//dur//turur/tur* kesimlik shakli asosan birinchi va uchinchi shaxsning belgisiz tuslovchisi sifatida qo'llangan. Ellipsiyaga uchragan kesimlik shakllari oqali ifodalangan shaxs ma'nosi gap tarkibidagi boshqa sintaktik shakllar ma'nosidan oydinlashadi. She'riyat tiliga xos bu hodisa ko'proq *-ib* ravishdoshi ishtiroki bilan hosil qilingan qofiyadosh so'zlar, mustaqil qo'llangan radiflarda, ya'ni matla baytlarning intonatsion kuchli pozitsiyasi (misraning aruz va ajuz qismlari)da keng qo'llanganligi kuzatiladi. Buni, albatta, g'azal ritmi talabi bilan yuzaga kelishini alohida ta'kidlash o'rinli:

Chobukum raxsh uza hijron yo'lida po'ya qilib(durur/dur),
Men aning keynicha gohye yugurub(men), gah yiqilib(men).
(G'S 66)

Belgisiz tustlangan ravishdoshlar g'azal bayt/misralarining boshqa qismlarida, jumladan, baytning bosh qismida (sadr va ibtido) ham qo'llanganligi kuzatildi. Quyidagi baytda fe'l baytning birinchi misrasi bosh qismida qo'llangan. Bunday qurilma predikativni maxsus:

Jon yetib(tur) og'zimg'a topmon dardi hijrondin xalos,
Jonni hijrondin xalos et yo meni jondin xalos.
(G'S 273)

G'azallar matnidagi *-ib* ravishdosh shaklli so'zlarni ravishdoshlarga xos holat yoki payt ma'nosini tashuvchi grammatik shakl sifatida qabul qilinsa, uslubiy g'alizlik paydo bo'ladi, shoirming gapdan ko'zlangan maqsad amalga oshmay qoladi, bu esa, o'z navbatida, gapning sintaktik qurilishi hamda kommunikativ sintaksis tahlillari bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. Shuning uchun

yuqoridagi baytning birinchi misrasini *Hijron dardidan xalos bo'la olmadim, shuning uchun jonim og'zimg'a yetdi (yetibdur)* tarzida tushinilishi lozim. Demak, mazkur she'riy matndagi *jon yetib* fe'li ravishdosh shakli sifatida emas, balki tustlangan uchinchi shaxs shaklidagi sof fe'l sanaladi. Shuning uchun mazkur baytning birinchi misrasi ikkita mustaqil jumladan tashkil topgan, deyishga asos bo'ladi.

Fe'lining yashirin (elliptik) kesimlik shakliga ega bo'lgan ravishdosh shakllari ba'zan bayt misralarining o'rtasida (hashv) qo'llanganligi ham kuzatiladi:

Ey zotinga har necha qilib(dur) aql tafakkur,
Ul fikrga bo'lmay samare g'ayri tahayyur.(G'S 132)

Ya'ni: *Qanday yaxshi, talab qiluvchi (tolib) o'zini sening visolingga etishni talab qilibdi va (u) habib o'zining senga bo'lgan cheksiz muhabbatidan otingni mahbub deb atabdi.*

Ey hamd o'lub(dur) mahol fasohat bilan sanga,
Andoqi, qurb taqvovu toat bilan sanga. (G'S 4)

Alisher Navoiyning nasriy asarlarda *chun* bog'lovchili gaplarning kesimi – predikativlik belgilari bilan qo'llangan¹⁰. Lirik asarlarda esa *chun* bog'lovchili gap (predikativ qurilma) shaklan predikativlik belgilariga ega bo'lmaydi, ammo uning asl xususiyatiga ko'ra yashirin predikativlikka ega gaplar sifatida qabul qilinadi. G'azallar matnida *chun* bog'lovchisi *-b (-ib)* ravishdosh shakllari bilan qo'llangan o'rinlar uchraydi. Bunday propozitsiyalarning kesimlik shakli o'tgan zamon, aniqlik maylidagi uchinchi shaxsdan iborat: ularni *(-ib)durud/dur* shakli orqali anglash kerak bo'ladi.

Chun o'tub (dur) ishq ahlidin oshubi sabru fahm o'lub (dur),
Chun yetib (dur) zuhd ahlig'a toroji aqlu din solib (dur).
El sarikim yuzlanib(dur) qindin chiqarib tiyg'i kin,
Chun manga markab surub (dur) boshimg'a tiyg'i kin solib.(G'S 54.)

Shuningdek, ot kesimli gaplarda ham keismlik shakllarining yashirin qo'llanishi ham kuzatiladi. She'riy asarlarda uchinchi shaxs ot kesimlarning grammatik jihatdan to'liq shakllantirilmaganligi ham ularning qaysi gap bo'lagiga xosligini aniqlashda ma'lum darajada qiynliklar tug'iladi:

Topmoq ajib(dur) fikru tahayyul bila seni,
yetmak mahol(dur) aqlu farosat bilan sanga.(G'S 4)

Shuningdek, g'azal strukturasida sodda gaplarning kommunikativlikka munosabati, ularning sintaktik-semantik xususiyatlarini o'rganish davomida yaxlit sintaktik qurilma sifatida shakllangan bayt/misralar e'tiborni o'ziga tortadi. Bu murojaat ma'nosiga ega bo'lgan deskriptiv qurilmalardir. Bunday qurilmalar ko'proq

g'azallarning birinchi bayti – husni matla'da uchraydi. Ularning asosan ikki turini farqlash mumkin:

A) To'liq baytga yoki uning tarkibidagi bir misraga teng keluvchi deskriptiv murojaat shakllari. Bunday deskriptiv qurilmalarni sodda gap ko'rinishiga ega bo'lib, yaxlit holda murojaat ma'nosini ifodalaydi. Bu turdagi murojaat shakllari, aksariyat hollarda, «ey» undov so'zi bilan qo'llangan:

Ey meni sargashtadin gah forig'u gohi malul,
Qahring ul, lutfung bu, yorabkim, ne odatdur sanga?
(G'S 17)

Ma'lum bo'ladiki, bayt tarkibidagi misralar sintaktik-semantik jihatdan yaxlit qurilmalardan iborat: ular baytga qo'yiladigan talablarga to'liq mufoviq keladi. Birinchi misra murojaat shakli yaxlit qurilma sanaladi, u sodda gap ko'rinishida (ya'ni sodda gapga transformatsiyalangan). Mazkur murojaat shaklida gapga xos predikativlik belgilari to'liq shakllangan forig' aylagan, malul aylagan: Ya'ni – Sen meni sargashtalikdan goh forig', goh malul (g'amgin) aylagansan.

Bu qurilmani ikkilamchi propositsiya bilan ham ifodalash mumkin: Ya'ni – Ey meni sargashtalikdan goh forig', goh malul (g'amgin) aylagan yor!. Bunda ey murojaat shakli (ya'ni yor, yorning mehri va qahriga uchragan oshiqning murojaati – Davlatov O.¹¹)ning ma'nosi baytning birinchi misrasi mazmuni bilan hamohang.

Quyidagi baytda qo'llangan qurilmalarni ham deskriptiv murojaat shakllarining yana bir turi sifatida qarash mumkin. Unda «ey» undovi ma'nosi bilan birga anglashiladigan, nutq qaratilgan, shaxs (ob'ekt) ma'nosi ochiq bayon qilinmagan. Uning ma'nosi deskriptiv murojaat shakliga kiritilgani uni turlicha talqin qilish va sharhlash mumkin. Shorihga ko'ra misrada yorning "gulbargi tari" labidan chiqayotgan so'zlardan oshiqning ruhi tozarib, poklanib oladi. Bu so'zlar ilohiy kalom, payg'ambarimiz hadislar, pir – komil inson talqin qilgan hikmatlar, yoxud yorning so'zi bo'lishi mumkin¹²:

Ey munga jonbaxsh gulbargi taringdin toza ruh,
Toza-toza har biri shavqin solib (tur) ovoza ruh.
(G'S 106)

B) G'azallari matnida qo'llangan ey (eyki, eykim) murojaat shaklining jumla struktura elementlari bilan aloqasini saqlab qolgan elleptik qurilmalar ham asosan sodda gap qolipida bo'ladi

Bunday qurilmalarda ey undalmasi gap lisoniy strukturasiga bevosita daxldor bo'lmasa-da, gap tarkibidagi ifodalangan yoki ifodalanmagan ikkinchi shaxs kishilik olmoshi bo'lgan so'zshakl ma'nosini muayyanlashtiruvchi unsur sifatida reallashadi.

Ey, dudog'ing sharbatida obi hayvon lazzati,
Lazzate bo'lg'ay, nasibim bo'lsa la'ling sharbati.
(G'S 594)

Mazkur baytning birinchi misrasida ham mustaqil propositsiya ifodalangan bo'lib, u gapga teng, ya'ni murojaat shaklining gapga xos belgilari yashirin tarzda qo'llangan. Mazkur murojaat mazmunidagi qurilmani Ey, sening dudog'ing sharbatida obi hayvon lazzati bordir, balki u shunday bir lazzatdirki, la'ling sharbati nasibim bo'lsa, tarzida anglash lozim bo'ladi.

Anglashiladiki, mazkur bayt misralari mazmuni ham yor haqida, yor tasviri haqida. Ey undov so'zi undalma sifatida olohnning sifati bilan bog'liq. Ko'rinadiki, g'azallar matnida qo'llangan bunday nominativ qurilmalar yaxlit holda ey murojaat shaklining ma'nosini muayyanlashtirish uchun qo'llangan. Ularning zamirida yor obrazi yashirin bo'lgani uchun ularga tasviriy ifoda sifatida ham qarash mumkin. Zero, Olohnning sifatlari bilan zikr qilish, uni eslash va unga murojaat qilish klassik she'riyatning asosiy mezonlari sanalgan.

Bu turdagi nominalashgan birliklarga nisbatan nutqiy to'liqsiz gaplar sifatida qarash o'rinli. Gapda bog'lama va boshqa grammatik shakllar qisqarishi, ya'ni ellipsiyaga uchrab ularni murakkab ifodaga aylantirishi mumkin.¹³

1. Курунов Д. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Akademnashr, 2010. 385-b.
2. Жўраева Н.Г. Ўзбек мумтоз шеърларида байт ва унинг поэтикаси. Филол.фан.номз...диссер. –Т., 2004. 10-13-b.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.221.
4. 1. Ахматов Х. Полипредикативные конструкции с субъектными оборотами в тюркских языках. //Советская тюркология. –Баку: 1988. №2. с.24-31. 2. Черемисина М., Колосова Т. Очерки по теории сложного предложения. Н.: Наука. 1987. с. 82. 3. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари.: Филол.фан. докт. ...дис. –Т., 1990. 291-б. 4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент, Фан. 1992. 71-б.
5. Усмонова Ҳ. Ўзбек тилидаги гап бўлакларининг позицион тадқиқи. Филол.фан. докт. ...дис. –Т., 2007. 58-59-б.
6. Нурмонов А. Танланган асарлар III Ж. –Тошкент, Akademnashr. 2012.238бб.
7. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т., Фан. 1992. 44-б.
8. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Т., Ўқитувчи. 44-45-б.
9. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI-XII вв. –Т., Фан. 1976. с.80.
10. Бу ҳақда қаранг. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида эргаширувчи боғловчи гапларнинг синтактик-семантик хусусиятлари. Филол.ф.номз. ...дисс. –Тошкент. 2008. 32-72-б.
11. Давлатов О. Маънолар хазинаси. Ж.1. –Тошкент: Tamaddun, 2021. 109-113-б.
12. Давлатов О.Маънолар хазинаси. Ж.1. –Тошкент: Tamaddun, 2021. -26 б.
13. Бу ҳақда қаранг. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. -Тошкент, Фан. 1986. -310 б.

Bunyod ERGASHOV,
Shahrisabz davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

NEMIS TILINI O'QITISHDA TALABANING KOMMUNIKATIV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ushbu ishning maqsadi hozirgi bosqichda nemis tilini o'qitish tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning rolini ko'rsatishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- nemis tili fanining asosiy didaktik vazifalari, maqsadlari, vazifalari, zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini ochib berish;
- chet tilini yaxshiroq o'zlashtirish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanganda talaba qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkinligini ko'rib chiqish;
- nemis tilini o'rganishda qo'llaniladigan bir qator texnologiyalarni tahlil qilish.

O'quv loyihasi

1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;

2) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi

Tadqiqot usullari - o'quv materiallarini tahlil qilish, chet tilini o'qitishga qaratilgan kompyuter dasturlarini tahlil qilish, nemis o'qituvchilari tajribasi bilan tanishish.

Hozirgi bosqichda allaqachon shakllangan usullar va texnologiyalar mavjud:

- darajani farqlash texnologiyasi
- o'yin texnologiyasi
- stansiya mashg'ulotlari
- multimedia texnologiyalari
- holat texnologiyasi
- loyiha usuli
- Onlayn trening
- salomatlikni tejaydigan texnologiyalar

- interaktiv ta'lim texnologiyasi
- hamkorlikda o'qitish
- texnologiyalarni ishlab chiqish

Ushbu loyiha usulidan treningning dastlabki bosqichidan foydalanish yaxshi natija beradi:

barcha loyihalar darsda vizual va didaktik material sifatida qo'llaniladi;

- ularning madaniyat darajasi oshadi;
- fanlararo aloqalar o'rnatiladi;
- shaxsning o'ziga bo'lgan hurmatini oshirish;
- talabalar bilim olishni o'rganadilar;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalari bo'yicha tajriba orttirish;

bolalar tilni bilish chegaralarini kengaytiradilar, undan amaliy foydalanish tajribasiga ega bo'ladilar.

Loyiha ishi talabani o'rganilayotgan tildan haqiqiy foydalanish holatiga qo'yadi, o'z faoliyatida chet tilini o'rganishning maqsadlari va imkoniyatlaridan xabardor bo'lishga yordam beradi va samarali ijodiy faoliyatda chet tillarini o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi. Muayyan mavzu ustida ishlash jarayonida talabalar kollej, loyiha shaklida ijodiy ishlarni bajaradilar. Talabalar ish turini o'zlari tanlaydilar, bu jamoaviy loyiha yoki individual loyiha bo'lishi mumkin, bu erda talabalar bir mavzu doirasida turli xil ijodiy vazifalarni bajaradilar.

Afzalliklari:

- bola o'z shaxsiy rejasi bo'yicha va o'z tezligida ishlaydi;
- vazifalar turli darajadagi murakkablikka ega;
- stansiyalarda talabaga nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish imkonini beruvchi material mavjud;
- barcha stansiyalardagi topshiriqlar o'zining ijtimoiy shakllari va o'quv materiallari bilan ishlashda har xil bo'lishi kerak;
- o'z-o'zini nazorat qilish, mas'uliyat hissini rivojlantiradi;
- ta'lim va ijtimoiy shakllarning doimiy o'zgarishi dam olishga olib keladi, charchoqdan sug'urta qiladi;
- o'qituvchi nazoratchi emas, balki yordamchi va koordinatordir.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Selevko G. Pedagogicheskie tekhnologii na osnove didakticheskogo i metodicheskogo usoversh yensstvovaniya UVP (uchebnoe posobiya). - M. 2005 g.
2. Pedagogicheskie tekhnologii / Pod. red. Kukush ina V. S. (uchebnoe posobiya). - M.: 2006 g.
3. Podlasiy I. P. Pyedagogika V 2 kn. - M., 2003 g.
4. Kaldibekova A.S., Xodjaev V.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari - T., 2006 u.
5. Ishmuhammedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o'zbek va rus tillarida). - T., 2004 u.
6. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. - T., 2005 y.
7. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. - T.: 2005 u.
8. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar - T., 2003 y. 199 bet
9. N.N. A zizxo'jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg' armasi nashriyoti Toshkent 2006
10. Sh.S.Shodmonova va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar. -T: "Fan va texnologiya", Toshkent 2011

Omonulla BAYJITOV,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Mustaqil tadqiqotchi*

LINGVOKULTUROLOGIK FRAZEOLIGIZMLARNING ASSOTSIIATIV TALQINI

Insonning o'z ona tiliga yaqinlik tuyg'usi har bir til-da obrazli tafakkurning takrorlanmas assotsiyalarning mavjudligi bilan tushuntiriladi. Ular har bir so'zning o'ziga xos semantik to'liqligiga – madaniy mazmunga ega bo'lishi kerak. Ular til tizimida mustahkamlanadi va uning o'ziga xosligini tashkil etadi.

Inson kognitiv ong ostida lisoniy zaxira sifatida saqlanuvchi hamda muayyan bir nutqiy vaziyatga nisbatan munosabatini jonli, ta'sirli va emotsional-yekspressiv ifodalash uchun xizmat qiluvchi frazeologik birliklar ham etnoslarga ko'ra farqlanadi va turlicha assotsiialanadi. Bu esa etnoslarning o'ziga xos madaniy xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qiladi. O'zbek xalqining milliy-madaniy xarakter – xususiyatlari, jumladan, qiziqqonlik, hozirjavoblik, duogo'ylik, shukronalik, minnatdorchilik va boshqalarning nutqiy vaziyatda favqulotda ifodalanish ehtiyoji bir qator verbal va noverbal vositalarning kommunikatsiya jarayonida voqyealanishiga sabab bo'ladi. Ularning semantik dunyosini ta'riflashda, tasvirlashda qanday madaniy mohiyat asosida va qanday til vositalari orqali xoslanganligini, til tizimida ularning muhrlanganlik darajasini aniqlash lingvokulturologik tahlilni talab qiladi.

Lingvokulturologiya borasida salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan V.A.Maslovaning ta'kidlanishicha, frazeologizmlar to'g'ridan-to'g'ri yoki assotsiativ tarzda u yoki bu xalqning dunyo, jamiyat haqidagi axborotlarni madaniy-milliy prizma orqali yetkazadi, shu xalq dunyoqarashining xarakterli xususiyatlarini ko'rsatadi, ayni paytda, uning dunyoqarashini ham belgilaydi [1]. Shuning uchun ham biror xalqning tilini yaxshiroq bilish uchun uning madaniyati va millatini o'rganmoq lozim.

Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari ularning ekstralingvistik omillaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ekstralingvistik omillar deganda, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy shart-sharoitlar, funksional va tilning ichki strukturaviy rivojlanishi sharoitlari, frazeologik birliklarning rivojlanishi va hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'ladigan, ularning milliy xarakterini ko'rsatib

berishga sabab bo'ladigan omillar yig'indisi tushuniladi. Lingvokulturologik yondashuvga ko'ra frazeologizmlar milliy madaniyat, milliy mentalitet, milliy qadriyat xususiyatlarini aks ettiruvchi til qatlamidir.

Zamonaviy lingvokulturologik tahlil, til va madaniyatning tarixan hamda hozirgi kundagi bir birlariga bo'lgan ta'sir doirasini, til yordamida madaniy ma'lumotlarni qanday saqlab qolish ko'lamini o'rganuvchi tilshunoslikning maxsus yonalishi sifatida shakllanmoqda. Darhaqiqat, har bir til nafaqat odamlar o'rtasidagi aloqa vositasi, balkim milliy-madaniy ma'lumotlarni asrlar osha o'zida jo qilib, avlodlardan avlodga yetkazib beruvchi benazir vosita hamdir.

Lingvokulturologik tahlil orqali turg'un so'z birikmalarida saqlanib qolgan noodat yashirin holatdagi madaniy unsurlar ochilishi, kuzatilishi, yoritilishi mumkin. Darvoqe, frazemalar semantikasi ham boshqa bir qator etnomadaniy tekstlar qatorida faqat maxsus tahlil orqali ulardagi madaniy ma'nolar aniqlanishi mumkin, chunki frazemalarning ichki ma'nosini yuzaga kelishida, shakllanishida madaniy, milliy obrazlarni asos bo'lishi isbot talab etilmaydigan hodisa.

Frazemalarning lingvomadaniy tabiatini chuqur o'rgangan Rossiyalik taniqli tilshunos V.N.Teliya frazemalardagi milliy madaniy informatsiyaning qay chog'li ahamiyatli ekanligiga alohida e'tibor qaratadi[2].

Lingvokulturologiyani zamonaviy kognitiv lingvistikadan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas. Tushunchalar dunyosi va ularni inson ongida qayta ishlanishi ularni til shaklida namoyon bo'lishi va bilish sifatida saqlanib qolishi lingvokulturologiya uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

O'zbek tili frazemalarining milliy-madaniy o'ziga xosligi, birinchidan, o'zbeklarning lingvokreativ tafakkur yuritish xususiyati bilan, ikkinchidan, idrok etilayotgan dunyoni etnolingvistik tomondan o'ziga xos interpretatsiya qilinishi darajasi bilan, uchinchidan, ongimizdagi mavjud hayotiy zarur obektlarning mazmun-mohiyati, maqomi ahamiyatligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mahnudov N., Odilov Y. So'z ma'no taraqqiyotida ziddiyat. O'zbek tili enantosemik so'zlarning izohli lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2014
2. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskiy pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekt. – M.: Yazuki russkoy kultur, 1996. – 284 s

Mehriniso CHORIYEVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ABDURAHMON TAMKIN BUXORIY TARJIMAI HOLI VA IJODI XUSUSIDA

Buxoroning asl farzandlaridan biri Abdurahmon Tamkin Buxoriy XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sermahsul ijod namoyondasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan edi. Bu haqda zamonasining ma'rifatparvar olimi Ahmad Donish Tamkinni ulug' shoirlar qatorida sanab, uning ijodiga yuqori baho bergan: "Biljumla dar on zamone ki mo budem, bozori fazlu hunar naroiyu kasod bud. Shohin, Muztarib va Tamkin az shuaro muqaddami on zamon budand"¹.

Tamkin ijodini o'rganish uchun quyidagi uch manbani nazardan o'tkazish lozim:

1) XIX asrda yaratilgan tazkiralalar;

2) Tamkinning o'z asarlari;

3) shogirdlari yozib qoldirgan xotiralar:

XIX asrda yashab o'tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Xoji Ne'matullo Muxtaram kabi tazkiranavislarning asarlarida buxorolik zullisonayn shoir Tamkin haqida mavhum ma'lumotlar, aniqrog'i, haqiqatni buzib ko'rsatuvchi noto'g'ri ma'lumotlar uchraydi, - deb yozadi tojik olimi Asqar Jon Fido.²

Darhaqiqat, ushbu tazkiralalar Tamkin haqida aniq ma'lumot bera olmaydi. Chunki o'zbek adabiyotida Tamkin ijodi hali o'rganilmagan, imkon qadar shu masalaga yechim berishga harakat qilamiz.

Ikkinchi manba – Tamkin asarlariga murojaat etsak, ularda shoir o'zi haqida ayrim ishoralar qilgan. Ana shu ishoralarni diqqat markazimizda saqlab, shoirning shogirdlari xotirasini varaqlasak o'xshashlik va yaqinlikni uchratamiz. Ushbu muvofiqlik tufayli shoirning hayoti va ijodi haqida aniqlikka erishish mumkin.

Abdurahmon Tamkinning hayoti va ijodi haqida aytilgan har xil fikrlarga chek qo'yishda shoirning shogirdi Ja'farovning³ xizmati katta bo'ldi.

Ja'farovning yozilmalarida: "Dar sanai 1905 melodi (barobari 1322 hijriy) baroi tahsili ulum ozimi Buxoro gardida ... dar hovli Hoji Maxdum sokin gardidam. Alassaboh bo Hoji Maxdum ba hovli domullo Abdurahmoni Tamkin raftem. Domullo bisyor odami xoksor va halim bud. Sinni sharifi eshon karib boi panjohu se rasida bud..."⁴, - degan fikrlar uchraydi. Bu ma'lumotdan shu narsa aniq bo'ladi, agar shoir 1905-yilda 53 yoshda bo'lsa, demak u 1851-1852-yillar atrofida Buxoro shahridagi Bo'yrafofi dahasida tavallud topgan. Otasi Mulla Abduxoliq degan kishi bo'lgan. Tamkinning umri Buxoroda o'tgan. U Buxoro madrasalarida tahsil olgan va ona-shahrida yashab, ilm o'rganganidan g'oyatda mamnun bo'lgan hamda tinch -osuda hayotini quyidagicha ifodalagan:

Bihisht joi tu, Tamkin chi joi reb dar o'

Ki monda bog'chaye yodgor az padar ast.

Tarjimai: Jannat joying sening Tamkin, eshiging jannat eshigi,

Shu joydagi bog' otangdan yodgordir.

Abdurahmon Tamkin yashagan Bo'yrafofon mahal-

lasi Buxoro shahridagi eng katta guzarlardan⁵ biri hisoblangan. Bu mahalla 1846- yilda tashkil topgan. Lekin unda guzar nomi Bo'riyobofon deyilib, u yerda Hoji Qurbon nomida machit ham bo'lgan. Bo'yrafofon mahallasi Besh kappa deb ham yuritilgan. Keyinchalik bu yerdagi xalq bo'yra to'qish bilan shug'ullangani uchun guzar ham shu nomda bo'lib ketgan.

Bo'yrafofon mahallasi katta bo'lib, aholisi ham ko'p bo'lgan. Ular turkcha so'zlashgan. Mahalla aholisi ikkiga bo'lingan: mahallaning janubiy tomonida xorazmlik o'zbeklar, shimoliy tomonida esa chorjo'ylik turkmanlar yashagan. Ular Shoh Murod buyrug'i bilan ko'chib kelishgan. Shoh Murod Xorazm xoni bilan urishib g'alaba qozongan va xorazmliklarning bir qismini shahar markaziga olib kelgan, lekin joy bo'lmagani, aholi zichligi uchun ularga ana shu yerdan joy bergan. Bir qism turkmanlar esa joy yo'qligidan Qorako'l tumaniga ketishgan. Xorazmlik va turkman Xidir – Ellinlar avval birgalikda yashashgan. Lekin amir Olimxon davrida har bir elat o'zining oqsoqolini tanlab, ikkiga bo'linishgan. Ikki guruh ham bo'yrafoflik kasbi bilan shug'ullangan. Guzarida ularning o'z bozorchalari ham bo'lgan. Shunihdek, mahalladagi anchagina aholi sobungarlik ham qilishgan. 1927-yilgi hisobotlarga ko'ra, guzarida 107 xo'jalik bo'lib, unda 420 kishi istiqomat qilgan. 1929-yili esa u qo'shni Chorbaqqoli darvozai Samarqand, Olim xo'ja guzarlari bilan birlashib Samarqand guzari deb nomlana boshlangan. Hozir bu guzar yana avvalgidek o'zining eski nomi – Bo'yrafofon nomini oldi⁶. Abdurahmon Tamkin Buxoriy ana shu mahallada butun umr yashab, ijod etib, xalqimizga go'zal asarlar va ibratli hayot yo'lini meros qilib qoldirdi. Tamkin Buxorodagi "Dorushshifo" madrasasida dars bergan. Shoir asarlaridan ma'lum bo'ladiki, mudarris bo'lganiga qadar imom bo'lgan va davlat ishlarida ishlagan. Bu haqda shoir o'zining "Mo'liston" asarining muqaddima qismida ishora qilib, aytadi: "Dar tarixi gurrai sha'boni muazzam sanai 1315 bud, ki hazrati Zillil olamin (Amir Abdulahad)ro dar oinai xotir chande uvari jam'iyati ahli fazlu kamol jilvapazir gardid, yake az on jumla bandai hejmadon hamagi sahvu nuqson ... muddate se moh kamyobii in davlati bekaroni farovon ba mehrubonii maliki mannon bo hama vusuli ne'mat va ehsoni kasir ba qatori sar karda va amoratpanohon muvojob va at'ima az noni ehsoni kasir bo shahdu shirini nomzad va maxsus megardid"⁷. "Mo'liston" asari 17 baytdan iborat, u Buxoro amiri Abdulahadxonga madhiya tarzida bitilgan bo'lib, qit'a janrida yozilgan.

Tamkinning yana bir madhiyasi Abdulahadxonga bag'ishlangan. U xonni – Chunin shohi diloso-yu dilorom⁸- deb ko'klarga ko'taradi. Bu asar 71 baytdan iborat bo'lib, "Ganji shoygon" ("Shohlar duri") deb nomlangan. U masnaviyda yozilgan, tarkibida uchta ruboiy ham uchraydi.

Tamkin 1898-1901yillarda Amir Abdulahad saroyida

eshikbonlik qiladi. Mana shu yillarda shoir barcha zulm va jaholatning sababchilari amirning tevarigidagi amir-u umarolar deb biladi. U amir Abdulahadni ularga ishonmaslikka, diyonatli bo'lishga chaqiradi:

Ashkam az mijgon ba ro'yam obro'yam rext – rext,
 Obro' barbod shud, durri nako'yam rext-rext⁹.
 (Ko'zlarimdan yoshlarim shashqator to'kildi,
 Obro'yim yakson bo'ldi, orzularim yerga to'kildi).

Amir Abdulahadning ham shoirga e'tibori kuchli edi. Biroq ba'zi g'alamislarning ig'vosi tufayli shoir asta-sekin amirning nazaridan qoladi. Shoir qanchalik marhamat kutmasin, amir u kutgan narsani ravo ko'rmaydi. Oxir oqibat Tamkindagi ishonch va iltijo o'rnini cheksiz nafrat egallab, saroydan uzoqlashadi. Uning saroy ahli-dan shunchalik ko'ngli qoladiki, hatto ular bilan duch kelib qolishni istamaydi. Bu istakni hatto "Mo'liston" asarida keltirilgan hikoyat orqali ham yaqqol ifodalagan.

Tamkinning bu nafrati haqqoniy va to'g'ri bo'lgan. "Navodiri Ziyoiya" asarining muallifi Sharifjon Maxdum ham Buxoroning nodon va belayoqat qozikaloni mulla Burhoniddin haqidagi Tamkin fikrlarini tasdiqlab buning to'g'riligini aytadi: "Mullo Burhoniddin valadi arshad Mullo Badriddin qozikaloni Buxoroi Sharif dar zamoni amir Abdulahad va amir Olimxon ba libosi qozikalon mulabbas ba masnadi shariat az judoyei mulabbas bud ... ba zammi qozikaloni bo in xari ba nodoni sharm nokarda, dars ham meguft va az hama g'aribtar ba duxtari yake az generalhoi rus oshiq shuda bo mahkama kashida shud..., ki in bar hamoqat va sifohatashon daleli mujassam ast".¹⁰

Mana shu fikrlardan aniq bo'ladiki, bir guruh riyokorlar Abdulahadxon atrofini zich o'rab olgan, ular ta'ma va ochko'zlik bilan xalqni aldab keladilar. Tamkin bu fitna-yu fasod va badkirdorlik qobig'iga o'ralib qolgan kimsalardan uzoqroq ketgani uchun Oллоhga shukrona o'qiydi:

Sinasofam zohiru botin maro yakson buvad
 Pust to mag' zam ba rangi naxlai rayhon buvad
 Shukr lillah shud xamiram xoli az tuxmi fasod
 In ham az lutfi amimi ezidi mannon buvad¹¹

Tamkinning bu gaplari uchun qozikalon mullo Burhoniddin uni mudarrislikdan ham bekor qildiradi. Bu voqeadan keyin Tamkin majburan uzlatni ixtiyor qildi.

Shoir "Jaroid" nomli asarining muqaddimasida hayotining bu davri (1914-yillar) haqida gapirib o'tadi.

Tamkinning adabiy merosi boy va sermahsuldir. U barcha janrlarda ijod qilgan. Chunonchi, qasida, g'azal, muxammas, qit'a, fard, chiston, muammo va hajv kabi janrlarda barakali ijod qilgan. Uning aksariyat asarlari tojik tilida yozilgan, biroq uning o'zbek va arab tillarida yozilgan ayrim she'rlari ham borki, bular Tamkin har uchala tilni ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Tamkindan juda boy adabiy meros qolgan. Bular: "Devoni qasoid-u g'azaliyot", "Ganji shoygon", "Ruboiyot", "Jaroid", "Mo'liston", "Matole' ul-foxira va matolib uz-zahira". Yana shoirning ayrim she'rlari o'sha davrda yaratilgan tazzkira va bayozlardan o'rin olgan. Shuningdek, "Tazkirat ush-shuaro" asarining muallifi Hoji Ne'matulloh Muhtaramning xabar berishicha, Tamkinning "Junaydi laoli" degan asari ham bo'lgan. Lekin bu kitob va u haqdagi aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Tamkin devoni 6764 misra bo'lib, shundan 356 misra-si qasida va 6408 misra-si g'azaldir. "Ruboiyot" asarida esa 488 ruboiy, 1468 mufradod, 7 chiston va 6 muammo bor. Shoirning "Jaroid" asari 1168 misra bo'lib, 305 qit'adan iborat. Bu asarning mavzusi pand-u nasihatdan iboratdir. Shoirning diqqat markazida muhim hayotiy masalalar turadi.

"Mo'liston" Sa'diyning "Guliston" iga payrov tarzida nazm-u nasrda bo'lib, maxsus boblarga bo'linmagan. Bu asar 4 qit'a va 76 hikoyatdan iborat. Qit'a va hikoyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, bir-birini to'ldirib boradi.

"Ma'ole'-ul-foxira va matolib – uz zohira" asari shoir umrining oxirgi yillarida yozilgan. Ushbu asar ham adabiy, ham tarixiy manba hisoblanadi. Tamkin biror bir shoir yoki olim haqida gapirar ekan, u yashagan sharoit haqida keng ma'lumot beradi. Bu asarda u Buxoro tarixi, me'morlik san'ati, madaniy yodgorliklari haqida keng to'xtaladi. Chunonchi, masjid, xonaqoh, ark, madrasalar va boshqa imoratlar haqida batafsil tasvir beradi.

Shuningdek, unda sayyoralarning harakati va ularning odamlarga ta'siri, tabiatning o'zgarishi, daryolardagi iqlim, nabotot olamining xususiyatlari haqidagi sharhlar-ni ham uchratish mumkin.

Tamkin 1915-yil dunyodan ko'z yumgan.

Demak, Tamkin Buxoriy ijodini xalqimizga yetkazish, bu ma'naviy buloqdan ularni bahramand etish, ajdodlar-ga ehtirom va avlodlar oldidagi burch sanaladi.

1. A.D. Daftari musavvada. Dastnavisi ganjinai dastnavishoi sharqii AF RSS O'z-n, tahti raqami 2779, var. 47.

2. A.J.Fido. Abdurahmon Tamkin. –Dushanbe 1974. –C. 3

3. Ja'farov Said binni Ja'far-ul-Hanafiy Texnobodiy. Rudakiy nomli til va adabiyot instituti xodimi. Umrining oxirini Dushanbeda o'tkazgan

4. Ja'farov: Melodiy 1905-yil (hijriy 1322-yil) ilm olish uchun Buxoroga borganimda, Hoji Maxdumning hovlisiga kirdim. Hoji Maxdum bilan domla A.Tamkinning uyiga bordik. Domla juda kamtar va muloyim fe'lli kishi edi. U 53 yoshga kirgan edi.

5. Guzar –fors-tojikcha so'z bo'lib, "mahalla" degani.

6. Viloyat davlat arxivi, 37-fond, opis 1, delo 92,1-8 betlar; delo 254, 4, 28-30 betlar.

7. Tamkin. "Mo'liston". Dastxati tahti raqami 337. II III. O'z-n. varaq 8-9. (8-9-betlar)

8. Tamkin. Devon. Qo'lyozma nomeri. 111. 39-bet.

9. Tamkin. Devon. Qo'lyozma nomeri 111. Var.39

10. Sh.M. Navodiri Ziyoiya. Dastxati raqami 183, Gajinai dastxathoi sharqii AFRSS Tojikiston, var 206

11. Tamkin. Ruboiyot. Var. 32.

Maqsud ASADOV,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O'zbek
mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi boshlig'i
filologiya fanlari doktori,

YUNUS EMRO SHE'RIYATIDA MA'RIFAT VA KOMIL INSON TALQINI

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilohiy ishqni baland pardalarda kuylagan etuk shoir Yunus Emro she'riyatidagi ma'naviy kamolot timsollari, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va she'riy matn mazmun-mohiyatini ochishdagi o'ziga xos o'rni xususida bahs yuritilgan.

Kalit so'zlar: Yunus Emro, she'riyat, timsol, komil inson, tasavvuf

Abstract: This article discusses the symbols of spiritual maturity in the poetry of the mature poet Yunus Emro, who sang divine love in high curtains, their ideological-artistic features and their unique role in revealing the essence of the poetic text.

Key words: Yunus Emro, poetry, symbol, perfect man, mysticism

Аннотация: В данной статье рассматриваются символы духовной зрелости в поэзии зрелого поэта Юнуса Эмро, воспевавшего в высоких занавесах божественную любовь, их идейно-художественные особенности и их уникальная роль в раскрытии содержания и сути поэтического текста.

Ключевые слова: Юнус Эмро, поэзия, символ, совершенный человек, мистика.

Ma'lumki, tasavvuf, eng avvalo, ruhiy yuksaklik maqomi, komillik yo'lidir. Bu yo'lining barcha bosqichlarini bosib o'tgan, ham diniy, ham dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, teran tafakkur, go'zal qalb sohiblarigina irfoniy adabiyotda chinakam komil inson deb yuritilgan. Komil inson nazariyasining asoschilaridan biri Aziziddin Nasafiya ko'ra, quyidagi to'rt tushuncha, ya'ni go'zal so'z, go'zal amal, go'zal axloq va ma'rifatga ega bo'lgan har bir kishini kamolot sohibi deyish mumkin. Komillik insonning ma'naviy olami va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarida yorqin namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, o'z ummati uchun ibrat va o'rnak bo'lgan chin komil inson Muhammad Mustafo (s.a.v)dir. Irfoniy adabiyotda kamolot darajasi Payg'ambarimizga nisbatan belgilanadi. Yunus Emroning bir she'rida keltirilishicha, ishq yo'lidagi solik barcha qusurlaridan poklanib, qalbu shuurida go'zal ma'naviy hollar bo'y ko'rsatsa, ya'ni payg'ambarimiz axloqi bilan axloqlansagina Haq diydoriga muyassar bo'ladi:

UI Muhammad xulqi kimda bo'lmasa,
Bilki, Haq diydorini hech ko'rmagay.
Ey Yunus, boq: voy ularning holiga,
Kimniki evoh Alloh uyg'otmagay. (5, 59)

Nafs va nafsoniyat irfoniy adabiyotda alohida bir masaladirki, uni chetlab o'tib, insoniy kamolot xususida bahs yuritib bo'lmaydi. Ma'rifat quyoshining nurlaridan bahramand bo'lishni istagan qalbdan nafs ehtiyoji g'alayon qilmasligi kerak. Chunki nafs o'zni tanish, o'zlikni anglash, Haq diydoriga vosil bo'lish yo'lidagi eng katta to'siqdir. Nafsi bilan kurashda g'olib bo'lgan inson ruhoniylar fazilatlariga, aksincha nafsining quliga aylangan kimsa hayvoniy sifatlariga ega bo'lishi ma'rifiy adabiyotda yoki bu timsollar vositasida ta'sirchan ifodalanadi.

Shayton, dev, ajdaho, dajjol, raqib, ag'yor, dushman, it, yuho, kofir kabi sifatlar ham ana shu – nafsning jirkanch va qing'ir qiyofasini tasvirlash uchun qo'llanadi. Yunus Emroga ko'ra, ularni mag'lub etish, nafsni zabun aylash ma'naviy kamolot bilan bo'ladi. Unga erishishning yo'llari juda ko'p. Shoir shulardan birini – darveshlik, deydi. Mumtoz adabiyotda darvesh Allohdan boshqa bir kimsaga ehtiyoji bo'lmagan, ko'nglini bu dunyoning turfa istaklaridan to'la poklagan, ruhiy olami yaxshilik va ezgulikka limmo-lim to'lgan, jo'mard va muruvvatli siymodir. Professor N.Komilovning yozishicha, "darveshlar hirqa kiyib yursalar-da, o'zlari ilmi, zavqi baland, hozirjavob, mard kishilardir. Ya'ni darvesh kabi tanti, tabiati toza, oliyanob inson boshqa topilmaydi" (2, 162). Shu sababdan bo'lsa kerak, turkman xalqining ulug' shoiri Maxtumlul bir she'rida: "Darvesh ko'rsang, borib olqish olaqol, Undan yaxshi banda yo'qdir Xudoyga" deydi (3, 153). Maxtumlulning bu fikrlari Yunus Emro qarashlarining tadriji, desak sira xato bo'lmaydi. Yunus Emro darveshlik holi, maqomi, darajasini ulug'lar ekan, she'rlarida keskin ruh, o'tkir nigoh, qat'iy hukm ifodasi yaqqol seziladi. Masalan:

Darveshlarning yo'liga
Siddiq bilan kelgan kelsin.
Haqdan o'zga har neni
Ko'nglidan surgan kelsin. (5, 126)

"Darveshlik degani o'z-o'zini ko'z-ko'z qilish uchun hirqa kiyish emas" deydi shoir. Yunus Emro she'rlarida darveshlik fazilatlarini yoritgan bir qator, jumladan, quyidagi ifodalar qo'llangan: "har nafasda ko'kka boquvchi", "ko'ngil jomiga halollik sharobini quygan", "tuganmas xazina", "ko'zi ochiq", "kecha-kunduz uyg'oq", "qulog'i sog'lom, ya'ni Haqdan eshitar dars", "ishq shamini

yoqqan”, “parvona”. Yunus Emro she’rlarida darveshlar ana shu go’zal sifatleri tufayli Allohning do’stlari deya ulug’langan:

Darveshlar Haqning do’sti,
Jonlari Haqning masti.

Shu tariqa, dunyo va nafs istaklaridan o’zini poklagan solik fano maqomiga yuksaladi. Fano Haq yo’liga kirgan talab sohibining moddiy ehtiyojlardan butkul uzilib, ma’naviy holga, ruhoniyaatga evrilishidir. Yunus Emro she’rlarida fano, faqir, darvesh timsollari bir-biriga bog’liq bo’lib, biri ikkinchisini to’ldirib keladi. Tasavvufda faqirlik maqomi – fano maqomi bilan tepa-tengdir. Ya’ni faqirlik Haqqa muhtojlik demakdir. Bu Yunus Emroning lirik qahramoni – qalbi ma’rifat yog’dusi ila nurlangan etuk ustoz, ma’naviy rahnamo tilidan shunday bayon qilinadi: “o’n sakkiz ming olamdan murod sensan”, “bu yolg’on dunyodan, uning o’tkinchi istaklaridan voz kech”, O’zingni, o’zligingni izla, ma’naviy olamingga boq, qalbingni tingla. Fano olamiga kir. Shunda qalbing ishqdan, visol lazzatidan farog’at topadi”. Ya’ni:

O’n sakiz ming olam murodi sensen,
Bu g’afat bas, sanga sandandir endi.
Kel endi o’zingni o’zingdin izla,
O’zingga boq, bil, asli kimsan endi?...
Fano bo’lkim, visol zavqin totarsan,
Bu so’zim tush bo’lsa, qil ta’bir endi... (5, 183)

Shoir she’rlarida may, sharob, qadah, jom, mayxona, majlis, ahli bazm, ahli ishq, rind, soqiy kabilar ham insoniy kamolot martabalarini yuzaga chiqargan, Haq yo’liga kirgan solikning tariqatdagi manzillari, turli hol va kayfiyatini jonli tarzda ifoda etgan badiiy timsollardir. Irfoniy adabiyotda may ma’naviy kamolotning yuksak bosqichi bo’lsa, qadah pining saboqlari, undan olingan irfoniy huzur, oshiqning ma’rifatdan yorishgan qalbi va ilohiy fayzni tamsil etadi. Sajjodiyning yozishicha, “orif kishilar ilohiy sharobni qadahdan ichib, tavhiddan sarxush bo’ladilar” (4, 280). Qadah g’ayb olamidan xabar-dor chin oshiqning zehni, u Haq ma’rifatini anglatadi, g’ayb sirlarini oshkor qiladi (1, 2121). Bu haqda Yunus Emro mana nima deydi:

Ul do’st menga kelsin demish,
Sundum qadah, olsin demish.
Oldim qadah, ichdim sharob,
Endi ko’nglim o’lmas mening.

Shoir she’rlarida komil inson timsollaridan eng ko’p qo’llangani bu soqiydir. Mumtoz adabiyotda soqiy, ya’ni may quyib tutuvchi kishi, qalbi ishq va go’zal-liklarga to’la, ilohiy haqiqatlarni teran anglagan, olam hodisalariga ko’ngil ko’zi ila boqqan, ma’rifat sohibidir. Tasavvufda soqiy deganda Alloh, Muhammad alayhis-salom, murshid va komil inson ham anglashiladi. Yunus Emro she’rlarida soqiy yuqoridagi barcha mazmunlarni ifoda etgan:

Bir soqiydan sharob ichdik, Arshdan yuksak
mayxonasi,
Ul soqiyning mastlarimiz, jonlar uning paymonasi.
Bir majliski, majlisimiz, unda jigar kabob o’lur,
Bir shamdirki unda yonar, oy va quyosh parvonasi.
(5, 106)

Mayxona zavq va ilohiy ma’rifat to’la komil insonning ruhiy olamini anglatadi, majlis Haq oshiqklarining ma’rifiy suhbatlarini, shuningdek ilohiy olamni ham tamsil etadi (4, 92).

Umuman, Yunus Emro she’rlarida insoniy kamolot martabalarini ifoda etgan timsol va tushunchalar nihoyat darajada ko’p va xilma-xildir. Biz ularning ayrim-larigagina e’tibor qaratdik, xolos. Tekshirishlarimizdan ma’lum bo’ldiki, shoir ijodida komil inson bilan bog’liq badiiy ifodalar muayyan bir tizim bo’lib keladi. Ular vositasida Sharq mumtoz adabiyotida ma’naviy-axloqiy olami poklik buloqlaridan suv ichgan, qalbi ilohiy ma’rifat taftidan nurlangan, borlig’i himmat va fidoyilik, haqiqat va rostgo’ylik, sabot va matonat kabi etuk fazilatlariga sohib bo’lgan ulug’vor siymo – haqiqiy komil insonning jonli qiyofasini ko’z oldimizda gavdalan-tir-miz. Yunus Emro ijodida ma’naviy kamolot yo’liga kirgan, bu yo’ldagi zahmatu mashaqqatlarga sira yon bermagan, ruhiyat maqomlarini bir-bir bosib o’tgan kishilar solik, murid, so’fiy, pir, murshid, piri mug’on, soqiy, faqir, oshiq, orif, ishq ahli, himmat ahli, ma’rifat ahli, sohibkamol kabi qator timsollar bilan yuritilgan. Aslida, Yunus Emro she’rlaridagi irfoniy tushuncha va timsollarni bir erga to’plab, “Komil inson timsollari lug’ati”ni yaratish ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Доктор Хасан Анварий. Фарҳанги бузруки сухан. Иборат аз 7 жилд. Жилди 3. – Техрон, 1381 х. – 13548 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Маворуннахр – Ўзбекистон, 2009. – 324 б.
3. Махтумқули. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 298 б..
4. Сажжодий Жаъфар Саййид. Фарҳанги мусталихоти урафои мутасаввифа ва шуаро. – Техрон, 1332 х. – 10624 б.
5. Юнус Эмро. Шеърлар. – Тошкент: Фан, 2001. – 342 б..
6. Исабек Б. Яссавий ҳикматлари луғати. – Тошкент: Академнашр, 2022. – 230 б.
7. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 258 б.
8. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 4-китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – 192 б.
9. Ҳоҷиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.

Abduhamid XOLMURODOV,
NavDPI professori, f.f.d.

TAHLILDA BENAZIR OLIM

Annotatsiya: maqolada akademik Vohid Abdullayevning o'zbek adabiyotshunosligiga qo'shgan ulkan hissasi haqida fikr yuritilgan. Olimning tahlil mahorati ilmiy adabiy-tanqidiy maqolalari asosida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, navoiyshunoslik, mafkura, bayt, janr, g'azal, ruboiy, tahlil, manba, adabiy.

Annotation: The article deals with the huge contribution to the Uzbek literary criticism of academician Vakhid Abdullayev. Skills of the scientist reveals on the basis of scientific literary-critical articles.

Key words: literary criticism, Navoi reading, ideology, byte (two lines), genre, ghazal, ruboi, analysis, source, literature.

Аннотация: В статье идёт речь об огромном вкладе в узбекскую литературоведения академика Вахид Абдуллаева. Мастерства учёного раскрывает по основе научные литературно-критические статьи.

Ключевые слова: литературоведение, навоийское чтение, идеология, байт (два строка), жанр, газел, рубои, анализ, источник, литературный.

Mumtoz adabiyotimiz buyuk bir ummonki, unga sho'ng'ib, har qancha duru javohirlarni tergan bilan adog'iga yetib bo'lmaydi. Ayniqsa, ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy asarlari mag'zini chaqish, huzurlanish har bir adabiyot muhibi uchun sharaf sanaladi. Afsuski, uzoq vaqt Navoiy asarlarini talqin qilish noto'g'ri yo'llardan bordi. Hukmron mafkura tazyiqidan qutilgandan keyin mustaqillik yillarida navoiyshunoslikda ulkan yutuqlarga erishildi. Alisher Navoiy asarlarini o'rganishdagi cheklashlarga barham berildi, ilgari noto'g'ri talqin qilingan asarlari qaytadan o'rganilib, navoiyshunoslik ilmi yangi tadqiqotlar bilan boyidi.

Har qancha tazyiqlar, cheklashlarga qaramay o'z vaqtida Alisher Navoiy ijodini xolislik bilan o'rganishga intilgan, xalqimizni bu bebaho asarlardan bahramand bo'lishiga harakat qilgan zahmatkash navoiyshunos olimlarimiz xizmatlari bugungi kunda ham qadrlidir. Ana shunday olimlardan biri Vohid Abdullayev edi. "Vohid Abdullayevning a'lo darajada yozilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobi va ilmiy asarlari menga, mening tojik adabiyoti haqida olib borayotgan ilmiy ishimga katta yordam beryapti. Mening muhtaram ustozim, akademik Yan Ripkaning uqtirishicha, Vohid Abdullayevning mazkur kitobi va boshqa asarlaridan qalam ahllarining faqat o'zbekcha emas, ayni paytda tojik tilidagi asarlarini ham o'rganish mumkin", deb yozgan edi o'z vaqtida chexiyalik olim, professor Irje Bechka. Ozarbayjonlik akademik F.Qosimzoda esa: "Vohid Abdullayev adabiyot olami uchun tasodifiy shaxs emas. O'zbek adabiyoti tarixi sohasida uzoq yillardan beri samarali mehnat qilgan tajribali, har taraflama inkishof o'lmish chuqur ma'lumotga molik, eruditsiyali bir olimdir" deb e'tirof etgan. E.Bertels, tojikistonlik akademik B.Niyozmuhammedov, akademik O.Sodiqov, professor Hamid Sulaymon, V.Reshetov singari mashhur olimlar ham olim ilmiy faoliyatiga yuqori baho berishgan.

V.Abdullayev o'z davrining farzandi sifatida hukmron mafkura tazyiqidan holi bo'lolmasdi. Shunday bo'lsa ham olim Alisher Navoiy asarlarini xolislik bilan tahlil va talqin qilishga, navoiyshunoslik bo'yicha ilmiy yangiliklar yaratishga butun faoliyati davomida amal qildi. Uning "XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabi-

yoti" mavzuidagi doktorlik ishi o'zbek adabiyotshunosligining ulkan yutuqlaridan bo'lganligi atoqli olimlar tomonidan e'tirof etildi. Shu paytgacha fanga ma'lum bo'lmagan ko'pgina xorazmlik shoirlar va adiblar kashf etilib, ularning asarlari chuqur tadqiq etildi. 1964 yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob (XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha)" fundamental tadqiqoti universitet filologiya fakulteti hamda pedagogika instituti til va adabiyot fakultetlari uchun darslik sifatida yaratildi va hozirgi paytda ham qimmatini yo'qotgan emas. Bu darslikdan xalqimiz tarixining katta bir davrida yashab ijod etgan, ammo yetarli darajada o'rganilmagan adabiyot namoyandalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan, asarlari tahlil etilgan. Ulkan olim Alisher Navoiy ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratdi. Bu ilmiy izlanishlar natijalari ilmiy jurnallarda, adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamlarida muntazam e'lon qilib borildi. Ularning ko'pchiligi bugungi kunda ham bobokalon shoirimiz ijodini o'rganish, asarlari ma'nosini tushuishimizda katta yordam beradi. "XV asrda Samarqand va Buxorodagi she'riyat" maqolasi ana shunday ilmiy asarlaridan biridir. Maqola 1981 yilda yozilgan, "Navoiy va ijod saboqlari" ilmiy to'plamida e'lon qilingan. Bundan tashqari ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plamlarida, respublika va viloyat gazeta-jurnallarida Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan yuzlab maqolalar chop qilindi. Bu olimning sermahsulligi, zahmatkashligi, mumtoz adabiyotimizning ulkan bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Uning fors-tojik tilini mukammal bilishi ham tadqiqot ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jihatdan u yosh olimlarga hamisha o'rnak, namuna bo'lib keldi. Darhaqiqat, fors-tojik tilini bilmagan mumtoz adabiyot bo'yicha to'laqonli tadqiqot olib bora olmaydi. Navoiy zamonasida turkigo'y shoirlar fors-tojik tilini ham mukammal bilishgan, shuning uchun bu davrda she'r-u shakar g'azallar ko'plab yaratilgan, ikki tilda baravar ijod qila oladigan shoirlar o'rtasida hamisha sog'lom raqobat, ijodiy musobaqa, fikr-mulohazalar bahsi odat tusiga kirgan.

Akademik, alloma V.Abdullayev yuqorida eslab o'tilgan maqolasida ham Samarqand va Buxoroda yasha-

gan shoirlarning ham fors-tojik tilida, ham turkiy o'zbek tilida asarlar yaratganligini ta'kidlab, ulardan keltirilgan misollar vositasida bu davrda she'riyat yuqori pog'onada turganligini isbotlagan. Jumladan, Navoiynig ustози haqida: "Ustod Fazlullo Abulaysiy "Samarqandning a'lamul-ulamasi" (olimlar olimi) bo'lishlik bilan birga, g'azal, muammolar to'qishga ham mohir bo'lgan:

Qadi chun sarvi tu jonest maro balki ravon
So'yam, ey sarvi ravon shav, fido sozam jon

Mazmuni:

Sening sarv kabi qadding mening uchun jondir, balki ravondir.

Ey sarv, men tomon ravon bo'l, senga jonimni fido aylay",

degan ma'lumotni beradi.

Bugina emas. Navoiy Samarqandda bo'lganida Ulug'bek davrida yashab ijod etgan Mavlono Xayoliy Buxoriy, Sakkokiy, Burundiq, Bisotiy Samarqandiy, Xoja Ismat Buxoriylar ijodi bilan qiziqqani, ularning asarlaridan bahramand bo'lganligini ta'kidlaydi. Bu davrda o'zbek mumtoz adabiyotining turli janrlari taraqqiyotiga ham e'tibor qaratgan. Shu davrda yaratilgan, xalq orasida keng tarqalgan g'azal, ruboiy, tuyuq, muammo, mulamma' namunalarini ham fors-tojik tilida, ham turkiy o'zbek tilida namunalarini keltiradi. Xoja Ismat Buxoriy ana shunday zullisonayn shoir bo'lgan. "Majolis un-nafois" asarida Navoiy Samarqand va Buxoroda yashab ijod etgan shoirlarning asarlaridan namunalar keltirgan. Ustoz V.Abdullayev forsiyda berilgan namunalarining o'zbekcha mazmunini keltirib sharhlagan. Ahmad Hojibek Vafoiy, Mavlono Mir Qarshiy Samarqandiy, Mavlono ovariy Samarqanday, Mavlono Halvoyi Samarqandiy, shoir Sheram, Mavlono Tarxoni Andhuiy, Shayxim Suhayliy ijodidan namunalar keltiradi. Ta'rix yozish an'anasi, muammo janri Navoiy Samarqandda vaqtida ancha rivoj topganligi va bu an'analardan hali yosh sanalgan, madrasada tahsil olayotgan bo'lajak buyuk so'z san'atkori bahra olgan, qalami qayralgan. Shuningdek, qasida janri ham rivojlangan. Bu janrda Xoja Ismat Buxoriy Ulug'bekka bag'ishlab qasidalar yaratganligini aytib o'tgan. Mavlono Xayrining qasidalariga ijobiy munosabat bildirgani, "...Movarounnahrning sohibi ixtiyori" Ahmad Hojibek Vafoiyga bag'ishlangan Shayxim Suhayliy qasidasiga:

Bahori bog'i javoni, niholi gulshani adl,
Guli riyoz karam, sarvi jo'ybori viqor

Mazmuni:

U juvonlik bog'ining bahori, adolat chamanzorining niholidir, ham saxovat gulzorining guli va ariqlarining

sarvidur, – deb isloh kiritgan, deydi.

Bu tafsilotlardan Alisher Navoiy Samarqandda jo'shqin adabiy muhit og'ushida bo'lganligi, samarqandlik va buxorolik shoirlar bilan doimiy muloqotda bo'lganligi, bu davrda she'riyat ayni gurkiragan pallada bo'lganligidan xabardor bo'lamiz.

Shu maqolada Navoiyning Samarqandda necha yil yashaganligi haqida fikr yuritilib, Navoiyning Samarqandda ikki yil Fazlullo Abulaysiy madrasasida o'qiganligi haqidagi ma'lumot bilan qanoatlanmay, 1465-1469 yillar davomida to'rt yil yashaganligini aytadi va bu dalilni Sadriddin Ayniy domla ham tasdiqlaganligini ko'rsatadi. Hali-hanuz bu masala to'la hal etilgan emas. Iste'dodli munaqqid, matnshunos Shuhrat Sirojiddinov bu haqda shunday deydi:

"Manbalarda Navoiyning Samarqandda necha yil yashagani haqida aniq bir fikr aytilmagan. Shoirning o'zi "Samarqandda ikki yil Fazlullo Abu Laysiy qo'lida tahsil oldim"—deydi. Bu - birinchi fakt. Samarqanddagi hayoti shu bilan tugagan, tahsildan oldin yoki keyin Samarqandda yashagan yo yashamaganligi haqida aniq ma'lumot bermagan".

Xuroson notinch bo'lgani, Abusaid Mirzo hukmronligi davrida Navoiy yetarli e'tibor topmagani, ayni shu paytda 24 yoshda bo'lgan Navoiyning o'z bilimini oshirishga ehtiyoji bo'lgani sababli uning 1465 yilda Samarqandga kelishi, ikki yil tahsil olishi, tahsildan keyin ham Abusaid Mirzo hukmronligi davom etayotganligi vajidan fursat kutib qolgani haqiqatga yaqinroq. Shu jihatdan V.Abdullayevning Navoiy Samarqandda ikki yil emas, to'rt yil yashagani haqidagi fikri hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan deb hisoblaymiz.

Ustoz V.Abdullayev tahlilda benazir olim edi. Buni o'z davrining mashhur adabiyotshunoslari, turkolog olimlar ko'p bor ta'kidlashgan. Hamid Orasli (Boku), M.Xidirov (Ashxobod), Sadriddin Ayniy, YE.E.Bertels (Moskva) va boshqalar e'tirofidan ham bilsa bo'ladi. Ustoz rahnamoligi va g'amxo'rli ostida ko'plab shogirdlar yetishib chiqdi. B.Valixojayev, N.Shukurov, Sh.Shukurov, R.Orzibekov, A.Abdurahmonov, R.Muqimov... shogirdlar ro'yxatini yana davom ettiraverish mumkin. Ustoz quvvai hofizasi nihoyatda o'tkir bo'lib, deyarli barcha mumtoz adabiyot namoyandalari ijodidan namunalarni yod bilar, bahs-u munozaralarda hamisha eng salmoqdor fikrni ayta olar edi. Bugungi kunda ustozning ana shu fazilatini qadrlagan, havas qilgan shogirdlari ustoz tahlil tajribalarini davom ettirishyapti, rivojlantirishyapti va boyitishyapti. Mustaqillik tufayli bobokalon shoirimiz ijodi haqiqiy to'g'ri o'zanga tushib olgan shogird munaqqidlariga kuch-g'ayrat bag'ishlab, Navoiy dahosini qayta kashf etishga, navoiyshunoslik ilmini yangiliklar bilan boyitishga harakat qilishmoqda. Bu ezgu sa'y-harakatlarda ustoz V. Abdullayev ruhi hamisha madadkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабиёт илмининг алломаси (Академик Воҳид Абдуллаев замондошлари нигоҳида), "ШАРҚ" нашриёт-матбаа концернининг Бош таҳририяти, Тошкент: 1997 й. Б.3-4
2. Навоий ва ижод сабоқлари, Тошкент: Ўзбекистон Республикаси "ФАН" нашиёти, 1981 й. Б.10-14.
3. Сирожиiddinov Шухрат. Алишер Навоий. Манбаларнинг қиёсий-типология, текстология таҳлили. Тошкент: "Akademnashr", 2011й. Б.59.

Kamola ULUG'MURODOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universitetimustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEK G'AZALCHILIGIDA "LAYLI" OBRAZINING BADIY TALQINI

(Atoyi va Hofiz Xorazmiy ijodi yuzasidan)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Atoyi va Hofiz Xorazmiylarning she'riyati izchil o'rganilgan. Ya'ni, shoirlarning devonlarida qo'llangan "Layli" obrazining badiiy talqini sharhlangan. Shoirlar ijodida uchragan ushbu timsolning mazmun mohiyati, qanday ma'nolar ifodalaganligi hamda necha o'rinda qo'llanganligi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: devon, g'azal, bayt, obraz, Layli, ilohiy ishq, talmeh.

Аннотация: В данной статье последовательно анализируется поэзия Атои и Хафиза Хорезми. То есть изучалась художественная трактовка образа "Лейли" используемого в диванах поэтов. Исследовалась сущность этого символа, найденного в творчестве поэтов, также какие значения образ приобретал и в каких местах употреблялся.

Ключевые слова: деван, газель, стих, образ, Лейли, божественная любовь, талмех.

Annotation: This article consistently analyzes the poetry of Atoya and Hafiz Khorezmi. That is, the artistic interpretation of the image of "Leyli" used in the divans of poets was studied. The essence of this symbol found in the works of poets was studied, as well as what meanings the image acquired and in what places it was used.

Key words: devan, ghazal, verse, image, Layli, divint love, talmex.

XIV asrning oxiri XV asrning birinchi yarmida ijod qilgan Atoyi va Hofiz Xorazmiyning she'riyati sarmazmunligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O'z zamonasida mashhur bo'lgan bu shoirlar turkiy xalqlar she'riyatiga, xususan, o'zbek g'azalchiligining tarixiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayin" asarlarida Atoyi haqida aytilgan qimmatli ma'lumotlar bugun shoir ijodini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Hofiz Xorazmiyning ijodi ham Navoiygacha bo'lgan o'zbek g'azaliyotining ajoyib namunasi sanaladi. Bu haqda adabiyotshunos Hamid Sulaymonov shunday ma'lumotlar bergan: "Badiiy mahorat, qofiya va radiflarning ustalik bilan tanlay bilishi, ajoyib lirik obrazlar yaratish olishi Hofiz Xorazmiyning yetuk san'atkorligidan dalolat beradi."

Demak, har ikki shoir o'ziga xos ijod maktabi yaratib, kelajak avlod uchun beqiyos ma'naviy meros qoldirgan buyuk so'z san'atkorlari sanaladi. Bu borada biz ularning she'riyatini qiyosiy tahlil qilish jarayonida barchasidan ogoh bo'lamiz.

Ma'lumki, har bir shoir o'zining ichki kechinmalarini jamiyatda yuz beradigan voqea-hodisalarga qiyoslab, turli obrazlar vositasida ba'zan yashirin, ba'zan oshkora ifoda etadi. Muxlislar diqqatini o'z ijodiga jalb qilish maqsadida bor mahoratini ishga soladi. Xususan, Atoyi va Hofiz Xorazmiy shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. Ularning sinchikovligi, tashbehlarining tengsizligi, har bir obrazni mohirlik bilan qo'llay olishi tahsinga loyiq.

Masalan, Sharq xalqlari badiiy ijodi bilan yaqindan tanish bo'lgan Atoyi o'z g'azallarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro, Yusuf, Zulayho, Masih, Yoqub, Xizr kabi nomlarni, Hofiz Xorazmiy esa xuddi shu obrazlar bilan birgalikda Sulaymon, Iso, Mansur Xalloy kabi adabiy, ilohiy, tarixiy nomlarni badiiy timsollar sifatida g'azallari mazmuniga singdira olganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Biz har ikkala shoirning badiiy mahoratini "Layli" obrazi misolida ko'rib o'tamiz.

"Layli" timsoli Atoyi devonida 4 o'rinda, Hofiz Xorazmiy devonida esa 21 o'rinda kelgan. Ularning yana biri biridan farqi shundaki, Atoyi bu obrazni faqat "Layli" shaklida, Hofiz Xorazmiy bo'lsa ham "Layli", ham "Laylo" tarzida qo'llagan. Ushbu obraz Atoyi ijodida, asosan, Majnunning suyukli yori, badiiy asar qahramoni hamda uning nomiga ishora qiluvchi obraz ma'nolarida qo'llangan bo'lsa, Hofiz Xorazmiy ijodida ushbu ma'nolar bilan birgalikda "tun" lug'aviy ma'nosini beruvchi shakli borligi ham aniqlandi. Biz bu jarayonlarni shoirlar ijodini tahlil qilish asnosida kuzatamiz.

Ey soching zanjirining aqlu xirad devonasi,
Qissayi "Layliyu Majnun" kamtarin afsonasi

Atoyining ushbu matla' bilan boshlanuvchi g'azali g'oyaviy jihatdan tasavvufiy ruhda yozilgan. Shoir ijodi yuzasidan izlanishlar olib borgan f.f.n. tasavvuf ilmining bilimdoni Sayfiddin Sayfulloh shunday deydi: "Atoyi she'rlariga Qur'on va hadislar mazmunini singdiradi. Muqaddas manbalardan ixtiboslar keltirib tasavvufdagi may, qadah, soch, zulf, qosh, ko'z, bel, sanam, butxona, zunnor kabi istilohlar vositasida murakkab ma'no mazmunlarni ifodalaydi. Navoiy ta'biri bilan aytganda: majoz tariqi bila haqiqat asrorini kuylagan shoir. Uning har bir satridan darvishligi, din-u imonda sobitligi sezilib turadi."

Chindan ham, yuqoridagi bayt Atoyining darvishvash shoirligidan dalolat bermoqda. Ya'ni, g'azaldagi lirik qahramon o'z yoriga murojaat qilgan ekan, uning qop-qora uzun sochlari aql-u hushini zanjirband qilib devona ahvoliga soldi. Go'yo mahbubni "Layli va Majnun" haqidagi qissa va dostonlarning bosh qahramon ahvoliga tushirdi. Bir qancha ijodkorlar tomonidan yozilgan shu nomdagi asarlardan ma'lumki, ularning barchasida Layli va Majnunning taqdiri ayanchli kechgan. Atoyi mazkur bayt orqali shuni nazarda tutgan. Demak, bu o'rinda "Layli" timsoli badiiy asar qahramon ma'nosini ifodalab, butun bir doston nomiga ishora qilgan.

Bu holatni Hofiz Xorazmiy ijodida boshqacha talqin-da kuzatamiz.

Kim ko'rar bo'lsa niyozin birla nozin aytg'ay,
Layliyu Majnun hikoyati erur afsonalar.

Mazkur parcha shoirning 327- g'azalidan olingan bo'lib, uning 6-baytida zikr etilgan. g'azal matla'sida shoir bevosita oy yuzli jononni tilga olib, u bilan bog'liq voqeylikni ketma-ket rivojlantirib borgan. Ammo oltinchi baytga kelganda biroz chekingan. Ya'ni, baytning birinchi misrasida agar kimda-kim shoir ta'riflagan go'zalning jamolini ko'rib qolsa, noz-u niyozining tengsizligiga tahsinlar aytishini va uning ikkinchi misrasida esa bu holat "Layli va Majnun" haqidagi afsonaga ishora etilyotganligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, g'azalning boshqa baytlari tarkibida uchragan butxona, sanam kabi istilohlar uning tasavvufiy ruhda yozilganligidan dalolat beradi. Shuningdek:

Majnun so'zin Layli qabilasidan izla,
Yaqub ko'zin Yusuf kanondan ayirma. (Atoyi)

Bevosita "Yo Rab" deya Oллоhga murojaat bilan boshlangan Atoyi g'azalining mazkur baytida ham "Layli" timsoli badiiy asar qahramon ma'nosida qo'langan. Chunki "Layli va Majnun" nomli doston va qissalardan ma'lumki, Majnun Laylini uchratgach, faqat u tomon oshiqadi. O'zligidan kechib Layli xayoli bilan yashaydi. Shu bois, Majnun o'z qabilasini tark etganda, doim Layli qabilasi yon-atrofidan topilgan. Shoir baytning ikkinchi misrasida ulug' payhambarlar nomini tilga olib, to'rt o'rinda talmeh san'atining go'zal namunasini ham yaratgan.

Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, "Layli" haqning tajallisi zuhur etgan timsol". Shu bois, uning jismida Yaratgan jamoli jilvalanadi. haqiqiy ishqqa yug'rilgan bu go'zallikdan bahramand bo'lish oson emas. Negaki "Ruhi mutlaqni tasavvur qilishda inson aqli va ongi ojizlik qiladi"³ Buni faqat haqiqiy ishq sohib va sohibalari anglab yetadi. "haqiqiy muhabbat faqat pokiza insonlar qalbidan joy oladi. Bu borada Majnun ishq oliy namuna. Chunki u butun qalbi va jon dili bilan Allohni sevadi."⁴

Shoirilar ijodini ko'zdan kechirar ekanmiz, Layli timsoli vositasida haqiqiy ishqni o'ta ta'sirchan ifoda etganliklarini guvohi bo'lamiz. Bu, ayniqsa, Hofiz Xorazmiy g'azallarida yorqin chizgilarda aks etgan bo'lib, uni quyidagi g'azallari misolida ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, shoirning 11- 64- g'azallarining maqta'si, 340- g'azalining 2- bayti, 497- g'azalining 3- bayti, 566- g'azalining 1- bayti, 770- g'azalining 3- bayti, 772- g'azalining 4- bayti, 773- g'azalining 4 bayti, 847- g'azalining 2- baytlarida haq ishqining go'zal namunalarini ko'zga tashlanadi. Masalan:

Ishqi haqiqiy nogahon suvratqa kelgan orada,
Olamning ichra oti goh Majnunu, goh Laylo emish
(497-g'azal)

Yoki:

Ishq olamda goh noz bo'lib, goh niyoz,
Goh Majnunu gahi otini Laylo qilisar. (340- g'azal)

Mazkur misralar orqali shoir haqiqiy ishq asrori Layli va Majnun suvrati-yu siyratiga singib ketganligini, agar butun olamda ishq haqida so'z borsa, uni bimalol Majnun yoki Laylo deb atash mumkinligini ko'rsatmoqda. Ushbu obrazlarning bu qadar ulug'lanishi siri – "Layli" timsolning ilohiy go'zallikni o'zining butun jismiga jo etganligidadir. Uning oshig'i sanalgan Majnun shu go'zallikni ko'ra olgan, haq yo'lini ana shuni anglashdan, unga yetishga intilishdan boshlagan majzubi solik bo'lganligidadir.⁵ Shu sababli, bu timsollar badiiy adabiyotimizda asrlar osha yashab kelmoqda.

Shuningdek, "Layli" timsolining bu kabi betakror jozi-basini uning lug'aviy ma'nolarida ham uchratamiz.

Tug'ar Majnung'a kecha oftobi

Agar ko'rguzsa yuz layl ichra Laylo. (1022- g'azal, 6-bayt)

Ma'lumki, tun, tong, oftob kabi so'zlar haqiqiy ishq mohiyatini ochib berishda, badiiy obrazlarning ruhiy holat va ichki kechinmalarini tasvirlashda katta ahamiyat kasb etadi. Bu yuqoridagi bayt misolida o'z aksini topgan. Ya'ni, agar Layli tun qorong'usida yuzini ko'rsatsa, Majnun uchun qorong'u tun oydin oftobni tug'ib beradi. Tasavvuf nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, haq jamoliga yetishgan solikning qalbi oftob nuri misoli yorishishi nazarda tutilgan. Yoki boshqa bir o'rinda:

Jon sham'ini yoqmoq yoqadur tesa tong ermas,

Majnun topib ul jon tilagi Laylini laylo. (1018- g'azal 7- bayt)

Bu o'rinda shoir oshiqning jismini shamga qiyoslagan. Ya'ni oshiqning joni sham bo'lib yonsa-da uning yog'dusi tunga oydinlik berolmaydi. Shu bois, Majnun yonayotgan jismni ko'p ovvora bo'lmasligini, chunki tunning yorish-masligini, bunga Laylining ishq to'sqinlik qilishini aytib roziligini bildirimoqda. Shunday bo'lsa-da, Majnunning birdan bir tilagi – Layli. Negaki u butun qorong'u tun bag'rida Layli jamolini ko'rish baxtiga muyassar bo'lsa bo'lgani. Majnun uchun bundan oliy baxt yo'q. Guvohi bo'lganingizdek, Hofiz Xorazmiy ushbu bayt orqali ham ilohiy ishqning yashirin sirlarini oshkor etgan.

Xullas, har ikkala shoir ijodida qo'llangan "Layli" timsoli haqida ko'plab mulohazalar bildirish mumkin. Negaki bu obraz shoirilar ijodida rang-barang ma'no-mohiyat kasb etganligi bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, Atoyi ham, Hofiz Xorazmiy ham "Layli" obrazi orqali ajdodlar merosini avlodlar yodida saqlanib qolishiga munosib hissasini qo'shganlar.

1. H.Xorazmiy. Devon. I kitob "O'zbekiston markaziy kometiti" nashri. Toshkent. 1981.6-bet.

2. Atoyi. Devon. Toshkent, "Fan". 2008.13-bet.

3. K.Mullaxo'jaeva. "Alisher Navoiy g'azalyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi" Toshkent. "Akademnashr". 2019. 30- bet.

4. D. Yusupova, Sh. Sirojiddinov, O. Davlatov. "Navoiyshunoslik". Toshkent. "Tamaddun" 2018. 129-bet.

Azamat ATAYEV,
ToshDO'TAU o'qituvchisi,
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
kafedrası tayanch doktoranti

O'RTA ASRLAR XORAZM ADABIY MUHITI XUSUSIDA

(arab tilidagi manbalar misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada Xorazmdagi arabiyzabon badiiy adabiyot haqida muxtasar bayon qilingan. Islom fathidan uch asrcha vaqt o'tgach Xorazm mintaqasida etishib chiqqan ko'plab arabiyzabon shoirlar adabiy meroslarini to'g'ri tushunish va izohlashda adabiy manbashunoslik va matnshunoslikka muhim yangi ilmiy ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: arabiyzabon, tarixiy manba, adabiy manba, hajv, madh, janr, manbashunoslik, matnshunoslik.

Abstract: This work briefly outlines the Arabic fiction of Khorezm. About three centuries after the conquest of Islam, many Arabic-speaking poets who grown up in the Khorezm region, in the correct understanding and commenting on their literary heritage, introduced important new scientific information to literary source and textual criticism.

Key words: historical source, literary source, comedy, hymn, genre, source study, textology.

Аннотация: В данной работе кратко излагается об арабской художественной литературы Хорезма. Около три века спустя после завоевания ислама, многие арабоязычные поэты, процветавшие в Хорезмской регионе, при правильном понимании и комментировании своего литературного наследия, представили важную новую научную информацию в литературное источниковедение и текстоведение.

Ключевые слова: исторический источник, литературный источник, комедия, гимн, жанр, источниковедение, текстология.

VIII – XIII asrlar Xorazm adabiy muhiti bir butun holda deyarli o'rganilmagan. Bu davr adabiyoti manbashunosligimiz uchun yangi va boy ma'lumotlarga to'la tadqiqot maydoni, deyish mumkin. Mazkur davr adabiyotiga kam e'tibor qaratilishining asosiy sabablari biri Xorazmshohlar davrida nafaqat ilmiy, balki adabiy-ma'rifiy asarlar ham arab tilida yozilgan. G'arbda esa o'sha davrlarda lotin tili ayni ahamiyatga ega edi. Xorazmshohlar davrida aksariyat ziyolilar arab tilidan xabardor bo'lgan. Albatta, o'rta tabaqa ziyolilar orasida ayrim ilm sohalarida turkiy va forsiy til ham amalda bo'lgan. Lekin o'z ilmiy, adabiy merosining butun Islom olamiga tarqalishini xohlagan olimlar o'z asarlarini arab tilida yozar edilar. Hatto ular mahalliy ehtiyojga ko'ra, forsha yozgan asarlarini arabchaga tarjima qilardilar. Masalan, arab va fors tillarini birdek yaxshi bilgan Nasaviy o'zining Jaloliddin Manguberdining hayoti to'g'risidagi asarini arab tilida bitgan. Bundan u Jaloliddin tarixini butun Islom olamiga tanitish maqsadini ko'zlagan edi. Nasaviyning asari o'sha davridayoq forschaga tarjima qilingan.

Garchi xorazmshohlar haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalarda bu davrda fors tili ilm tili sifatida arab tilidan ustunroq mavqega erisha borgan ta'kidlansa-da, VIII – XIII asrlar Xorazm adabiy muhitida arab tilidagi adabiyot allaqachon shakllanib ulgurgan edi. To'g'ri, bu davrda qadimgi Xuroson maktabiga xos adabiy an'analar o'zgarishga uchrab, Iroq maktabi vujudga kela boshladi. Saljuqiylar davridagi adabiyot taraqqiysi Xorazmshohlar davrida yanada yuqori darajaga ko'tarildi. Lekin bu holat VIII – XIII asrlarda Xorazmda yashagan turkiy millat adiblarining arab tilidagi ijodiy merosini o'rganishga soya solmaydi.

Sulton Takish va Alouddin Muhammad davrlarida madaniy hayot ravnaq topib, qasidago'y va dostonchi shoirlar ijodi gullab-yashnagan. Bu davr shoirlarining aksari qaysidir jihati bilan xorazmshohlar saroyiga taalluqli bo'lib, ayni hudud doirasida ularning maktabi shakllangan edi. Shulardan ko'zga ko'ringani shoir va olim Rashididdin Muhammad al-Umariy (1115-1182)dir. U past bo'yli, taqir bosh, ko'rimsiz bo'lgani uchun Vatvot, ya'ni "Jajji qush" taxallusini olgan edi. Rashididdin Vatvot maktublar yozishda yuksak mahoratga ega bo'lgani uchun yuqori martabalarga erishib, uch hukmdor – Otsiz, El-Arslon va Takish sultonlar saroyida "kotibul insho" vazifasini bajargan. Imom Rashididdin Vatvot o'z maktublarini turli badiiy vositalar, tashbehtar, go'zal o'xshatishlar, nozik va o'tkir fikrlar bilan bezatib, qofiyali nasr – saj' usulida yozardi. U boshqa iste'dodli shoirlarga g'amxo'rlik qilar, shoirlar ham uning etakchiligi, rahnamoligini tan olar edilar.

Rashididdin Vatvot o'zining she'riyat nafosati haqidagi "Hadoyiqus sehr fi daqoyiqish she'r" (She'r san'atining sehrli bog'lari) kitobini Xorazmshoh Otsizga bag'ishlagan.

"Sultonul fuzalo" (Fozillar sultoni) nomini olgan Abul Fazl Muhammad ibn Tohir Ahsikatiy (vaf. 1184) ham Xorazmshohlar zamonidagi atoqli shoirlardandir. "Malikush shuaro va malikul fuzalo" mavlono Sayfiddin Isfarangiy ham Ahsikatiyga ergashib, g'azallar va qasidalar yozgan. Mavlono Sayfiddinning devoni o'n ikki ming baytdan iborat. U lafzgo'ylikda Badriddin Shoshiyga ergashgan.

Xorazmshohlar zamonidagi atoqli shoirlardan yana biri, G'iyosiddin Abulmajid Muhammad ibn Hasan ibn Ibrohim al-Jandiy edi. Shuningdek, Xorazmning o'sha

zamondagi mashhur shoir va adiblaridan “Faxrul mashoyix” Abul Qosim Ali ibn Muhammad ibn Ali adib al-Xorazmiy (vaf. 1165), “Faxrul afozil” Abu Hafz Umar ibn Muhammad ibn Umar Xorazmiy, Kamoliddin Abulfaraj Yusuf ibn Mahmud ibn Ahmad Samarqandiy, Muayyanuddin Abu Sa’d Ibrohim ibn Foris ibn Rustam Xorazmiy kabi adiblarning nomlarini keltirish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, bu davr shoirlarining aksari qaysidir jihati bilan saroy muhitiga xoslashgan bo’lib, ularning asosiy nazm namunalari maishiy sathda namoyon bo’lardi. Shuning uchun ham ularning ijodida hajv, madh, faxriya, qasida kabi janr yo’nalishlari etakchilik qilgan. Masalan, Abulfazl Saxriyning ushbu baytini hajv janriga misol qilib keltirishimiz mumkin:

أيا ذا الفضائل واللام حاء
 و يا ذا المكارم والميم هاء

Ey fazilatlar sohibi – lom harfi ho (ح)

Ey ikromlar sohibi – mim harfi ho (ه).

Baytda keltirilgan الفضائل (fazilatlar) so’zi oxiridagi ل harfini ح ga o’zgartirilsa, الفضائح – “buzuqliqlar” ma’nosidagi so’z hosil bo’ladi. Ikkinchi misradagi المكارم (yaxshi sifatlar) so’zi oxiridagi م harfi ه ga o’zgartirilsa, المكاره – “yomonliklar” degan ma’noda bo’ladi. Demak bu o’rinda shoir: “Ey fazilatlar sohibi...” yoki “Ey yaxshiliklar egasi...” deb go’yo maqtov bilan nido qilyapti-yu, aslida hajv uslubi orqali uning ustidan kulyapti.

“Mo’jamul udabo” asarida Nasaviydan shunday hajv keltirilgan¹:

لك تدريس ولكن راء تدريسك لأم
 والذي تملي على الناس كلام لا كلام
 خسرَت بغداد إذ آ وتك فيها والسلام

Sening tadrīs (dars)ing bor, lekin tadrisingdagi “r” harfi “lom”dir,

Sening odamlarga imlo qildirayotganing kalom (gap) emas, “kilom” (jarohatlar)dir.

Agar ahli Bag’dod sening oldingga kelsa, ziyor to-padi, vassalom!

Nasaviy bu misralari bilan o’zini ahli ilmlardan sanab, saboq berish da’vosida xalqni aldayotgan bir “ilmfurush”ni tanqid ostiga olyapti. “Ta’lim, saboq berish” ma’nosidagi تدريس so’zidagi ر (r) harfi ل harfiga almasha, تدليس – *yolg’on, firibgarlik* ma’nosidagi so’z hosil bo’ladi. *Gap, jumla* ma’nosidagi *kalom* so’zi *kilom* deb o’qilsa, “gap” – “jarohat”ga aylanib qoladi.

Mutaxassislar hajvning satiradan farqi hajv konkret

shaxsga qaratilganligida, ya’ni hajvchining maqsadi ijtimoiy hayotdagi muayyan holatni badiiy umumlashtirib, g’oyaviy inkor qilish emas deb ko’rsatadilar. To’g’ri, hajvning konkret shaxsga yo’naltirilgani unda sub’ektivlikning kuchayishiga zamin hozirlaydi, natijada muallifning o’sha shaxsga munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Johiliyat davri arab she’riyatida bu uslub keng tarqalgan. Bunday nazm namunalari hajv orqali raqibni qoralash, sharmanda qilish uchun yolg’onlar to’qish, jismoniy nuqsonlarni yuzga solish, hatto uyatsiz so’zlarni ishlatish ham odatiy hol hisoblangan. Lekin haqiqiy shoirlar hajvga hamisha umummanfaatni ko’zlagan holda qo’l urganlar, tanqid qilinayotgan shaxsda ijobiy xislatni shakllantirish, xalqqa foydasi tegadigan insonga aylantirishni maqsad qilganlar. Hatto shu ezgu maqsad yo’lida nafsini malomat qilish, o’z-o’zini mazammal qilishgacha borganlar. Masalan, Abu Bakr Xorazmiy oddiy shoir bo’lishiga qaramasdan. Umum manfaatni ko’zlagan holda vazir Bal’amiyning hajv qilib aytadi¹:

إن ذا البلعمي ، والعين غين
 وهو عارٌ على الزمان وشينٌ

*Albatta bu Bal’amiydir va “ayn” aslida “g’ayn”dir,
 U zamon uchun uyat va aybdir.*

Agar البلعمي so’zidagi “ayn” harfini “g’ayn” qilib o’qisangiz: “Balg’amiy” bo’ladi. Bu butun boshli vazirga nisbatan qattiq haqoratdir. Abu Bakr Xorazmiy hajviyalarida shu tarzidagi keskinlik, ba’zan odob chegarasidan chiqadigan darajadagi qo’polliklar kuzatiladi. Saolibi o’z tazkirasida uning bunday she’rlaridan namunalari keltirib o’tgan².

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Xorazm arabizabon muhiti shoirlari she’riyatlarini kuzatar ekanmiz, ularda o’ziga xos arab-islom xarakterini, mavzular tanlash, o’xshatish va tashbehlarda ularga taqlidni ko’ramiz, badaviylik ohangini bildiruvchi metaforalar va an’anaviy jihat hukmronligiga guvoh bo’lamiz.

Fikrimizcha, ne’matlarga to’la, dabdabali, ba’zan esa chalg’ituvchi hayot tarzi, Xorazmning ma’nan boy muhiti ham davr arabizabon adabiy muhitining aynan shu tariqa shakllanishida ta’sir ko’rsatgan bo’lishi mumkin, chunki iqtisodiy farovonlik shaxsning shakllanishiga xizmat qilish bilan birga madaniyatga bo’lgan talabni, adabiyotga mehrni ham oshiradi.

Bulardan tashqari madaniy ta’sir omillari, ijtimoiy-siyosiy omillar ham alohida bir tipni tashkil qiladiki, u orqali voqea arabizabon adabiyoti xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash mumkin bo’ladi.

1. عدد من بلغاء إيران. ص ٧٨.

2. Ўша манба. 4 : 207

Diana RUZMETOVA,
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti, stajyor-tadqiqotchi

INGLIZ TILINI O'QITISHDA GRAMMATIK INTERFERENSIYANING OLDINI OLISH TADQIQOTI

Annotatsiya. Mazkur maqola doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari respublikamiz sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonida grammatik aralashuvlarning oldini olish bo'yicha taklif etilayotgan metodikani samarali tadbqiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar tayyorlash imkonini berdi. O'zbekiston. Shu jihatda, tayyorlanayotgan metodikaning maqsadli guruhi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi sharoitidagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar, bo'lajak o'qituvchilar ekanligini alohida ta'kidlash o'rinli ko'rinadi.

Kalit so'zlar: metodologiya, grammatik aralashuv, samaradorlik, modellashirish, didaktika, ingliz tili, pedagogika, oliy o'quv yurtlari.

Abstract. The obtained results of the research conducted within the framework of this article allowed us to prepare practical recommendations for the effective implementation of the proposed methodology for preventing grammatical interference in the process of teaching English to students of higher educational institutions in the conditions of the Republic of Uzbekistan. In this aspect, it is considered appropriate to emphasize that the target group of the prepared methodology consists primarily of students, future teachers studying in higher educational institutions in the conditions of the Republic of Uzbekistan.

Key words: methodology, grammatical interference, efficiency, modeling, didactics, English, pedagogy, higher education institutions.

Аннотация: полученные результаты проведенного исследования в рамках данного состояния позволяют подготовить практические рекомендации для эффективной реализации предложенных методов профилактики грамматической интерференции в процессе обучения английскому языку студентов высших учебных заведений и условий Республики Узбекистан. В данном аспекте подчеркивается целесообразным, что целевую группу подготовленной методики составляют, прежде всего, студенты, будущие педагоги, обучающиеся и высшие учебные заведения и условия Республики Узбекистан.

Ключевые слова: методика, грамматическое вмешательство, эффективность, моделирование, дидактика, английский язык, педагогика, высшие учебные заведения.


Grammatik interferensiyaning oldini olish maqsadida didaktik modellashirish orqali ko'p tillilik muhitida grammatikani o'qitishni tashkil etishning quyidagi asosiy bosqichlari belgilandi:

birinchi bosqich – o'zuvchi izoh bo'lib, bunda kontakt tillar tizimlari, ya'ni o'rganilayotgan, ona tili va avval o'rganilgan tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar haqidagi ma'lumotlar beriladi;

ikkinchi bosqich – grammatik hodisalar bilan ishlash bo'lib, bunda o'rganuvchi tomonidan grammatik hodisalarning mohiyati va o'rganilayotgan tilning tushunchalar tizimini anglab etishi uchun maxsus mashqlar tashkil etiladi va o'tkaziladi;

uchinchi bosqich – mos sharoitlarni yaratish, bunda o'rganuvchilar uchun kundalik amaliyotda va bo'lg'usi kasbiy faoliyatda kechadigan turli kommunikativ vaziyatlarda grammatik hodisalarni mustaqil ravishda qo'llash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ma'lumki, amaliyotda qo'llash huquqi mavjud bo'lgan istalgan turdagi pedagogik ishlanmalar maqsadi bo'yicha samaradorlikka tekshirib o'rganiladi. Grammatik interferensiyaning oldini olish bo'yicha tayyorlangan metodikaning samaradorligini o'rganish maqsadida eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Mazkur ishning tajribalari sxemasi bu kabi tadqiqotlarning klassik tarkibini aks ettiradi (3.1-rasm).



1-rasm. Grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasi samaradorligini eksperimental tadqiq etish sxemasi

Eksperimental tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida tahsil oladigan jami 145 nafar o'g'il va qiz talabalar qatnashdi. Qiyosiy tahlil va ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish jarayoniga ta'sir etuvchi turli xil murakkab omillarni hisobga olish maqsadida eksperimental tadqiqotning ishtirokchilari tanlovi ikki

guruhga ajratildi: ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini o'tkazish jarayonida bevosita ishtirok etgan 72 nafar talabdan iborat eksperimental guruh; ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini o'tkazish jarayonida bevosita ishtirok etmagan 73 nafar talabdan iborat nazorat guruhi. Shu bilan birga, qiyoslash guruhlarini tasodifiy sonlar jadvali yordamida, ya'ni randomizatsiya texnikasini qo'llash orqali tasodifiy tarzda shakllantirildi.

Eksperimental tadqiqotda qatnashgan respondentlar [1, 2], ikki marta, ya'ni grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini o'tkazishdan oldin va keyin baholandi. Baholash jarayoniga ingliz tilini o'qitish bo'yicha salmoqli pedagogik tajribaga ega 26 nafar ekspert jalb qilindi.

Olingan ko'rsatkichlar talqini qiyoslash guruhlarini respondentlarining aksariyat qismida grammatik interferensiyaning o'rta darajasi kuzatilganligini ko'rsatdi (37 kishi – eksperimental guruh 51,4%; 38 kishi – nazorat guruhi 52,1%). Grammatik interferensiyaning o'rta darajasidan yuqoriroq bo'lgan daraja ahamiyati bo'yicha keyingi o'rinda turadi. Bu daraja eksperimental guruh talabalarining 20,8 foizida (15 kishi) va nazorat guruhi talabalarining 20,5 foizida (15 kishi) kuzatildi. O'z navbatida, grammatik interferensiyaning yuqori darajasi eksperimental guruh respondentlarining 19,4 foizida (19,4 kishi) va nazorat guruhi respondentlarining 17,8 foizida (13 kishi) kuzatildi. Shu bilan birga, grammatik interferensiyaning quyi darajalari ham kuzatildi:

O'rta darajadan pastroq daraja eksperimental guruh talabalarining 5,6 foizida (4 kishi) va nazorat guruhi talabalarining 6,8 foizida (5 kishi) kuzatildi.

Quyi daraja eksperimental guruh talabalarining 2,8 foizida (2 kishi) va nazorat guruhi talabalarining 2,7 foizida (2 kishi) aniqlandi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, qiyoslash [3, 4]. guruhlarida grammatik interferensiya darajalari bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar tajribani o'tkazishdan oldin va keyin deyarli farqlanmadi.

Mazkur fakt statistika jihatidan ham tasdiqlanib, bu borada qiyosiy tahlil o'tkazildi. Bunda qiyosiy tahlilning u yoki bu statistika mezonini to'g'ri tanlash maqsadida ularni qo'llash shartlarini hisobga olib, SPSS-23 dasturi yordamida Kolmogorov-Smirnovning noparametrik mezon bo'yicha ekspert baholash natijalarining (tayyorlangan metodikani o'tkazishdan oldin grammatik interferensiyaning namoyon bo'lish darajasi, $n=145$) me'yoriy taqsimlashga mosligini tekshirish uchun

dastlabki tahlil o'tkazildi. Bajarilgan ish natijalariga ko'ra Kolmogorov-Smirnovning noparametrik mezon bo'yicha asimptotik (ikki tomonlama) ahamiyati nolga teng ($r=0,000$), ya'ni 0,05dan kichik ($r<0,05$). Shunga bog'liq holda tahlil qilinayotgan empirik taqsimot me'yordan ancha farqlanishini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Mazkur holatni hisobga olgan holda qiyoslash guruhlarida grammatik interferensiyaning ekspert baholash natijalarini qiyosiy tahlil qilish maqsadida noparametrik statistika, xususan o'zaro bog'liq bo'lmagan tanlanmalar uchun Mann-Uitnining U-mezon qo'llandi. Ushbu mezonni qo'llash natijalari asimptotik (ikki tomonlama) ahamiyati 0,755 teng ekanligini ko'rsatdi, ya'ni 0,05dan katta ($r>0,05$). Shundan kelib chiqib, tayyorlangan metodikani o'tkazishdan oldin va keyin eksperimental va nazorat guruhlarida grammatik interferensiyaning namoyon bo'lish darajalari bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar kuzatilmadi.

Mazkur ish doirasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi sharoitida oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonida grammatik interferensiyaning oldini olishga qaratilgan metodikani samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalarni tayyorlash imkonini berdi. Bu borada, tayyorlangan metodikaning asosiy guruhlarini oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar – bo'lajak pedagoglar tashkil etishini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalarga tayanib, grammatik interferensiyaning oldini olish metodikasini samarali qo'llash bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu ishlanmani qo'llash jarayonida pedagog-o'rganuvchi tizimidagi tayyorgarlik va o'zaro ta'sir jarayonining asosiy strategiyasini mohiyatan aks ettiradigan didaktik va metodik xarakterga ega xorijiy tilni o'qitishning muvofiqlashtirilgan tamoyillari kompleksiga amal qilish maqsadga muvofiq. Maxsus mezonlarni qo'llashni e'tiborga olgan holda tizimlilik, shaxs-faoliyat va eksplitsit yondashuvlariga amal qilish asosida o'rganuvchilarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirishga mo'ljallangan tegishli grammatik strukturalarni ajratish samarali natija beradi. Interferensiyaning oldini olish nuqtai nazaridan grammatik kompetensiyaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: tushunish va unga mos ravishda fikrni ifodalash qobiliyati; grammatika qonunlari va me'yorlariga muvofiq ona tili va o'rganilayotgan tilning grammatik shakllarini ongli qo'llash; tilning grammatik tizimini ichki noverbal bilish; tilning morfologik, sintaktik tizimi va qoidalarini bilish.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Дадаян Э.Г. К вопросу о затрудненном общении на иностранном языке: Меж-вуз. Сб. науч. Ст. – Пятигорск: ПГЛУ, 2004. - С. 78-84.
2. Дечева С.В., Ильина К.А. Явление языкового контакта: проблемы и перспективы исследования. // Вестник Самарского государственного университета. 2015. - №7. - С. 9-15.
3. Динес Л.А., Орлова Н.М. Лексическая система и лексическая интерференция. // Технологии обучения и творческий потенциал учителя: Сб. науч. трудов. Саратов, 2002. Вып. 3. - С. 213-217.
4. Дьяков А.С. Принципы классификации языковых интерференций. // Научный вестник Черновицкого университета. Германская филология: Сборник науч. трудов. - Черновцы, 2000. - № 3. - С. 92-95.
5. Дьяков М.Л. Типология языковых интерференций. // Обучение иностранным языкам и культурам. Материалы международной науч. метод. симпоз.: Пятигорск: ПГЛУ, 2006. - С. 56-60.
6. Жумашева А.Ш. Лингвокультурная интерференция как следствие диалога культур. // Режим доступа: http://www.rusnauka.com/28_OINXXI_2010/Pedagogica/72304.doc.htm

R. X. Jumayev,
BuxDPI, katta o'qituvchi,

SADRIDDIN AYNII ASARLARIDAGI JOY NOMLARINING TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sadrididdin Ayniy asarlaridagi joy nomlari ularning tarixi, guro'hlarga bo'linishi, kelib chiqishi va ahamiyati ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit suzlar: toponim, komonim, nekronim, oykodonom, Muqanna, saroy, Darvozai SHayx Jalol, Baytuttiroz, Qiblai, dorush-shifo, ajam va hokazo.

Аннотация. В данной статье научно и теоретически анализируются названия мест в произведениях Садриддина Айна, их история, деление на группы, происхождение и значение.

Ключевые слова: топоним, комоним, некроним, ойкодonom, муканна, сарой, Дарвозай Шейх Жалал, Байтуттироз, киблай, дорушшифа, аджам и др..

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the names of places in the works of Sadrididdin Aini, their history, division into groups, origin and meaning.

Key words: toponym, komonim, necronym, oikodonym, mukanna, saroy, darvozai sheikh jalal, baytuttiroz, kiblai, dorush-shifa, ajam, and others.

Tarixiy toponimikada O'rta Osiyoning arab tili bilan bog'liq barcha toponimlari eng yosh hisoblanadi. Arab toponimlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular asosan antropotoponimlar bo'lib, ular tarkibiga komonimlar, nekronimlar, oykodonomlar va boshqalar kiradi. Bu islomda deyarli barcha avliyolarning nomlari madrasa, masjid va hokazo deb atalganligi bilan bog'liq qoida tariqasida, ular uchun maxsus qabrlar qurilgan va ularning nomi bilan atalgan, asrlar davomida hurmat ramzi sifatida qo'llanib kelmoqda. Ularning nomlari o'zlari qurgan yoki mudarris bo'lgan madrasalarga ham berilgan va bunday shaxslarning barchasi, odatda, kelib chiqishidan qat'i nazar, arabcha nom olgan. Hozirgi kunga qadar o'zbek va tojikcha nomlar kitobida arab kelib chiqishi antroponimlari katta o'rin tutadi.

Hisori Muqanna. Bu oykodonom so'g'dlarning milliy qahramoni, Muqanna (parda o'ragan) taxallusini olgan Hoshim binni Hakimn sharafiga qo'yilgan. Yozuvchi buni quyidagicha izohlaydi: "Пардаеро, ки занон ба рӯи худ мегиранд, дар забони арабӣ "муқаннаъ" мегуянд ва Муқаннаъ аз ҳамин калима гирифта шудааст, ки "мақнаадор" ё "пардапуш" гуфтан аст [1, 124 b].

Muqanna joylashgan va u himoya qilgan qal'a, va-fotidan keyin uning sharafiga "**Hisori Muqanna**" deb nomlangan.

Mehmonxonai Rahimxon. Yozuvchining yozishi-cha, oykodonom bildirgan bino Buxoro qal'asida joylashgan. U yozadi: "Раҳимхонӣ меҳмонхонае, ки таъсиркунандаи ҳукумати сулолаи манғитиён Раҳимхон бино кардааст" [2, 223 b]. Toponimning turi fors tilidan kelib chiqqan. Mexmonxona so'zi bilan yasalgan. Mehmonxonai Rahimxon "Rahimxon qurgan mehmonxona" termin-ko'rsatkichi bilan ko'rsatilgan.

Saroyi Rashid. Saroy atamasi mehmonxona so'zining sinonimidir. Ilgari sayohatchi va mehmonlar korvonsaroyda tunab qolgan, bundan tashqari deyarli har bir xonadonda mehmonlar uchun bittadan xona bo'lib, "Rashidning mehmonxonasi" deb atalgan, bu madrasai Rashid bilan omonimidir.

Darvozai Imom-xos nom, Buxoro darvozalaridan biri. Imom diniy atama bo'lib, "musulmonlarning ruhiy boshlig'i (shialar orasida)" ma'nosini bildiradi, lekin shaxsiy ism ham bo'lishi mumkin. Fors tilidan olingan atama ma'nosi "Imom darvozasi". Mikrotoponimning asl nomi Fegaskun darvozasi [3, 153-154b].

Darvozai Shayx Jalol mikrotoponimi komponentlari shayx - "diniy unvon va jalol" buyuklik, kattalik, ulug'lik atamasidan iborat; ulug'vorlik, dabdaba". Erkak ismi sifatida ham qo'llangan. Bu antroponimning kelib chiqishi haqida O. G'ofurov shunday yozadi: "Асли ин ном аз Шаҳобхон Фахрии Ҷалолуддавла, Ҷалолуддин ва Ҷалолуллilha мебошад. Ин лақабоҳо аввал ба ҳақимони мустабил тааллуқ ар арабӣ "бузургӣ, тавоноӣ, ҳашамат" мешавад [4, 173 b]. Antroponimdan toponimni aniqlash uchun ko'rsatkich terminini keltirish lozim.

Guzari Ja'farxo'ja. Bu Buxoro shaharidagi xoronimdir. U ko'rsatkich guzar "chorak" atamasi va "far" antroponimidan iborat bo'lib, u bilan xoja birga o'sgan - unvon. Ja'far so'zi dastlab "oqim, ariq" ma'nosini ham bildirgan mahalla yoki shahardagi taniqli shaxs.


Rayoni Ziyouddin xoronimi Buxoro viloyatida joylashgan. U indikator tuman atamasi va Ziyouddin "din nuri" (islom ma'nosi) antroponimidan iborat.

Dehai Nurato. Komonim ikki arabcha so'zdan iborat: nur, ato -berish. B.V.Bartold yozadi: "Buxoro viloyati tarkibiga kirgan, lekin unga tegishli bo'lmagan Nur hududi alohida o'rin tutgan. Zarafshon havzasi, hozirgi Nur-Ota; islom dinining ilk asrlarida ham muqaddas qabrlari bilan mashhur bo'lib, ziyoratgoh bo'lgan" [5, 204-bet].

Guzargohi Mahram. Mikrotoponim guzargoh "o'tish" ko'rsatkich termini va Mahram xos ismidan kelib chiqqan bo'lib, ikki ma'noni bildiradi 1)"xizmatchi; taxmini"; 2) yaqin, qarindosh".

Korgohi Baytuttizor. Ergonim Buxoroda. To'g'ri ot korgoh "ishxona" ko'rsatkich atamasi va "qavatli uy" ma'nosini bildiruvchi baytuttiroz birikmasidan iborat.

Qishloqi Qiblai. Komonim Dushanbe shahri yaqinida joylashgan. Qibla "musulmonlarning namoz o'qish uchun yuzlarini o'g'irgan tomoni" va qishloq so'zlaridan yasalgan.



Dehai Tavois. Hozirgacha Buxoro viloyatidagi Zarafshon daryosi bo'yidagi qishloq shu nom bilan mashhur. Muhammad Narshaxiy bu belgi haqida shunday deydi: "Tavoisa boshqa qishloq. Ilgari Arkud deb atalgan (Yoqut Ardud — Kermine yaqinidagi qishloq, Buxoroga yo'l bo'yida). Bu qishloqda dabdabali yashagan boylar bo'lgan. hashamat belgilaridan biri har bir uy egasi 1-2 tovuşni uyda saqlashi edi".

Arablar ilgari tovuşlarni ko'rmagan, bu qishloqda bunday qushning ko'pligini ko'rib, qishloqni "zat-i-tavois", ya'ni. "tovus ko'p bo'lgan joy" deb nomlagan. Tez orada qishloqning avvalgi nomi unutilib, "Zat-i" so'zidan voz kechilib, qishloq Tavois deb atala boshlagan.

Misr. Makrotoponim Afrikaning shimoli-sharqiy qismidagi davlatning nomi. Misr arabcha so'z bo'lib, "ikki davlat o'rtasidagi chegara, shahar" degan ma'noni anglatadi. Bu mamlakat haqida "Xudud — ul-olam"da ma'lumotlar bor".

Mashhad. V. V. Bartoldning yozishicha, "Sharqda Nishopurdan Tus shahri bo'lib, unga yaqin joyda,

818-yilda vafot etgan shia imomi qabri atrofida Mashhad paydo bo'lgan, hozirgi kunning asosiy shahri. Xuroson. Sobiq Tus hozir Mashhad tarkibiga kiradi. Shu muallif "Mashhad shahidlik joyidir [6, 190-bet]. V.I.Savina bunga qo'shimcha qiladi: "Mashhad — e'tiqod yo'lida shahidning o'lgan joyi; musulmon avliyosining qabri, ziyoratgohi, qabri.

Madina. Arabistondagi yana bir mashhur shahar Madina astonimidir. Muhammad shu shaharda dafn etilgan. Madina arabcha "shahar" degan ma'noni anglatadi. To'g'ri ism keladi. E.M.Pospelovning yozishicha: "Islomgacha arablar bu shaharni Yasrib deb atashgan. 622 yilda Muhammad unga kirgach, "Madina-an-Nabiy" — "payg'ambar shahri" - yoki madina Rasul-Alloh "Allohning elchisi shahri" deb nomlangan. Biroq qisqartirilgan el-Madina nomi va uning inglizcha shakli Madina, oddiygina "shahar" degan ma'noni anglatadi.

Iroqi Ajam. Oykonim ikki appellativdan iborat: iroq "qirg'oq"; "yon", Dajla va Furot o'rtasida joylashgan, ya'ni Mesopotamiyada va ajam "forslar", ya'ni Iroqi Ajam "forslar mamlakati". Shuni qo'shimcha qilish kerakki, forslar mamlakatini forslarning o'zi emas, balki arablar Ajam deb atashgan, ular dastlab arab bo'lmaganlarni Ajam deb atagan. Ular bu mamlakatni qo'lga kiritganlarida, yangi qo'lga kiritilgan erlarni farqlash uchun forslar diyori deb atashgan, ya'ni Iroqi Ajam. Vaqt o'tishi bilan forslarning o'zi ham o'z mamlakatlari va xalqlarini ko'rsatish uchun ushbu o'ziga xos ifodadan foydalana boshlagan. Endi bu so'z ishlatiladi va "qadimgi/qadimgi odamlar" ni bildiradi. Ilmiy va adabiy asarlar, jumladan A. Tursunovning monografiyasi ("Ehyoi Ajam", 1984) bo'lib, undagi sarlavhalarda Ajam so'zi ishlatilgan. Arabcha Ajam so'zi ham o'rmon; arab bo'lmagan xalqlar; Fors-tojikzabon xalqlar" degan ma'noni bildiradi.

Madrasai Dorushshifo Buxoroning oykodonimidir.

Madrasa atama-ko'rsatkichi "dor" ko'p ma'noli so'zdir: 1) daraxt; dargoh; 2) uy, maydon; ko'chma ma'nolari ham ko'p", shifo esa "shifo. Katta ehtimol bilan bu madrasa **Dorushshifo** "kasalxona" deb atalgan, chunki bu erda ba'zi tabiblar yashab, odamlarni o'qitib, davolagan va bu madrasa nomida ham o'z aksini topgan. .

Hozir bu nom Arabistonning o'zida, shuningdek, kasalxonalar "**Dorushshifo**" deb ataladigan Eron va Afg'onistonda keng qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, Sadriddin Ayniy asarlarida O'rta Osiyodagi joy nomlari va ularning kelib chiqishi, tarixi, asarlaridagi qahramonlarning shu joy nomlari bilan bog'liq voqia hodisalar haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Айни Садриддин. Исёни Муқаннаъ. —Душанбе: Маориф, 1978, -168 с.
2. Айни Садриддин. Куллийёт. Ҷ.6, Душанбе, "Ирфон", 1966, с. 7–191.
3. Бартольд В.В. Сочинения, т.1)Туркестан в эпоху монгольского нашествия. —М.: изд.вост.лит-ры,1963.-760 с.
4. Ғафоров Р. Нависанда ва забон. — Душанбе: Ирфон, 1977.-208 с.
5. Бартольд В.В. Сочинения, т.3) Работы по исторической географии.—М.: Наука,1965.-711 с.
6. Мурзаев Э.М. В сердце Азии. —М.: Наука,1990.-176 с.

Nazira BERDIYEVA,
TerDU ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRI TARAQQIYOTIDA BADIY PSIXOLOGIZMNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy ijod, har bir yozuvchining badiiy-estetik olami, Murod Muhammad Do'st asarlaridagi psixologik tahlil usullarining yangi qirralarini qiyosiy o'rganish, badiiy psixologizm inson botini, ichki olami va ruhiyatiga daxldorligini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: badiiy psixologizm, psixologik tahlil, inson xarakteri, badiiy obraz, psixologik tasvir, psixologik muammo.

Annotation. In this article, an attempt was made to reveal artistic creativity, the artisticaesthetic world of each writer, the comparative study of new aspects of psychological analysis methods in the works of Murad Muhammad Dost, and the influence of artistic psychology on the human soul, inner world and psyche.

Key words: artistic psychology, psychological analysis, human character, artistic image, psychological image, psychological problem.

Milliy istiqloлга erishgan yangi O'zbekistonda Uchinchi Renesans tamal toshi qo'yilayotgan davrda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash va «Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, teatr, musiqa, tasviriy san'at va boshqa san'at turlarini rivojlantirishga, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratish»ga da'vat etildi.

Badiiy ijod idividual hodisa, har bir yozuvchining badiiy-estetik olami o'ziga xos bo'lib, ijodkor asarlaridagi psixologik tahlil usullarining yangi qirralarini qiyosiy o'rganish san'at namunasining mohiyatini teran idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy psixologizm inson botini, ichki olami va ruhiyatiga daxldor keng qamrovli tushuncha bo'lib, u nafaqat qahramon balki muallif qalbi va ruhiyatiga ham daxldor.

«Badiiy asarda to'laonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri» bo'lgan badiiy psixologizm qahramon ruhiyati, xatti-harakatlari, mimikasi, nutqini asoslab beradi. Bunda obyekt va subyekt, muallif va qahramon ruhiyatining turli ko'rinishlari adabiy portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, hissiy harakatlar, peyzaj, gallyutsinatsiya kabi vositalar orqali badiiy sintezlashgan holda yuzaga chiqadi.

«Adabiyotshunoslik lug'ati»da badiiy psixologizmning dinamik, tipologik, analitik turlari ko'rsatilgan. Adabiyotshunos N. Qobilova mazkur hodisalarni quyidagicha tushuntiradi: «Dinamik prinsip – qahramonlarning ruhiy qiyofalarini ularning xatti-harakatlari, qiliqlari orqali ochib bersa, analitik prinsip – qahramonlar ichki dunyosini ularning xatti-harakatlari, qiliqlari orqali ochib berish bilan birga, fikrlar va hislar oqimini, dialektikasini ham ko'rsatib beradi. Tipologik prinsip – qahramon ruhiyatini u shakllangan va harakatlanayotgan muhit shart-sharoitlari bilan bog'lagan holda tasvirlash». Mazkur prinsiplar sinkretik holda yuzaga chiqar

ekan, ularning bittasi yetakchilik qiladi, qolganlari esa uni to'ldiradi.

Yozuvchi qahramon ichki olamining psixologik tasvirini bevosita («ichki monolog», ong oqimi tarzida yoki muallif tili) va bilvosita (hatti-harakatlari gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari(mimika) undagi fiziologik o'zgarish) tasvirlab beradi.

Adabiyotshunos H.Umurov inson psixologiyasi tasvirining badiiy adabiyotdan o'z qonuniy o'rnini egallashi nemis sentimentalizmi va ingliz «gotik roman»ining maydonga chiqishi bilan bog'liq; to bunga qadar – Aristotel davri uchun tashqi hodisalarni badiiy tasvirlash – mimesis; klassitsizm davri uchun esa «tafakkur qonuni» birinchi o'rinda bo'lganligini qayd etadi.

Turli tarixiy davrlarda to'plangan tajriba, o'z asriy an'analarga ega turkiy adabiyot XX asrda turli ijtimoiy qarama-qarshiliklarga qaramasdan yangi, bir-birini takrorlamaydigan yo'nalishlarni bosib o'tdi.

Turkiy adabiyotning eng qadimgi namunalari badiiy psixologizmning ilk kurtaklari, so'zning sehrli tovlanishlari, ruhiy holat bilan bog'liq evrilishlari, olamni anglashga intilayotgan nisonning ichki kechinmalari samoga, osmon jismlariga, tabiat hodisalariga, daraxtlarga, qushlarga, toshlarga, olovga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.

Fitrat badiiy psixologizmni o'rganar ekan, uning tarixiy ildizlari haqida shunday yozadi: «O'rxun-Ensoy obidalaridan tortib, Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asaridagi she'r, maqol, qo'shiqlar, qasida, muhozara kabi she'riy parchalarda ham o'sha davr kishilarining individual-psixologik holatlari, xatti-harakatlari, idroklash va munosabatlari o'ziga xos tarzda aks ettirilganiga guvoh bo'lamiz.

Badiiy psixologizm inson xarakteri bilan bog'liq bo'lganligi sababli badiiy obrazni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmidan keyin o'zbek adabiyotshunosligida bu masalaga e'tibor

qaratila boshlangan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Xamsa”sida badiiy psixologizm tiplarini tadqiq etgan Yoqubjon Ishoqov “Psixologizm xarakter yaratishning muhim vositalaridan biri”, – deb ta’kidlaydi.

H.Umurov badiiy psixologizm rus adabiyotshunosligida XIX asrda N.Chernishevskiyning ilmiy izlanishlarida o’rganila boshlanganligi, o’zbek adabiyotshunosligida bu jarayon XX asrning 60-yillarida amalga oshirilganligini ta’kidlaydi. Munaqqid 1983 yilgacha yaratilgan nazariy adabiyotlarda: “Badiiy psixologizm haqidagi fikr-mulohazalarga duch kelmaymiz. Bu esa, o’z navbatida, nazariya bilan praktika o’rtasida katta “uzilish”ni yuzaga keltirmoqda”, – deb yozadi. Shuningdek, keyingi yillarda nashr qilingan nazariy adabiyotlarda ham bu masala nazardan chetda qolgan.

Psixologik tasvir deganda esa, personaj jismoniy jihatlar (his-tuyg’ulari, kechinmalari, holatlari) va uning ma’naviy-psixologik olamidan chiqib keladigan shaxsiy tajribasining badiiy tadqiqini tushunamiz.

Fransuz psixologik romani tadqiqotchisi N.V.Zababurova psixologizmni o’rganishda asarni darajama-daraja tahlil qilishni ko’zda tutuvchi kompleks yondashuvni taklif qiladi:

1) psixologik muammo turi. U muallif dunyoqarashi va badiiy tafakkurini belgilovchi noadabiy (tarixiy-ijtimoiy, falsafiy, ilmiy) va adabiy (adabiy an’analar, yozuvchi mansub muayyan adabiy oqimning estetik konsepsiyasi va boshq.) omillarning ta’sirini aks ettiradi. Mazkur problematika psixologizm uchun jiddiy ahamiyat kasb etadigan masala – asarning qaysi janrda yozilishi maqbulligini ko’p jihatdan ta’minlaydi;

2) muayyan davr va ijtimoiy muhitga mansub shaxs konsepsiyasini vujudga keltiradi (badiiy mazmunda va ichkini ro’yobga chiqarish shakllarida amalga oshadi);

3) badiiy tizim va ijodiy metod munosabati yuzaga keladi (badiiy psixologizm usullarining tarixiy tipologiyasi ijodiy metodlar tadrijiy taraqqiyoti bilan o’zaro taqqoslanadi);

4) poetika darajasi (badiiy saviya) e’tiborga olinadi. Bunday yondashuvning algoritmik jihatdan maqsadga muvofiqligiga e’tiroz bildirish mumkin, albatta. Lekin shunisi ayonki, u yoki bu asardagi psixologizm tahlilining mahsuldorligi badiiy matn va uni ko’rib chiqishning

yaxlitligiga yo’nalganligi (A.P.Skaftimov, Y.M.Lotman, M.M.Grishman, A.N.Andreyev) bilan bog’liq. L.Y.Ginzburg “Psixologik tahlil to’g’ridan-to’g’ri muallif yoki qahramonlar o’z-o’zini taftish qilishi shaklida yoki bilvosita – qahramonlar xatti-harakatini, kechmishlarini tasvirlash orqali amalga oshiriladi”, deya fikr bildirsa, I.V.Straxov psixologik tahlilni xarakterlarni tasvirlashning “botiniy” (harakatdagi shaxslarning ichki nutq, xotira obrazlari va tasavvurlari orqali ifodalanadigan ichki olamini kashf etish) va “zohiriy” (nutq, nutqiy o’zini tutish, mimika va psixikaning tashqida aks etadigan boshqa vositalari ifodaviy o’ziga xosligining yozuvchi tomonidan talqin etilishi) turlariga ajratadi. I.V.Straxovning fikriga qo’shilgan holda, adabiyotshunos A.B.Yesin psixologik tahlilning uchinchi – “jamlovchi-belgilovchi” (summarno-oboznachayushey) shakl bilan to’ldirishni taklif qiladi (personaj fikrlari va tuyg’ulari haqida ichki olamda kechayotgan o’sha jarayonlarni qisqacha tavsiflash, belgilash orqali kitobxonga xabar berish usuli). E’tibor bersak, adabiyotshunoslar psixologik tahlilning uch asosiy – bevosita, bilvosita va “jamlovchi-belgilovchi” shaklini tasniflashadi.

Bu aniq va sodda tavsif barcha xalqlar, barcha asrlar adabiyoti namunalariga, jumladan, minglab yillar bilan o’lchanadigan fenklar namunalariga ham xos bo’lgan xususiyatlardir. Aslida yozuvchining, shoirning, dramaturgning san’atkorligi tasvirlayotgan qahramonining ana shunday ruhiy olami manzaralarini qay tarzidagi tasvirlay olishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda, adabiyotning, badiiy adabiyotning psixologiya fani bilan boshqa fanlardan ham ko’ra eng yaqin sohasi mustahkam aloqadorligi e’tiborlidir. Psixologiya inson ruhiy olami tizimini tadqiq etsa, badiiy adabiyot esa shu psixologik olamni badiiy jihatdan poetika (obrazlilik) nuqtai nazaridan turib talqin etadi. Atoqli adib psixologik mahoratning mohir ustasi Abdulla Qahhor “Psixologizm - ... yozuvchilik mahoratining eng muhim jihatidir”, – deb uqtirgan edi.

Darhaqiqat, dunyoviy taniqli so’z san’atkorlari asarlarining umrboqiyli, xalqchilligi avvalo g’oyaviy ko’lamini, obrazlar xarakter-xususiyatini psixologik jihatdan qay tarzda mufassal tasvirlay olganliklari bilan bevosita bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.[www.http://prezident.uz/uz/lists/view/137](http://prezident.uz/uz/lists/view/137).
2. Quronov D. Mamajonov Z, SHeraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. T.:Akademnashr, 2010. 50- b
3. Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. fil. fan. falsafa doktori (PhD) dissertatsiya.Buxoro – 2020. 12-b
4. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o’zbek romanchiligi. – T., Fan, 1983. – B.11-12
5. Ishoqov Y. “Xamsa”da badiiy psixologizm tiplari // Alisher Navoiy “Xamsa”si (tadqiqotlar). – T.: Fan, 1986. – B.64.
6. Jumaboyeva J. XX asr o’zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati: Filol. fan. doktori ... diss. avtorefer. – T., 1999. – B.7-9.
7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: “O’AJBNT” markazi, 2003; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004; Sulaymonov Sh., To’xsonov Q. Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug’ati. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2009. – 160 b.

Lola IDIYEVA,

A teacher at the department of the "Uzbek language and literature, foreign language" of Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National Research University of Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization of Engineers

RUSSIAN POLYSEMY AND THEIR DESCRIPTION IN SENTENCES

Annotatsiya. Maqola ko'p ma'noli so'zlar haqida. Ma'lumki, so'zlar bitta ma'no va ko'p ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ko'p ma'noga ega bo'lgan so'zlar polisemiya deb ataladi. Polisemiyaning o'rganish shuni ko'rsatadiki, tilning boyligi va xilma-xilligi so'zlarning sonida emas, balki ularning ma'nolarining xilma-xilligida, bitta so'zning turli xil sharoitlarda ochib berilishidadir. Maqolada rus tilidagi ko'p ma'noli so'zlarga oid misollar keltirilgan va gaplar orqali tushuntirish berilgan.

Kalit so'zlar: polisemiya, ma'no, kontekst, so'zlar, leksik birlik, omonimlar, so'zning ildizi.

Annotation. The article is about polysemy. As we know words can have one meaning and many meanings. These words which have many meanings are polysemy. The study of polysemy shows that the richness and diversity of language lies not in the number of words, but in the diversity of their meanings, in the ability of one and the same word to be revealed in different contexts. In this article we have some examples of polysemy of the Russian language and given sentences to explain them.

Keywords: polysemy, meaning, context, words, lexical unit, homonyms, root of the word.

Аннотация. Статья о полисемии. Как мы знаем, слова могут иметь одно значение и много значений. Эти слова, которые имеют много значений, являются полисемией. Изучение полисемии показывает, что богатство и разнообразие языка заключается не в количестве слов, а в разнообразии их значений, в способности одного и того же слова раскрываться в разных контекстах. В статье приведены примеры полисемии русского языка и даны предложения по их объяснению.

Ключевые слова: полисемия, значение, контекст, слова, лексическая единица, омонимы, корень слова.

Words can be classified as single- and multi-valued (polysemantic). In the Russian explanatory dictionary by V. V. Lopatin and L. E. Lopatina we can find out that out of approximately 300 words on the letter A 230 (75%) are single-valued and 70 (25%) are polysemous.

Polysemy is the ability of a lexical unit to have two or more meanings. It is especially characteristic of common nouns, adjectives and verbs. Thus, the noun "day" in the same dictionary is marked in five meanings: a part of the day from sunrise to sunset, from morning to evening; a day; a period of time within a day occupied by some activity; a calendar date associated with some events; time.

The adjective чёрный (black) is recorded in seven meanings: soot, coal; dark as opposed to something lighter, called white; darkened; gloomy, dreary, heavy; criminal, wicked; not in charge, auxiliary; physically heavy and unskilled (цвета сажи, угля; темный в противоположность чему-нибудь более светлому, называемому белым; принявший темную окраску, потемневший; мрачный, безотрадный, тяжелый; преступный, злостный; не главный, подсобный; физически тяжелый и неквалифицированный). The verb идти (to go) is given in 23 meanings: to move overfoot; to move, to move; to set off, to go somewhere; to move, to develop in some direction; to act in some

way, (двигаться, переступая ногами; двигаться, перемещаться; отправляться, направляться куда-нибудь; двигаться, развиваться в каком-нибудь направлении; поступать каким-нибудь образом) etc. All the meanings of a word form its semantic structure.

Polysemy (polysemy) (gr. poly - many + sema - sign), is the property of words to be used in different meanings. Thus, the word "root" in the modern Russian language has several meanings:

1) the inner part of the nucleus in the hard cover: А орешки не простые, все скорлупки золотые, ядра - чистый изумруд (П.); 2) the basis of something (bookish): На Волге было уничтожено ядро фашистской армии; 3) The central part of something (special): ядро атома; 4) an ancient weapon tool in the form of a round molded body: Катятся ядра, свищут пули, нависли хладные штыки (П.). The semantic connection of the highlighted meanings is close, so they are all considered as meanings of the same word.

The word труба, for example, in the phrases водопроводная труба or подозрительная труба has the meaning "a long, hollow, usually circular object". The word труба is also a brass musical instrument with a strong, resonant timbre: Творец мой! оглушил, звончее всяких труб! (Гр.). This word is also used in a special meaning, such as "a channel in the body

for communication between organs", e.g., евстахиева труба.

Thus, a word in the course of its historical development, in addition to its original meaning, may acquire a new, derivative meaning.

The ways in which the meanings of words are formed are different. A new meaning of a word may arise, for example, by transferring a name by the similarity of objects or their features, i.e. metaphorically (from Gr. metaphora - transfer). For example; by similarity of external features: nose (human) - nose (ship) (нос (человека) - нос (корабля)), shape of objects: apple (antonovka) - apple (eye) (яблоко (антоновское) - яблоко (глазное)), by similarity of sensations, evaluations: warm (current) - warm (participation) (теплое (течение) - теплое (участие)), etc. The names may also be transferred according to the similarity of functions performed (i.e. functional transfers): feather (goose) - feather (steel) (перо (гусиное) - перо (стальное)), conductor (an official accompanying a train) - conductor (in technology - a fixture guiding a tool) (кондуктор (должностное лицо, сопровождающее поезд) - кондуктор (в технике - приспособление, направляющее инструмент)).

A new meaning may arise as a result of associations by proximity (so-called metonymic transfer, Greek metonymia - renaming). For example, the name of a material is transferred to a product made of that material: Bronze chandelier (material name) - люстра из бронзы (название материала) - В антикварном магазине продавалась старинная бронза (изделие из этого материала) (product made of this material). In a metonymic way, various kinds of co-definitions (Gr. synekdochē) also arise, i.e. naming with one word an action and its result, compare: заниматься вышивкой (to engage in embroidery) - an exhibition of artistic embroidery; part and whole (and vice versa), compare: Мелькали бушлаты с бескозырками и серые шинели (i.e. sailors and infantrymen; in this case, a person is named by the part of the garment), etc.

The different meanings of a word, as well as their connotations, constitute its so-called semantic structure and serve as a vivid example of the manifestation of systemic connections within a single word. It is this type of relationship that allows writers and speakers to make wide use of multiple meanings both without a particular stylistic purpose and for a specific purpose: to add expressiveness, emotionality, etc. to speech.

When the semantic links between different mean-

ings are broken or completely lost, it is possible to refer to an already known word as a completely different concept, object, etc. This is one way of developing new words-homonyms.

Different types of words in the Russian language have polysemy developed to varying degrees. If we compare the degree of polysemy development in different parts of speech, verbs come first, then nouns and adjectives, followed by adverbs, interjectives, numerals, conjunctions and particles. Borrowed words are more concrete and unambiguous (активизировать, аккредитовать) than native Russian words (бежать, играть, брать). This fact can be explained by the fact that Russian words are the most understandable for a Russian-speaking person, so they are most often used in speech, which implies a variation of meanings of the same word. The assessment of polysemy gives rise to conflicting opinions among linguists. Some scholars believe that in an "ideal" language, a word should have only one meaning, and that there should be a special name for each meaning. However, this may seem convenient only at first glance, in fact the "unambiguity" of words would diminish the possibilities of the language, depriving it of its national originality.

Most scholars rightly see the multiple meanings of words as a manifestation of the strength, not the weakness, of the language. According to some linguists, about 80 per cent of all words in Russian have more than one meaning. There is no way to count them, and not because some words have too many of these meanings (sometimes up to forty), but because the language is constantly replenished with new lexical meanings, which dictionaries do not even have time to record. [1, c. 24-27]. The study of polysemy shows that the richness and diversity of language lies not in the number of words, but in the diversity of their meanings, in the ability of one and the same word to be revealed in different contexts. Multisimilarity provides not only different semantic shades and room for lexical reserves, but also helps to save verbal means to convey a variety of meanings. Polysemy can be a source of enriching the vocabulary of a language with new words. Based on the above, we can conclude that polysemy is only a phenomenon that is capable of representing various objects and processes with one word, but an opportunity to enrich and diversify the palette of speech, to add semantic shades, to give it new lexical meanings.

References

1. Valgina N.S. Active processes in contemporary Russian. – Moscow: Logos, 2001.
2. Vinogradov V.V. Materials and research in the field of historical lexicology of the Russian literary language // Vinogradov V.V. Selected Works. Lexicology and lexicography. – Moscow, 1977.
3. Novikov L.A. Semantics of the Russian language. – Moscow, 1982.
4. Rosenthal D.E., Golub I.B., Telenkova M.A. Modern Russian language. – Moscow: Iris-Press, 2002.
5. Explanatory Dictionary of Russian Language / Edited by D.N.Ushakov. – Moscow, 1980.
6. Modern Russian literary language - URL: <http://any-book.org/download/11099.html>

Rasul ALIMOV

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs

USMONLI TURK SHOIRI LARENDELI HAMDIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDAGI QASIDALAR BADIYYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Larendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" asari muqaddima qismidagi qasidalar badiiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola muallifi mumtoz poetikadagi ilmlar uchligi asosida qasidalarini vazn, badiiy san'atlar va qofiya bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: poetika, janr, bayt, vazn, badiiy san'atlar, qofiya, qasida.

Annotation: In this article, the odes in the prologue of Larendeli Hamdi's work «Layli and Majnun» are artistically analyzed. The author of the article paid special attention to aspects related to weight, artistic arts and rhyme of odes based on the three sciences of classical poetics.

Keywords: poetics, genre, byte, weight, art, rhyme, poem.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni o'zbek tilida shu mavzuda yaratilgan ilk dostonidir. Navoiydan so'ng o'zbek, shu jumladan, usmonli turk adabiyotida ham bir qancha "Layli va Majnun"lar bitildi. "Turk olimi O.S.Levendning yozishicha, usmonli turk adabiyotida "Layli va Majnun" dostonlari yozgan shoirlarning soni 20 dan ortadi" [Levend 1959]. Shunday shoirlardan biri Larendeli Hamdiydir. Larendeli Hamdiyning hayoti haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar mavjud emas. Biz adibning "Layli va Majnun"ida keltirilgan qasidalaridan biri bag'ishlangan, Karaman voliysi, sulton Selim II ning shahzodalik vaqtida ijod etganligi; yuqorida nomi zikr etilgan asarning fanga ma'lum bo'lgan yagona nusxasining 1542-yilda yaratilganligi kabi ma'lumotlarni umumlashtirib, shoirming XVI asrda yashaganligi haqidagi ma'lumotlarni keltirish bilan cheklanib, bevosita asardagi she'r navlari (qasidalar)ning ilmlar uchligi (aruz, badi' va qofiya ilmi) bo'yicha tahliliga kirishamiz.

Asar tarkibi faqat masnaviydangina iborat bo'lmay, boshqa she'r navlari, xususan, muqaddima qismida a-a, b-a, d-a tarzida qofiyalanuvchi to'rtta qasida, asosiy qismida esa aruzning turli bahrlarida yozilgan besh g'azal ham keltiriladi. Biz ushbu kichik ilmiy ishimizda muqaddima qismidagi qasidalar badiiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Birinchi qasida 19 baytdan iborat bo'lib, Allohga hamd yo'nalishida yozilgan. U quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*ly Kerim-i kâr-sâz u zû'l-celâl ü bî-zevâl
iy 'Âlîm-i bî-niyâz ü lâ-yezâl ü zû'l-cemâl.*

Qasida aruzning ramali musammani maqsur (afoili: foilotun / foilotun / foilotun / foilon; taqti'si: - V - - / - V - - / - V - - / - V - -) vaznida yozilgan. Hamdiyning ushbu qasidasi tuzilishiga ko'ra qasidaning **qasidayi mujarrada**, mavzusiga ko'ra esa **madh (hamd)** turiga mansub. Qasida hajman yirik bo'lgani bois baytlarni badiiy san'at nuqtayi nazaridan alohida-alohida tahlil qilmay, ko'p qo'llanilgan badiiy san'atlar nomini umumiy berib o'tishni joiz topdik. Qasidaning birinchi baytida **zulqavofiy**, **tanosub**, **talmih**, qolgan baytlarida esa yuqoridagi badiiy san'at navlari bilan bir qatorda **tashbih**, **tazod**, **husni ta'lil** ham keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiyshunoslik / Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Aruz va mumtoz poetikaga kirish / Dilnavoz Yusupova. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 304 b.
3. Алишер Навоий: қомусий луғат/ Масъул муҳаррир: Ш.Сирожиiddинов. -Т.: «Шарқ», 2016. - 480 б.
4. Levend Agah Sirri. 1959. *Arab, fors ve türk edebiyatlarında Leyla ve Mecnun hikayesi*. Ankara.
5. Saber, Belal. 2004. *Leylâ ile Mecnûn Mesnevisinin Arap, Fars Ve Türk Edebiyatı'nda Ele Alınış Biçimi ve Larendeli Hamdi'nin Eseri*. Doktora Tezi. İstanbul.

Qasida qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra **murda** qofiya turiga kiradi.

Muqaddimadagi ikkinchi qasida "Kasîde der sifât-i hâtemü'n-nebiyyîn 'aleyhi's-selâm" deb nomlanib, Payg'ambar (s.a.v) madhiga bag'ishlangan. Qasida 32 baytdan iborat, aruzning muzori' bahrida yozilgan (maf'uvlu / foilotun / maf'uvlu / foilon; taqti'si: - - V / - V - - / - - V / - V - -). U quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Yâ seyyîde'l-halâyik yâ mefhare'l-lümem
Yâ mazhare'l-halâyik yâ dâfi' a'z-zulem.*

Qasidaning juda ko'p o'rinlarida biz yuqorida sanab o'tgan badiiy san'atlar, shu jumladan, talmih san'ati (Arab, Acem, Âdem, Ka'be, Bihişt, Medîne, Harem, Mi'râc v.b), shuningdek, tashbihning go'zal namunalarini qo'llanilgan. Qasida qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra **mujarrad qofiya** turiga kiradi.

Keyingi qasidalar sulton Sulaymon (Kasîde Der Sifat-i Pâdishâh-i 'Âlem-penâh Hazret-i Sultân Süleymân) va shahzoda Salim (Kasîde Der Na't-i Şehzâde-i Cevân-baht Hazret-i Sultân Selîm tavvelallâhu 'ömrehü) madhiga bag'ishlangan. O'n besh baytlik birinchi qasida ramali musammani maxbuni maqtu' (foilotun / failotun / failotun / fa'lun; - V - - / V V - - / V V - - / - - vaznida yozilgan bo'lsa, ikkinchisi ramali musammani maqsur vaznida bitilgan, o'ttiz bir baytdan iborat. Har ikki qasida ham qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra **mujarrad qofiya** turiga kiradi. Ikkalasida ham yuqorida sanab o'tilgan badiiy san'atlar yetakchilik qiladi. Adib ushbu qasidalarida zamona hukmdor va shahzodalarining yaxshi va xayrli amallari sanaydi, ularga ezgu tilaklarini tilab, qasidani tamomlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Larendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" dostonida keltirilgan qasidalarining uchitasi ramal, bittasi muzori' bahrida; qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra **mujarrad**, **murda** qofiya turlari yozilgan; asarda badiiy san'atlarning tashbih, tanosub, talmih, tazod, husni ta'lil, zulqavofiy singari o'nga yaqin turlaridan mohirona foydalanilgan. Bu esa shoirming yuksak badiiy mahoratidan dalolatdir.

To'liqin ALLAYOROV,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti
f.f.f.d., (PhD)

INTERROGATIV QURILMALARDA SHAKLIY VA MAZMUNIIY MUVOFIQLIK MASALASI

Annotatsiya: maqolada nasriy asarlarda qo'llanilgan so'roq birliklarining shakliy va mazmuniy muvofiqligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: interrogativ konstruksiyalar, shakliy va mazmuniy muvofiqlik, nomuvofiqlik, ritorik so'roq gap, lingvopoetika.

Keywords: interrogative constructions, formal and substantive correspondence, inconsistency, rhetorical question, linguo-poetics.

Annotation: the article discusses the formal and substantive compatibility of the interrogative units used in prose works.

Аннотация. в статье рассматривается формальная и содержательная сочетаемость вопросительных единиц, используемых в прозаических произведениях.

Ключевые слова: вопросительные конструкции, формальное и содержательное соответствие, несоответствие, риторический вопрос, лингвопоэтика.

O'zbek tilshunosligida so'roq gaplarda emotsional-ekspressiv fikrning ifodalanishi, so'roq gaplarning mazmuniy mundariyasi, so'roq gaplarda tasdiq va inkorning ifodalanish xususiyatlari bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Lingvopoetika va lingvokulturologiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham interrogativ konstruksiyalarning o'ziga xos qirralari tahlilga tortilgan. Tilshunos A.Abdullayev "Ritorik so'roq gaplar emotsional-ekspressiv fikr ifodalash vositasi sifatida" nomli maqolasida ritorik so'roq gaplarning semantik va grammatik xususiyatlariga to'xtaladi. Olim 1983 yilda "O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi" nomli monografiyasini e'lon qildi. (Abdullayev, 1983) 1987 yilda esa uning "O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli" nomli monografiyasi nashr etildi. (Abdullayev, 1987) A.Abdullayev mazkur monografiyasida so'roq gaplarda ekspressivlikning ifodalanish usullari haqida batafsil ma'lumot beradi. Tilshunos M.M. Haynazarova esa "So'roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi" mavzusida dissertatsion tadqiqot amalga oshirgan. (Haynazarova, 1999) Mazkur tadqiqotda so'roq gaplardagi shakliy va mazmuniy nomuvofiqlik chuqur tahlil qilingan. "Nega olmoshli so'roq gap mazmuniy tuzilishidan anglashiladigan yashirin axborot buyruq-tasdiq, buyruq-inkor xarakterida bo'ladi:

– *Buni eshitgan keksalar tayoq ko'tarib yosh-yalang ustiga yugurishadi, bechora yoshlar tayoqdan o'zlarini olib qocharkan, bir-birlariga qarab piching otishadi:*

– *Nega qochasan? Xudo ham senga berayotir, ol-maysanmi?"* (Cho'lpon. "Kecha va kunduz")

Matndagi "Nega qochmaysan?" gapi ham shakliy-mazmuniy jihatdan nomuvofiq bo'lib, uning mazmuniy tuzilishidan "Qochma!" buyruq-inkor axboroti anglashiladi. Shuningdek, nega so'roq olmoshli so'roq-buyruq gapdan keyin yashirin axborotni takror oshkori tarzida qo'llanishi ham kuzatiladi:

– *Ha, nega qoqqan qoziqday qaqqayib turibsan? O'tir! (O'tkir Hoshimov)*

– *Nega eshikning oldida turibsiz? Kiring! (So'zlashuvdan)*

Birinchi gapdagi "Nega qoqqan qoziqday qaqqayib turibsan?" gapining ichki tuzilishidan "Qoqqan qoziqday qaqqayib turma" buyruq axborotining anglanishi bilan birga, undan so'ng yuzaga chiqishi kerak bo'ladigan noqislikni ifodalovchi nutq birligi ham ishlatiladi. Birinchi gapdan anglashiladigan yashirin mazmunda faqat "Qoqqan qoziqday qaqqayib turma" axborotigina emas, balki undan so'ng qo'llangan buyruq gapining ma'nosi kuchli tarzda ifodalanadi. Ikkinchi gapdagi so'roq gapda "Eshikning oldida turmang" buyruq ma'nosi emas, balki undan so'ng qo'llangan "Kiring" buyruq gapining ma'nosini kuchli tarzda anglatish maqsad qilib olingan." (Haynazarova, 1999. B. 47.)

Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi interrogativlarning ifoda tarzi lingvopoetik jihatdan alohida diqqatga sazovor:

– *Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?*

– *Bisotimda hech narsa yo'q...*

O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

"Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?" gapida shakliy mazmuniy nomuvofiqlik kuzatiladi. Mazmuniga ko'ra mazkur gap "Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta bermaydi" tarzida shakllantirilgan bo'lishi kerak edi. Ammo bunday nomuvofiqlik yozuvchining badiiy niyatiga xizmat qiladi. Aminning takabburligi interrogativ shaklidagi konstruksiya orqali aniq ifodlangan. Agar mazmunga mos shakl tanlanganida edi, inkor-tanbeh ma'nosi bu qadar ta'sirchan namoyon bo'lmas edi. "Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!" gap-

ining mazmuniga mos shakl **“Nega yig’laysiz? A? Yig’lamang!”** tarzida bo’lishi kutiladi. Bu parchada asosiy urg’u **“Yig’lanmasin!”** buyruq gapida bo’lib, undan oldin kelgan interrogativ konstruksiyalar ayni shu buyruqning kuchli ta’kid olishiga xizmat qilgan. Fe’ning aniq nisbatda berilmasligining sababini ham amin xarakteridagi takabburlik bilan izohlash mumkin. Go’yo **“Nega yig’laysiz? A? Yig’lamang!”** desa, maqomi yo’l bermaydi, **“Nega yig’laysan? A? Yig’lama!”** desa, yoshi ulug’ odam. Yozuvchi aminning kibrini majhul nisbatdagi fe’l orqali g’oyatda aniq ko’rsatib bergan.

Ellikboshi bilan Qobil bobo orasidagi suhbatda esa ellikboshining ayyorligi boshqa yo’llar bilan oshkor qilinadi:

– Ey, yosh bolamisiz? Nega yig’laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho’kiz bo’lsa bir gap bo’lar, xudo ajalga to’zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho’kiz bersin. Bitta ho’kiz odamning xunimi?

Mazkur parchadagi interrogativlar **“Yosh bola emas-siz!”**, **“Yig’lamang!”**, **“Bitta ho’kiz odamning xuni emas!”** kabi inkor va buyruq prisuppozitsiyalarini ifodalaydi. Bu tarzidagi ifodada oddiy, bir tomonlama yo’naltirilgan buyruq anglashiladi. So’roq shaklida esa ayni o’sha buyruq yashirin tarzda yo’naltiriladi va **“qabul qiluvchini”** o’z-o’zini so’roqlashga majbur qilish orqali aktualashtiradi.

Tilshunos Yu.V.Fillipova dialogik nutqdagi interrogativ replika ko’rinishlarining semantik va pragmatik tavsifiga bag’ishlangan dissertatsion tadqiqotida shunday fikrni ilgari suradi:

“Interrogativ qurilmalarning muhim belgisi deyilganda ular tarkibida maxsus so’zlarning (so’roq olmoshlari, yuklamalar, bog’lovchilar va hk.) mavjud bo’lishi, ma’lum bir so’z birikmasida (gapda so’zlarning morfologik va sintaktik jihatdan turli shakllarda bog’lanishi), intonatsiya, muayyan maqsadga ko’ra ifoda qilish, shu bilan birga uni ritmik guruhlariga va sintagmalarga bo’lish nazarda tutiladi. O’z navbatida interrogativ qurilmalar muloqot maqsadiga ko’ra, suhbatdoshni hayajonga solishni, unga yo’naltirilgan savolga javob berish orqali muloqot davomiyligiga erishishni taqazo qiladi. Biroq, interrogativ qurilmalarning aksariyati so’roq ma’nosini o’z ichiga olmaydi. Xususan, ritorik so’roq gaplar javob talab qilmaydi. Bunda javob so’roqning o’zida ifodalanaadi, faqat ritorik so’roq tinglovchini fikrlashga undash yoki e’tiborini tortish orqali uni yanada faollashtiradi, ya’ni ritorik so’roq qaratilgan shaxs muloqot jarayonida o’zicha xulosa chiqarishga majbur bo’ladi: **“Kim biladi o’sha so’zlarni, haqiqatni anglatguvchi so’zlarni, faqat**

senmi, faqatgina sen?” (U.Shekspir).” (Filippova, 2007. S.81)

Tadqiqotchi interrogativlarning ekspressiv shakli sifatida ritorik so’roq gaplarni tahlilga tortadi:

“Ritorik so’roq gaplar yana bir xususiyati shundaki, ular ifodalangan axborotning ishonarliligini yanada kuchli ifodalashga va tinglovchini uning o’zgarmas xususiyatini anglashga undaydi. Bunda ritorik so’roqning shakli ma’ruzachining fikriga stereotipik maqom berishga, ya’ni ma’ruzachining so’zlariga, muhokama qilinayotgan ritorik so’roq mazmuniga o’ziga xos shakl berishga va tinglovchini so’roq orqali ifodalangan mazmun ustida fikr yuritishga majbur qiladi.” (Stepanova, 1986. S.38.)

Filippova o’z tadqiqotida so’roq ohangi bilan aytilsa ham javob talab qilmaydigan gap ko’rinishlari haqida shunday ma’lumot beradi:

“Ritorik so’roqdan tashqari, boshqa so’roq konstruksiyalar ham mavjud bo’lib, ular ham javobni talab qilmaydi, biroq ayni paytda ochiq informatsiyani o’z ichiga olmaydi. Shunday qilib, Chexovning **“Odam bilan itning suhbat”** asarida quyidagi replika mavjud: Aaaaaa!.. tishlamoqchimisan? Shunday! Rahmat, Juchka... yoki qalaysan? Hozir, qandaysan? So’roq ma’nosidagi intonatsiya bo’lgani bilan bu savol emas — replikaning ma’nosi shundayki, ma’ruzachi murojaat qilinayotgan shaxsning ismiga va kimga murojaat qilayotganiga ahamiyat bermaydi.

Lermontov satrlaridagichi?! Nima o’zi? Xursand bo’ling... — u azobga dosh berolmadi / So’nggisini olib chiqolmadi... Bunda so’roq shaklidagi **“nima o’zi?”** (chto j?) so’roq emas, balki umumiy qabul qilingan qarashlarga, qiyinchiliklar dosh berishni istamaslik mazmuni mavjud. Shunday qilib, interrogativ konstruksiyalar so’roq mazmunini ifodalaydi va tasdiqlanayotgan xabarning ma’nosini faollashtirishga, shuningdek his-tuyg’ularni harakatga keltirishga xizmat qiladi.” (Filippova, 2007. S.82)

Anglashilganidek, interrogativ konstruksiyalar gap mazmuni bilan birga tinglovchi his-tuyg’ularini faollashtiradi, o’rtaga tashlangan interrogativ orqali tinglovchilarning munosabat tarzini belgilaydi va chuqur mushohada yuritishga xizmat qiladi. Interrogativ qurilmalar kuzatiladigan shakl va mazmun muvofiqligi masalasi lingvopoetik tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega ma’lumotlarni berishi tayin. Ayniqsa, shakl va mazmun nomuvofiqligi orqali yuzaga chiqadigan ma’nolar alohida ahamiyatga molik bo’ladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O’zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. – Toshkent: Fan, 1987.
2. Abdullayev A. O’zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Степанова Е.Б. // Вестник МГУ. Сер.9: Филология. 1986. № 2. С.38.
4. Филиппова Ю.В. Семантико-прагматическая характеристика диалогической реплики интеррогативного типа. Вестник Новгородского ГУ. 2007. №43. С.81.
5. Haynazarova M. So’roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi. Filol. f. nomz. ...diss. –Toshkent, 1999. -150 b.

Karomat MULLAXO'JAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.f.f.n
Nafisa RAXMANOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDA NIZOMIY AN'ANALARI VA ULARNING YANGICHA TALQINI

Sharq mumtoz adabiyotida mavjud an'anaviylik adabiy hodisasi ko'plab sujet va mavzularning bugungi kungacha yetib kelishida muhim o'rin tutadi. Turli davrlarda yashagan shoirlar ijodida an'anaviy mavzularning talqinini o'rganish ularning tarixini, genezisini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchi tomondan, muayyan mavzu yoki adabiy sujetning har bir davrdagi adabiy kanonlar, davr ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari bilan muvofiqlashishi va, albatta, ijodkorning iste'dodi darajasida badiiy talqin etilganiga guvoh bo'lish mumkin.

Ko'pchilikning nazarida A. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Nizomiy an'analari mavzusi deyarli tadqiq etib bo'lingandek. Chindan, bu mavzu bo'yicha sohaning yirik olimlari muayyan tadqiqotlarni olib borganlar. Jumladan, Y. E. Bertels tadqiqotlarida Nizomiy "Xamsa"si, Navoiy "Xamsa"si ancha keng o'rganilgan edi. O'zbek olimi Sodir Erkinovning "Navoiy "Farhod va Shirin"i va uning qiyosiy tahlili" monografiyasi [5] chop etilganiga ellik yil bo'ldi. Ozar-boyjonlik sharqshunos olim G'azanfar Aliyev tadqiqotlari ham e'tiborga molik. [3]

Ushbu mavzuga bugun yana qayta murojaat qilishimizning sabablari bor. Jumladan, keyingi yillari Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy asarlari, shu jumladan, "Xusrav va Shirin" va "Farhod va Shirin" dostonlarining yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etilishi, yangi talqinlarning vujudga kelishi ushbu masalaga qayta murojaat qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, Navoiy asarlari mazmuni va mohiyatini uyg'unlikda tekshirishga bo'lgan urinishlar bugun o'z samarasini bermoqda. Ikki shoir dostonlarini qiyoslab o'rganganda, ana shu talqinlardan foydalanish Nizomiy an'analari davom ettirgan Navoiy ijodiy niyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining kirish boblaridan birida: "Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq..." deb yozgan edi. Albatta, bunda shoir faqat Nizomiyga bas kelish masalasini emas, balki an'ana chamberida turib, yangi asar yaratishni ham nazarda tutgan. Zero, bunday vaziyatda – muayyan talablar doirasida asar yozish, shoir uchun o'zi tanlagan erkin mavzuda asar yozishdan mushkulroq ekanligini Y.E.Bertels ham o'zining nazira haqidagi fikrlari asnosida aytib o'tgan edi.

Alisher Navoiy ham "Farhod va Shirin"ni yozishni boshlaganida: "Ani nazm etki, tarhing toza bo'lg'ay, Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay", – deb yangi tarhdagi asar yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Nizomiy ham, Navoiy ham sujetni shakllantirish uchun ko'plab manbalarni o'rganib chiqqan. Bu haqda Navoiy o'z asarida ma'lumotlarni ochiq ifodalaydi. So'z ustasi Nizomiy, Hindiston sehgari Xusrav Dehlaviy, shoir Ashraf asarlari, shuningdek, tarixiy asarlarni sinchiklab, taqqoslab o'rgangan Navoiy bu asarlar o'rtasidagi ixtiloflarni ham ko'ra oldi. Navoiy o'z dostonining salafarlari, xususan, Nizomiy dostonidan farq qilishi kerakligini takidlab, yangi

doston yozishi muhimligini va uning sabablarini ko'rsatadi. Birinchi sabab:

Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,
Yo'likim, el yugurmishtur yugurmak.[1;44]

(*Axir boshqalar nazm qilganni takrorlash senga yarashmaydi. Eldan orqada qolib, ot choptirish ham, odamlar bosib o'tib ketgan yo'ldan yugurib yurish ham senga yarashmaydi.*)

Bu dostonni yozishga ikkinchi sabab shoirga yopishgan ishq balosi edi:

Yana bois bukim, ishq balosho'r,
Bir o'tdin aylab erdi jonima zo'r.

Tilim xud bor aning ta'rifida lol,
Qilay xomam tilidin sharhi ahvol.

Hazin jonimda bor erdi baloye,
Balolig' ishq ila haryon havoye.[1;35]

(Dostonni yozishga yana bir sabab, menga balo bo'lib yopishgan sevgi bo'lib, bu sevgining o'ti jonimga zo'rlik qilib qiynar edi. Tilim u sevgini ta'rif qilishdan lol; shunday ekan, men o'z ahvolim sharhini qalam tili bilan bera qolay. O'ksik jonimga bir balo yopishgan bo'lib, bu ishq g'avg'olari meni har dam havoyi qilib qo'ygan edi.)

Birov ishq solib jonimg'a anduh,
Mashaqqat toshi yuklab ko'h to ko'h.
Bo'lub zulmi o'tidin xasta jonim,
Qarorib dudi birla xonumonim . [1;35]

(Bir mahbubaning ishqidin jonim qayg'u-alamda bo'lib, yelkamga tog'-tog' mashaqqat toshlari ortilganday edi. Uning zulmi olovidan jonim xasta va u o'tning tutunidan xonumonim qaraygan edi.)

Shunda unga g'oyibdan bir nido kelib, hotif (g'oyibdan oq fотиha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlantirganini, keyin Jomiyning oldiga borganini, u ham shoirni duo qilib, bu ishda unga oq yo'l tilaganini yozadi.

Ma'lumki, an'ana va o'ziga xoslik muammosi tadqiq etilganda qiyoslanayotgan asarlarni g'oya va badiiyyat uyg'unligi – poetika mezonlari nuqtayi nazaridan o'rganish taqozo etiladi. Bunda har ikki dostonning kompozitsion o'ziga xosligi, ularning sujet va obrazlari poetikasi nazarda tutilmoqda.

Sharqda Xusrav va Shirin muhabbati hayotiy asosga ega ekanligi va xalq og'zaki ijodida tarqalgani haqidagi fikrlar manbalar asosida Bertels, S.Erkinov kabi tadqiqotchilar tomonidan aniqlab berilgan. Dastlab yozma adabiyotga Firdavsiy "Shohnoma"si orqali kirib kelgan bu mavzu ko'proq Xusrav Parvezning sulolasi, siyosiy faoliya-

ti, hokimiyatga oid ishlari talqiniga ko’proq o’rin ajratilgani bilan e’tiborni tortadi. Bu – bir jihatdan Firdavsiy asarining tabiati bilan bog’liq. “Shohnoma” – shohlar haqidagi qahramonlik dostoni. Buni uning muta’qarib bahrida yozilganida ham ko’rish mumkin.

Nizomiy esa o’z dostonida ishq mavzusini birinchi plan-ga olib o’tdi. Hatto uning bahrini ham o’zgartirdi, chunki XI asrda romantik dostonlarni (qahramonlik dostonlaridan farqli ravishda) hajaz bahrida yozish tendensiyasi shakllangan edi. Bu haqda o’z fikrlarini bayon qilgan Y.E.Bertels yana shunday deydi: “Nizomiy dostoni hajaz bahrida yozilgan va uning nomlanishida ikkita ism turibdi, bu bilan shu narsa aniq ko’rinmoqdaki, Xusravning sulolaviy tarixini yoritish muhim masala bo’lmay qoldi”. [4;63]

Ishqiy mavzudagi ushbu dostonning o’z obrazlar tizimi shakllana boshladi. Bular: Xusrav, Shirin, Buzurgmehr, Shopur, Farhod, Bahrom, Maryam, Shakar, Sheruya, Shamira (Mehinbonu), ...

Nizomiyning obrazlarni olib kirish mahorati ham o’ziga xos. Jumladan, Xusrav va Shirin munosabatlari, bu munosabatlar dinamikasi, dramatisizmga to’la voqealar tasviri ko’proq Shopur va Farhod obrazlari atrofida kechadi. Nizomiy ularni “Shohnoma”ning Xusravga aloqasi bo’lmagan boshqa dostonlar ichidan tanlab oladi. Masalan, Farhod “Shohnoma”dagi Suhrob va boshqalarga aloqador dostonlardan olingan. Deylik, u yerda Farhod pahlavon, tug’bardor... Nizomiy uni mahorat bilan javobsiz ishqning egasi – oshiqqa aylantirdi.

Nizomiy dostonida garchi Shirin Xusravni yaxshi ko’rsa-da, lekin muallif Xusravga nisbatan kitobxonda xayrixohlikni uyg’otmaydi, balki uning timsolida oshiq shahzoda, keyinchalik shohning o’z maqsadiga yetish uchun harakatlarini, g’ururini ham ko’rsatadi. Shirin tuyg’ulari va Farhodning sevgisi kitobxonda ularga nisbatan mehr uyg’otadi. Nizomiyning ushbu dostoniga Farhodni olib kirishi keyingi dostonlarda (Dehlaviy va Navoiy dostonlarida) barcha obrazlarning tadrijiy takomilini va yangi talqinlarga ko’chishiga xizmat qildi.

Xusrav va Shirin muhabbati haqida doston yozgan Nizomiy tarixiy haqiqatdan juda uzoqlashib ketmagan. Shirin orqali o’z muhabbatiga intilgan, uning uchun kurasholgan jasoratli va go’zal bir qiz tasvirlanar ekan, bu go’zallik zahiriga aslida, uning oqilaligi, o’z izzat-nafsi, or-nomusi yo’lida bardoshli bir siymo turadi. Shirin orqali Nizomiy ma’rifatni olib kirdi. Alisher Navoiy esa bu ma’rifatni ifon darajasiga ko’tardi.

“Farhod va Shirin” dostonining keyingi yillardagi tahlil va ilmiy talqinlari shuni ko’rsatmoqdaki, dostonning sujeti, obrazlarining asosiy qismi ramziy-majoziy xususiyatlarni kasb etgan. Har bir obrazning matnda ifodalayotgan romantik-sarguzashtlar sifatida idrok etayotgan ma’nosi bilan birga botiniy ma’nosi ham mavjud. Bu ichki mazmun bir jihatdan ijtimoiy hayot bilan bog’lansa, ikkinchi tomondan va asosan, ifoniy – tasavvufiy ma’noga tutashib ketadi. XV asrda, Navoiy yashab ijod qilgan davrda naqshbandiylik g’oyalarini badiiy ijodda ham muhim o’rin tutishi “Farhod va Shirin”da, umuman “Xamsa”da muallifning kontseptual qarashlarini ifodalashga imkon bergan edi.

Bular Navoiyning o’z dostonida obrazlarga yuklagan vazifalar va ular bilan bog’liq turli epizodlar tahlilida yana ham ochiqroq ko’rinadi, jumladan:

Farhodning asosiy qahramon sifatida tanlab olinishi (Nizomiyda Farhod ikkinchi darajali obraz);

to’rt faslga atab qurilgan qasrlarning ramziy ma’nolari va Moniy, Boniy, Qoran obrazlariga yuklangan vazifalar (Nizomiy dostonida to’rt qasr jahongir Shamira (Mehinbonu)ga tegishli bo’lib, u yilning to’rt faslida ko’chib yurib, o’sha qasrlarda yashaydi);

solik insonning – darveshtabiat Farhodning bu dunyo boyliglariga munosabati;

Farhodning Shirin jamolini (mazhari) ko’rish uchun qancha sinovlarni boshidan kechirishi (Nizomiyda Shopur chizgan suratni ko’rib Shirin Xusravga oshiq bo’lib qoladi, Eronga kelib badbo’y qasrda yashab Xusravni kutishga majbur bo’ladi);

Yunoniston safaridagi Farhod sarguzashtlari – boshidan kechirgan voqealarning (Ajdharho, Samandar yog’i, Ahriman dev, temir paykar, Sulaymon uzugi, sher, Jahonbin jomi, sandiqdagi ko’zgu) ramziy ma’nosi;

Suhaylo, Xizr, Suqrot obraziga yuklangan tasavvufiy vazifalar;

Shirinning Farhodni yaxshi ko’rishi (Xusravni emas);

Farhodning Shirin uchun sut arig’i emas, balki butun xalqqa suv olib keladigan ariq va hovuzni qazishi, suvning tasavvufiy ma’nosi;

Shirinning atrofidagi qizlardan har biri ilmning bir sohasini mukammal egallaganligi (Nizomiyda ular ovda, chavgon o’yinida va qissago’ylikda mahorat ko’rsatadilar);

Shopur va Farhod do’stligiga yuklangan tasavvufiy mazmun (Nizomiyda Shopur Xusravning ishqiy sarguzashtlarida yordam beruvchi do’sti, to’y kuni Xusrav unga Shirinning mulki - Armanzaminni sovg’a qiladi);

qirqa insonning tushiga kirgan Jannat epizodi orqali solikning eng oliy maqomga yetgani - Olloh bilan birlashib ketganini ta’kidlash;

Farhod obrazi orqali tug’ma jazba kishisi ruhiyatini ochib berish;

Ilohiy ishq odami bilan foniy dunyo kishilari orasidagi ruhiy-ma’naviy tafovutlarni ko’rsatish;

doston sujetiga Navoiy tomonidan kiritilgan epizodik obrazlarga yuklatilgan vazifalar.

Ko’rinib turibdiki, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni manbalardagidan ancha farq qiladi. Buni Navoiyning dostonida o’z ilohiy ishqini, bu ishq orqali dardli dollar rozini kuylaganligi bilan asoslash mumkin. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida [2;120] “Farhod va Shirin” dostonini yozishda Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”idan ilhomlanganini yozgan. Tosh yo’nish kasbini o’rganib, dunyo kezishni istagani uchun saroydan quvilgan Chin shahzodasi Farhod bu dostonida ham ikkinchi darajali obraz hisoblanadi. Har ikkala dostonida majoziy ishqni ulug’lash bosh maqsad hisoblanadi. A. Navoiy ijodiy tatabbu yo’lidan borib, majoziy ishq dostonini ilohiy ishq dostoniga aylantirdi, zamondoshlariga naqshbandiylik va tasavvufning murakkab qoidalarini badiiy talqinda sodda qilib tushuntirib bera oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий, Фарҳод ва Ширин, МАТ. 20 жилдлик.-Т.:Фан,1991.Т.8 – 544 б.
2. Алишер Навоий, Муҳокамат ул - луғатайн. МАТ. 20 жилдлик.-Т.: Фан, 2000.Т. 16. – 336 б.
3. Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985. - стр.366.
4. Бертельс Е.Э. Низами. Творческий путь поэта. - М.: Наука. 1956
5. Эркинов С. Навоий «Фарҳод ва Ширин»и ва унинг қиёсий таҳлили.- Т.,1971. – 276 б.

Gulira'no RASULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

“SAB'AI SAYYOR” DOSTONINI O'RGANISHDA MATN TARIXINING O'RNI

Alisher Navoiy asarlari matni tabdilini tadqiq qilishda matn tarixi va matn tahriri muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, rus olimi D.S.Lixachyovning e'tirof etishicha, matn tarixi tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab olinishi lozim, shuningdek, u yoki bu asarga aloqador faktlarni imkon qadar to'la qamrab o'rganishgina bizga asar matni tarixini keng ma'noda kashf etish imkonini beradi¹.

Rus olimi B.V.Tomashevskiyning matn tarixi adabiyot tarixi tadqiqotchisiga adabiy yodgorlikka oid zohiriy ma'lumotlarni emas, muallif laboratoriyasining botiniy jihatlarini kashf etish imkonini beradi², degan qarashi muallif dunyoqarashini yoki asar yaratilgan davr ruhini kitobxonga sezilarli darajada etkazib berish uchun asos bo'la oladi.

Matnshunos, adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Shuhrat Sirojiddinov “Matn tarixini o'rganishda qo'lyozma asarning mavjud nusxalarini o'zaro qiyosiy tekshirishdan boshlash lozimligi, matnlar to'liq, nuqsonli, tuzatilgan (redaksiyaga uchragan) yoki tugatilmagan ko'rinishlarda uchrashi mumkinligi, qo'lyozma nusxalarning uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanishini”³ o'rinli ta'kidlaydi.

Matnshun olim, filologiya fanlari doktori R.Zohidovning matn tarixi haqida quyidagi mulohazalari e'tiborga molik: “Muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirgi holatigacha davom etgan o'zgarishlar silsilasi matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma'lum vaqt mobaynida sub'ektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va obyektiv omillar ta'sirida o'zgarishga uchraydi”⁴.

Adabiy manbashunos va matnshunos olimlarning fikr-mulohazalarini tasdiqlagan holda, bizningcha, “qo'lyozma manbalarni muallif yashagan davrdan to uning vafotigacha bo'lgan davrlarda ko'chirilgan matnlarning o'zaro qiyosiy jarayonlarini amaliy hamda nazariy jihatdan o'rganish, ulardagi farqlar matn tarixi muammolari yuzaga kelish sabablarining ilk ko'rinishlarini namoyon qiladi. Masalan, muallif yashagan davrda ilk bor ko'chirilgan devon, bayoz, majmua yoki tazkiralardagi asarlar keyinchalik (muallif) u tomonidan qayta tahrir qilinishi yoki kotiblar tomonidan qayta ko'chirilishi jarayonida avvalgi nusxalardagi matnning aynan saqlanmasligi o'sha asar matn tarixini o'rganishni taqazo qiladi”. Bizningcha, bitta asar doirasida matn tarixi muammosini tadqiq qilish quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Sh.Sirojiddinovning fikriga ko'ra, u yoki bu manbaga doir tashqi va ichki belgilarga ham ahamiyat be-

rish zarur. Tashqi belgilariga manbaning yaratilish sabablari, ko'chirilgan yili, asar kolofonidagi barcha ma'lumotlar, asar matnida keltirilgan ba'zi bir qaydlar, devon va tazkira debochalaridagi tavsifiy ma'lumotlar kirsar, shu bilan birga asar yuzaga kelishining ichki belgilariga ham ahamiyat berish lozim⁵. Har qanday asarning ilk ko'rinishi, keyinchalik turli o'zgarishlar asosida yuzaga kelishi bilan bog'liq jihatlar ham matn tarixi muammosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ko'proq muallif yashagan davrda ko'chirilgan asarlar yoki keyinchalik ko'chirilgan asarlar matnida muallif nazari bilan yoki kotibning bilib, bilmay qilgan o'zgartirishlari, shu bilan birga buyurtmachining talabi bilan ham yuzaga kelishi mumkin.

2. Har bir yaratilgan asarning matni o'sha asar yaratilgan davr ruhiyati bilan ham bog'liq bo'ladi. Bunga asar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy holatlari ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Masalan, biror-bir asarning asliyatidan qayta ko'chirilgan varianti o'zaro qiyoslanganda matn qisqarishi yoki jumalarning o'zgarishi kabi holatlar asarning ilk ko'rinishlari namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bunday hol asardagi so'zlar, misralar yoki asar matnining tubdan o'zgarishi holatlarini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa biror lirik asarning boshqa bir noto'g'ri varianti ham paydo bo'lishiga olib kelishi shubhasiz.

Alisher Navoiy ijodi tadqiqidagi manbalarni qiyosiy o'rganish jarayonida matniy nomuvofiqliklar ko'zga tashlanadi. Mumtoz asarlar matnida uchraydigan bunday tafovutlar matn tarixi va matn tahririni o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Bizningcha, bular quyidagilarda o'z aksini topgan:

1) bir matn doirasida texnik xatolarga ko'ra asliyat va matndagi tafovutlar;

2) bir matn doirasida so'z va iboralarning o'zgarishi. Masalan, روپوش لوغ ro'po'shlug' – “ro'po'shlig'” [SS, 67], محبوب لوغ mahjublug' – “mahjublig'” [SS, 67]⁶:

“Ismat bahoristonining shukufat bog'i va iffat shabistonining gavhari shabcharog'i, **ro'po'shlig'** Qofining asmoi parisi, **mahjublig'** sipehrining mehri xovariysi, axloqi hamida va avsofi pisandidasidin shammai izhor qilmoq”⁷.

Shuningdek, شميانه shamyona – “shamiyona”⁸:

Xachiru teva borchasi zebo,
Borchaning raxti atlasu debo.

Uy ila borgohu **shamiyona**,
Anga loyiq gilimu ham yona [SS, 166].

(Ma'nosi: "Uy bilan qasr borgohu yotoqxonalar orasiga solinadigan bir qancha gilam va poyandozlar, gulchehraning o'tirib ketishi uchun nihoyatda ziynatlangan mahofa ham tayyorlanib, tuyaga chiroyli qilib ortib qo'yildi").

Yoki: ایر غاتماق irg'atmoq – "erg'atmoq"⁹:

Anda Nushirovon kerak boqqay,
Boshini **erg'atib** ovuch qoqqay[SS, 66].

(Ma'nosi: Unda "Anushirvon ham o'z adolatini eslab xijolat chekadi va senga qoyil qolganidan boshlarini sil-kitib qarsak chaladi").

Yuqorida keltirilgan matnlardan ma'lum bo'ladiki, matnda bir qator so'zlar joriy yozuvga noto'g'ri o'girilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Sab'ai sayyor" dostonining matniy va qiyosiy talqini kelajakda asarning akademik nashrlarini tayyorlashda qo'l keladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda asarning kelib chiqib, ushbu dostonning matn tarixi va tahriri amalga oshirilishi lozim. Ayni ma'noda "Sab'ai sayyor" dostonining matniy tadqiq etish, bu asarning milliy adabiyotimizdagi o'rnini baholash ham echimini kutayotgan ilmiy ishlarsirasiga kiradi.

1. Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X - XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во "Алетейя", 2001, стр. 33.
2. Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, стр. 148.
3. Сирожиiddинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент, Navoiy universiteti, 2019. – Б. 18.
4. Зоҳидов Р. "Саботул ожизин" асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Дисс. фил. фан. док.(DSc). – Тошкент, 2018. – Б. 191.
5. Сирожиiddинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент, 2019. – Б. 18.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami/O'ninchi jild. – T., 1992. – 67-b.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami/O'ninchi jild 67-b
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami/O'ninchi jild 166-b
9. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami/O'ninchi jild. 66-b

Abduraufxon ORIFJONOV,
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

MUNISNING HAYOTI VA IJODIGA OID MANBALAR TAHLILI

O'zbek adabiyoti rivojida Xorazm adabiy muhiti va-killarining o'ni va hissasi katta. Hukmdorlarning ijod ahliga bo'lgan e'tibori, moddiy-ma'naviy qo'llab quvvatlashi adabiy muhit rivojida katta o'rin tutdi. Mumtoz adabiyot an'analari, xususan, Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlanish natijasida ko'plab iqtidorli ijodkorlar kamol topdi. Mazkur shoirlar sirasida o'z davri adabiy muhitida ega alohida iqtidori bilan tanilgan, ziddiyatli hayot sinovlariga qaramay, ijoddan tinmagan ijodkorlardan biri Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munisdir. U XVIII asrning oxiri XIX asrning I yarmida Xorazm madaniyatining atoqli namoyondasi, talantli shoir, tarixchi, mohir tarjimon, xattot, adolat va ma'rifat kuychisi sifatida shuhrat qozongan. Xorazmda yashab ijod qilgan taniqli shoir Shermuhammad Munis 1778-yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida tug'ildi. Otasi yuz urug'idan chiqqan Avazbiy xonlikning bosh mirobi bo'lib, ishlab chiqarishi to'lig'icha sug'orma dehqonchilikka asoslangan Xiva xonligida miroblik eng katta mansablardan sanalardi. Shoirning nomi Shermuhammad bo'lib Munis uning taxallusidir. "Munis"ning lug'aviy ma'nosi "do'st", "ulfat" demakdir. Shermuhammad Munis o'z zamonasining yetuk shoiri, adibi, tarixchisi, tarjimoni, murabbiysi va ma'rifat kuychisidir. U faqat zamonasidagina emas, balki keyingi davrlarda ham xalq o'rtasida, xususan, madaniyat muxlislari, shoirlar, olimlar, san'atkorlar va tolibi ilmlar o'rtasida ham shuhrat qozongan.

Munisning faoliyatini va adabiy merosini o'rganishda ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Dastlab sharqshunoslar Munisning Firdavs ul-iqbol» (davomini Ogahiy yozgan) asarini o'rganib unga ko'proq murojaat qildilar. Munisning tarixiy asarini o'rganishda V.V.Bartold, P.P.Ivanov ma'lum xizmat qildilar. Keyingi yillarda esa S.P.Tolstov, Y.G'ulomov, M.Yo'ldoshyev va Q.Munirovlar o'rgandilar.

Yirik tarixchi, mohir tarjimon Munis, eng avvalo, iste'dodli va sermahsul shoir bo'lib, uning «Munis ul-ushshoq» devoni o'zbek adabiyoti xazinasining ajoyib durdonalaridan biri hisoblanadi. Devonda shoirning o'zi debochada ta'kidlanganidek, g'aroyib qasidalar, dilkusho g'azallar, fasohatli tarkibbandlar, latofatli qit'alar, sharif musaddas va muxammaslar, shirin masnaviy va rangin tuyuqlar bor. Yoshligidan boshlab adabiyot va tarixni sevgan Munis bo'sh vaqtlarini ko'pincha kitob mutolaasiga bag'ishlaydi. U o'ziga qadar o'zbek va fors-tojik adabiyotida yaratilgan lirik merosning ajoyib namunalari bilan yaqindan tanishib, o'zi ham boshqalarga o'rnak bo'la oladigan go'zal asarlar yaratib keng shuhrat qozonadi. Munisning she'riyatda shuhrat topishi Sharq mumtoz adabiyotining eng porloq yulduzlari: Nizomiy, Jomiy, Xusrav Dehlaviy, Ansoriy, Hofiz Sheroziy, Attor, Firdavsiy, Hoqoniy, Anvari, Sa'diy, Iroqiy, Bedil ijodlarini chuqur o'rganib, ulardan cheksiz bahramand bo'lishi tufayli ekanligini bir g'azalida g'urur bilan bayon etadi:

*Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur manga,
 Manzili ma'niga Hizri roh Jomiydur manga.
 Xotirimg'a Xisravidin har zamon sho're yetib
 Banda davronning bori shirin kalomidur manga.²*

Munis, ayniqsa, buyuk Alisher Navoiy ijodidan juda ko'p jihatlarni o'rganganini ta'kidlab, uni o'ziga homiy deb biladi:

*Qilsa hosed dahlia bejo so'z aro yo'qtur g'amim,
 Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur manga³.*

Shu bilan birga, u o'z zamondoshi shoir Kiromiyni ham o'ziga ustoz deb biladi:

*Tong emas, Munis, agar bo'lsam kiromiyqadrkim,
 Listodi zohiru botin Kiromiydur manga⁴.*

Bulardan tashqari Munis Fuzuliy va Andaliblarni ham o'ziga ustoz deb biladi. Navoiyni esa hammadan o'ziga yaqin tutadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki Navoiy asarlarida olg'a surilgan insonparvarlik, vatanparvarlik, haqqoniylik, mardlik, to'g'rilik, ma'rifatparvarlik g'oyalari Munis ijodining ham asosini tashkil etadi. Bu ikkala shoirning ijodlari shuning uchun ham bir-biriga juda yaqin, hattoki ayrim paytlarda o'xshab ham ketadi. Navoiy ijodida kuylangan gumanizm, hayotga muhabbat, din va din ahliga bo'lgan munosabatlar Munisda kuchli taassurot qoldiradi. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, Munisning ham siyosiy qarashlarining asosini yakka hukmron, adolatli xon uchun kurash g'oyasi tashkil qiladi. Munis o'z ijodida ilm masalasiga katta e'tibor beradi. Yoshlikda umrini zoye ketkazmay kasb-hunar o'rganib kamolotga erishish lozimligini quyidagi riboysida mana bunday bayon etadi:

*Munis, talab et kamol - erursen chu yigit,
 Kim yaxshidur etsa fazl uchun qayg'u yigit.
 O'q qilg'on ishin yo qila bilmas hargiz,
 Qarilar ila barobar o'lg'aymu yigit⁵.*

U qayoqqa qaramasin, hammaning boshida dardu alam borligini ko'radi, lekin o'zining g'ami ham el dard-u g'amidan qolishmas edi:

*Har sori boqsam elga, mungsiz kishi topilmas,
 Go'yo jahonga qilmish dardu g'amim saroyat⁶.*

Jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik, razolatning asosiy sababi qayerda nimadan iborat ekanligini to'la tushunib yetmagan Munis el boshida yog'ilayotgan turli ofat, g'am-alam va baxtsizlikning bosh sababi falak - charxi dun" deb biladi:

*Ey falak, muncha nedur aylamay izhori sitam,
 Urubon har nafas el bag'riga yuz nishtari g'am.
 Yaxshilarga yetibon anvoyi xazon qahringdin,
 Kim yomon ersa, alar zaxmig'a qilding marham.⁷*

Shoir falakdan noliq orqali o'sha (o'zi yashab turgan) tuzumni qorala undan shikoyat qilmoqda. Biroq uning shikoyati isyon darajasiga ko'tarilmaydi keyingi baytlarda esa u o'z fikrini yana ham chuqurlashtirib, aytayotgan fikri aniqlashtirishga harakat qiladi:

*Shod bo'lding, qora qayg'u bila kim cheksa fig'on,
 G'am botding, kishikim ichsa qizil may bir dam⁸.*

Xulosa qilib aytganda, Xorazm adabiy muhitining iste'dodli vakili, bugungi kun o'quvchisiga ma'lum bo'lgan Munisning ijodiy merosini tadqiq etish, bu ijodiy merosni hajm va mazmun jihatidan baholab, targ'ib qilish hayrli vazifalardan biridir.

1. Munis. Tanlangan asarlar. – T.: O'zSSSR Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1957.

2. Ўша асап.

3. Ўша асап.

4. Munis. Tanlangan asarlar. – T.: O'zSSSR Davlat badiiy adabiyoti nashriyoti, 1957.

5. Ўша асап.

6. Ўша асап.

7. Ўша асап.

Yulduz JUMABOYEVA,
 ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

“LISON UT-TAYR” TURKUMIDAGI DOSTONLARNI QIYOSIY O'RGANISH

Butun turk dunyosi Alisher Navoiyni “Shamsul millat” – millat quyoshi deb e'zoz bilan tilga oladi. Butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz bu e'tirofga to'la-to'kis munosib va haqlidir. Hozirgi zamon dunyo adabiyotshunoslari buyuk mutafakkir Alisher Navoiy

bobomizning adabiy meroslarini turli yo'nalishlarda o'rganib kelmoqdalar.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarini o'rganar ekanmiz, asarni mavzu, g'oya, badiiy obrazlar tizimi jihatidan o'zaro qiyoslash muhim o'rin tutadi. Xalqimizning boy adabiy merosini ishonchli manbalar asosida izchil o'rganish davom etayotgan bir davrda Alisher Navoiyning

“Lison ut-tayr” dostonini Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari bilan qiyosiy tarzda an’ana va izdoshlik qonuniyatlarini asosida o’rganish o’zbek va fors-tojik adabiy asarlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni keyingi davr adabiyoti yuksalishi uchun nihoyatda samarali ta’sir qilgan va bir qator adabiy asarlarning yaratilishiga turtki bo’lgan. Ma’lumki Alisher Navoiy o’zining “Lison ut-tayr” dostonini “Mantiq ut-tayr” dostonidan ilhomlanib yaratgan. Zero, Alisher Navoiy mazkur dostonni yoshlik chog’laridayoq yodlab olgan edi. Dostondan ilhomlanib 1498–99-yilda “Lison ut-tayr” asarini yaratdi. Shu nuqtai nazardan, “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” dostonlari jahon adabiyotshunosligida keng miqiyosda o’rganilmoqda. Jumladan, “Lison ut-tayr” dostoni yuzasidan XX asrning 70-yillari oxirlariga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda qator fikrlar bildirilgan. Sh. Sharipov “Lison ut-tayr”ning genezisi bilan bog’liq maxsus ishida bu sohada maydonga kelgan izlanish va tadqiqotlar haqida batafsil to’xtalib, ularga baho bergan[2; 4–8]. Bu ikki asardan ilgari ham “Qush tili” turkumidagi dostonlar mavjud bo’lgan. Jumladan, *Sharq mumtoz adabiyotida adolatli va komil Podshohni izlab mashaqqatli yo’lga chiqqan “qushlar motivi” mavjud. Ushbu an’ana Abu Ali ibn Sinoning “Tayr qissasi”dan boshlangan. Imom G’azzoliyning “Risolat ut-tayr”, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlari buning yorqin misolidir. Ibn Sino fikriga ko’ra, barcha mavjudotning asosi va ibtidosi “vujudi vojib”, yani Tangridir. “Bilimlarni chuqur o’rganish orqali xudoni bilish mumkin. Ibn Sinoning mazkur fikri mantiqni ilmiy bilishning, mavjudotni o’rganishning ilmiy asosidir*”[3; 55].

Mana shunday falsafaga to’la asar Ibn Sinoning “Tayr qissasi”da ilgari suriladi. Asarda tuzoqqa tushgan qushlar birlashib uchib ketishadi. Qushlar sakkiz tog’dan uchib o’tib “Buyuk Podshoh” huzuriga yetib boradilar va unga dardlarini aytadilar. Podshoh “Oyoqlaringizdagi tuzoqni uni qo’ygan kishidan bo’lak hech kim yecha olmaydi. Men unga bir elchi yuboram. Elchi sizlarni tuzoqdan qutqarishni iltimos qiladi” deydi. Qo’shlar “Xursand bo’lib chiqib ketishadi”[4; 82]. Asardagi ovchidan murad bu dunyo, undagi tuzoq – dunyoviy orzu-havaslar, elchi esa – aql timsolidir. Ya’ni o’zligini ma’lum ma’noda anglagan kishilar dunyoviy orzu-havaslardan bizni qutqar, deb Tangriga iltijo qiladilar.

Imom G’azzoliyning asarlarida ham shu kabi obrazli fikr, timsollar tili bilan so’zlashuvni ko’plab uchratishimiz mumkin. Imom G’azzoliy Ibn Sinoning “Tayr qissasi”ga raddiya-javob tarzida bitgan “Risolat ut-tayr” asari ham shu uslubda yozilgan. Adabiyotshunos olim Sh. Sharipovning fikricha, “Risolat ut-tayr” asari o’z g’oyaviy mazmuni bilan va falsafiy konsepsiyasi jihatidan Ibn Sinoning shu nomli

risolasida ilgari surgan fikrlariga zid bo’lib, unga raddiya sifatida vujudga kelgan”[4; 15]. Sh. Sharipovning bu fikrida jon bor. Zero, har ikkala asar syujetiga nazar tashlaydigan bo’lsak, bu farqni yaqqol ko’ramiz. “Tayr qissasi”da qushlar ovchidan qochadilar va Podshoh dargohiga borib, uni uchratadilar. Podshohdan ham ular o’zlari uchun kerakli narsani – ovchi tuzog’idan qanday qutulishni so’raydilar. G’azzoliyning asarida esa qushlar podshohning o’zini talab qilib boradilar. Ibn Sino “Tayr qissasi”ni shogirdlariga yuborgan noma tarkibida bitgan. U bu risolalarni faqat shogirdlari va yaqin kishilari uchun yozgan bo’lib, uni omma tushunishi zarur, deb hisoblamagan. Ibn Sinoning bu falsafiy risolalarida ramziy timsollar, asosan, muallif fikrini “yomon ko’zdan” yashirish uchun xizmat qiladi. Imom G’azzoliyning asarlarida esa timsollar, askincha, o’quvchining asarni yaxshiroq tushunishi uchun xizmat qilgan. Biz tahlil qilgan risolada G’azzoliy Ibn Sino asarining syujeti va obrazlarini mutlaqo yangi g’oyaga xizmat qildirdi, tasavvufiy qissa yaratdi. Bu qissalarning o’xshash tarafi bor. Har ikki faylasufning ramziy qissalarida badiiylik omili ikkinchi darajali hisoblanadi. Ya’ni asarda obrazlar faqat muallifning fikrini ifodalash uchun xizmat qildi. Shunga ko’ra, G’azzoliyning “Risolat ut-tayr” asari o’zining ilohiy-diniy mazmunidan qat’iy nazar, Sharq mumtoz adabiyotida an’analari davom ettirgan asar sifatida ham e’tiborga sazovordir. Fariduddin Attor “Mantiq ut-tayr” dostonini yozishda G’azzoliyning “Risolat ut-tayr” asariga suyandi, ammo, g’oyaviy-falsafiy mazmuni, obrazlar talqini, kompozitsion tuzilishi, badiiy poetik uslubi va boshqa jihatlar bilan tamomila farq qiluvchi asar yaratdi. Attordan ilhomlangan Alisher Navoiy o’zining “Lison ut-tayr” dostonini yaratadi. Mazkur asar janr xususiyatlariga ko’ra, o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida tamoman yangi voqea bo’ldi. Bu asarga qadar o’zbek adabiyotida falsafiy-didaktik, ishqiy-romantik, ishqiy-sarguzasht va qahramonlik kabi janrlarda dostonlar yozilgan edi. “Lison ut-tayr” esa o’zbek dostonchiligining yangi janri: allegorik-falsafiy doston janrining g’oyaviy-badiiy jihatdan ilk yetuk namunasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ramziy-majoziy usul orqali, xususan, qush tili vositasida badiiy asar yozish Sharq xalqlari adabiyotida qadimiy tarixga ega bo’lib, bu xildagi asarlarning dastlabki namunalarini xalq og’zaki ijodida ham uchratish mumkin. Asar allegorik majoziy tasvir usuli orqali falsafiy masalalarni ifoda etishning epik poeziyadagi mumtoz namunalari sifatida o’zidan keyingi fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotining falsafiy-didaktik yo’nalishi taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Shu sababli mazkur asar o’zbek epik poeziyasining janr rang-barangligini taminlash va boyitishga mislsiz hissa qo’shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O’zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so’zi. –2017-yil, 4-avgust.
 2. Sharipov Sh. Alisher Navoiy “Lison ut tayr” dostonining genezisi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1982. –B.4–8.
 3. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. N-4.– Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B.55.
 4. Ibn Sino Abu Ali. Tayr qissasi / Islom tasavvufi manbalari. – To’plovchi H. Boltaboyev. –Toshkent: O’qituvchi, 2005. – B.15–82.
 5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019. – 544 b.
 6. Fariduddin Attor. Mantiq ut-tayr.– Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2006.
- Internet ma’lumotlari:
1. <https://orifolliib.uz>
2. <https://saviya.uz>

Азима ХОШИМОВА,
магистрант,
Гульчехра ДАВЛЯТОВА,
кандидат педагогических наук,
доцент Ферганского государственного университета

СПЕЦИФИКА ЭМОТИВНЫХ КОНЦЕПТОВ

В лингвистической литературе термин «концепт» стал общепринятым с начала 1990-х годов благодаря научным трудам Д.С.Лихачева и Ю.С.Степанова. Так, по мнению Д.С.Лихачева, «концепт – это лингвофилософская единица, появившаяся благодаря антропоцентрическому подходу в языкознании» [1]. Понятие определяет и группирует почти все возможные значения любого данного слова и их развития.

Согласно психологической конструкционистской теории концептуальных действий, эмоция возникает, когда информация от собственного тела или тел других людей становится значимой в свете текущей ситуации с использованием концептуальных знаний об эмоциях.

По определению Я.Рейковского, «эмоциональный концепт – это особая форма метарегуляции психических процессов, основанная на знаковой репрезентации, которая обеспечивает обобщенную, абстрактную, социально-выработанную категоризацию и организацию информации об эмоциональных переживаниях в виде системы взаимосвязанных языковых значений» [2].

Эмоциональный язык – это термин, используемый при выборе определенных слов, чтобы вызвать у читателя эмоциональный отклик.

Этот тип языка часто направлен на то, чтобы убедить читателя или слушателя разделить точку зрения автора или говорящего, используя язык, специально выбранный для стимулирования эмоциональной реакции.

Поскольку теперь мы знаем ответ на вопрос «Что такое эмоциональный язык в русском языке?», посмотрим, как писатели могут его использовать.

Эмоциональный язык можно использовать по-разному. Примеры эмоционального языка вы найдете в таких видах разговорной речи, как *речь, устные выступления, общедоступные адреса, дебаты, повседневный разговор* [3].

Часто он используется в творческих или художественных произведениях, чтобы дать читателю динамичный и увлекательный опыт. Эта техника распространена в *романе, поэзии, коротких историях, играх*.

Может использоваться эмоциональный язык и в документальной литературе, например, в *биографии, газетных статьях, мнениях, личных блогах*.

В качестве примера приводим следующий отрывок из речи Мартина Лютера Кинга-младшего

во время Марша в Вашингтоне за рабочие места и свободу в 1963 году: «У меня есть мечта, что однажды на красных холмах Грузии сыновья бывших рабов и сыновья бывших рабовладельцев смогут вместе сесть за братский стол. Я мечтаю, что однажды даже штат Миссисипи, штат, изнуряющий жаром несправедливости, жаром угнетения, превратится в оазис свободы и справедливости».

Этот отрывок включает в себя ряд примеров эмоционального языка. Например, фраза «У меня есть мечта» использует личное местоимение, предлагая слушателям разделить видение Кинга о лучшем мире, и настойчиво повторяется на протяжении всей речи.

«Братство» – это абстрактное существительное – слово, описывающее идею или концепцию. Кинг использует его, чтобы призвать аудиторию к тому, что представляет собой «братство» – принятию, равенству и общности.

Кинг также использует метафорический язык, описывая штат Миссисипи как «задыхающийся» от несправедливости и прохладный «оазис» свободы, которым он мог бы быть. Использование сенсорных описаний тепла помогает проиллюстрировать трудности борьбы за гражданские права, а также напомнить своим зрителям, к чему они стремятся. Эта часть выступления призвана мотивировать активистов гражданских прав продолжать протестовать в защиту своих прав.

Только из этого короткого отрывка мы можем увидеть, как определенные слова вносят свой вклад в общий смысл речи и побуждают людей принять его послание.

Следующий входящий в эмотивность концепт – это эмоциональные слова, которые будут иметь эмоциональное воздействие. Некоторые слова вызывают сильную эмоциональную реакцию у большинства читателей или слушателей и имеют определенный вес, который трудно игнорировать. 1) **прилагательные** – *ужасный, чудесный, волшебный и трагический*; 2) **абстрактные существительные** – *свобода, гордость, справедливость, любовь и ужас*; 3) **глаголы** – *уничтожено, оправдано, спасено, предано и обожаемо*; 4) **эмоциональные наречия** – *гневно, вызывающе, гордо, красиво*.

По утверждению Н.С.Валгиной, «наречия – это слова, которые изменяют глагол, прилагатель-

ное или другое наречие» [4]. Их можно использовать для описания того, как что-то было сказано или как было выполнено действие, что делает их полезными инструментами в эмоциональном языке. Наречия также могут использоваться для описания специфики действия, например, наречия степени, показывающие читателю насколько сильно что-то произошло, или наречия частоты, уточняющие как что-то было сделано: *лениво, блестяще, счастливо, с гордостью, тупо*.

Один из важных квалификаторов наречий – избыточность многословия и эмоциональных наречий. Например, сравним два предложения: 1) *Евгений быстро побежал домой*; 2) *Евгений помчался домой*. Хотя эмоциональные наречия – простой способ привнести эмоции в письмо, иногда одно слово может быть более резким и точным. Эмоциональ-

ные наречия могут резко изменить тон письма, поскольку помогают читателю понять взгляды автора.

На тон также может влиять использование слов низкой или высокой модальности. Например, фраза «*Ты никогда не будешь певцом*» гораздо более эффективна, чем фраза «*Возможно, ты не будешь певцом*». Использование эмоциональных наречий, прилагательных и глаголов может иметь огромное значение для смысла произведения.

Таким образом, эмоциональный концепт представляет невербальные средства общения, в наибольшей степени выражающие истинное отношение говорящего к явлениям окружающей действительности и в значительной степени определяющие особенности коммуникативного поведения, оказывая сильное влияние на процесс взаимодействия.

Литература

1. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. М., 1997.
2. Рейковский Я. Экспериментальная психология эмоций. М.: Прогресс, 1979.
3. Катермина В.В. Эмоции в художественном тексте / Сборник научных трудов «Иностранные языки: лингвистические и методические аспекты», вып. 32. Тверь: Тверской государственный университет, 2015.
4. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. Учебное пособие для студентов вузов. М., 2001.

Мафтуна НАСРИДДИНОВА,

магистрант Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

НЕСКОЛЬКО СЛОВ ОБ ИНОЯЗЫЧНЫХ ЗАИМСТВОВАНИЯХ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

На протяжении всего развития в любом языке происходит процесс заимствования слов из других языков, что вызвано слиянием и взаимообогащением культур. Самым подвижным пластом языка считается лексический, быстро реагирующий на какие-либо изменения, происходящие в обществе и мире в целом. В статье мы попытаемся показать различные точки зрения на определение иноязычных заимствований в русском языке.

Многие лингвисты считают, что язык можно рассматривать как «живой организм», который «растет» как внутренне, так и подвергаясь внешним деятельностным воздействиям. Следовательно, между разными языками постоянно происходят различные взаимодействия, в результате которых многие языки заимствуют новые слова, развивая и обогащая национальные языки. Заимствованные слова демонстрируют лексическую энергию «принимающего» языка, поскольку новые слова адаптируют грамматические нормы «принимающего» языка. Русский язык является примером того, как язык может постоянно обогащаться

заимствованиями из других языков под влиянием различных политических, экономических, социальных и исторических процессов. В настоящее время вопрос об иностранных заимствованиях весьма актуален в контексте современного политического, экономического и социального развития современного общества.

В «Лингвистическом энциклопедическом словаре» можно найти следующее определение: «заимствование – это элемент иностранного языка (слово, морфема, синтаксическая конструкция и т.п.), передаваемый из одного языка в другой в результате языковых взаимодействий, а также процесс перехода элементов одного языка в другой» [1, с. 231].

Очень часто внешние факторы становятся первопричиной лексических заимствований. Основной внешней причиной являются прочные политические, экономические и культурные связи между людьми. Д.Э.Розенталь в книге «Современный русский язык» определил ряд заимствований: «В петровское время многие слова были

заимствованы из немецкого и голландского языков. В этот период русский язык под влиянием экономических и социальных контактов с Германией и Голландией обогатился такими словами, как *бутерброд, бухгалтер, вексель, ефрейтор, юнкер* из немецкого языка. Из голландского языка пришли морские термины: *верфь, гавань, лоцман, флот, шкипер* и др.» [2, с. 65-66].

О.С.Ахманова определяет заимствование как «использование лексического фонда других языков для выражения новых понятий, дальнейшая дифференциация уже существующих и образование новых и ранее неизвестных объектов» [3, с. 264].

Важно подчеркнуть, что внутриязыковые и внешние причины заимствований взаимосвязаны. Социальный запрос на уточнение различных понятий обуславливает тенденцию использования более точных и дифференцированных определений различных понятий. Другая внутриязыковая причина заимствования – замена длинного описательного определения определением одним словом, вытесняющая исконно русское описательное выражение одинакового с ним значения. Например, *снайпер* вместо *меткий стрелок*, *турне* вместо *кругосветное путешествие*, *мотель* вместо *гостиницы для автотуристов*, *спринт* вместо *бег по предписанной дистанции* и т.д.

В зависимости от уровня адаптации заимствованных слов в русском языке можно выделить несколько существенно различающихся по стилю групп.

1. Слова, явно утратившие явные признаки своего иностранного происхождения: *картина, кровать, стул, тетрадь, школа*.

2. Слова, сохраняющие некоторые внешние признаки нерусского происхождения: иноязычное звучание – *джаз, вуаль, жюри*; нерусские суффиксы – *техникум, директор, студент*; префиксы – *трансляция, антибиотики*; несклоняемые слова – *кино, кофе, пальто*.

3. Общеупотребительные слова из области политики, науки, искусства и культуры со схожим звучанием в других европейских языках. Такие слова называются интернациональными, например, *телеграф, телефон, интернет, компьютер* и др. Эта группа заимствованных слов не имеет русских синонимов и используется в повседневной речи без каких-либо ограничений [4, с. 31].

К сожалению, при употреблении заимствования иногда происходит повторение его значения в словесном выражении, т.е. возникает проблема плеоназма, например, *короткий брифинг* (briefing), *ландшафт местности* (Landschaft), *короткий блицтурнир* (Blitz-Turnier), *народный фольклор* (folklore) и т.д. Это неуместное использование иностранных слов.

